

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

XUSHNAZAROVA MAMURA NODIROVNA

IJTIMOIIY PEDAGOGIKA

Darslik

*Pedagogika oliy ta’lim muassasalarining Maktabgacha ta’lim bakalavriat
ta’lim yo‘nalishlari uchun darslik*

*60110300– Maktabgacha ta’lim
psixologiyasi va pedagogikasi*

TOSHKENT - 2025

Mazkur darslik Pedagogika oliy ta'lim muassasalarining Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun mo'ljallangan bo'lib, u o'z ichiga ijtimoiy pedagogikaning nazariy jihatlarini, oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy pedagogika fanini o'qitishning predmeti, maqsadi va vazifalari alohida yoritib berilgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, darslikning yanada samarali bo'lishi uchun, har bir mavzu doirasida tayanch so'zlar, mashg'ulotni o'zlashtirish va o'quv jarayonining samarali bo'lishi interaktiv interfaol metod va texnologiyalarni qo'llash tartibi keltirilgan. Darslik ijtimoiy pedagogika fani bakalavriat ta'lim yo'nalishi DTS, o'quv reja va o'quv dasturlari asosida yozilgan.

Taqrizchilar:

M.Artikova, pedagogika fanlari doktori, professor

A.Ziyayev, dotsent

ANNOTATSIYA

Mazkur darslik pedagogik oliy ta'lim muassasalarining "60110300–Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, ushbu darslikda oliy ta'lim muassasalarida Ijtimoiy pedagogika fanini o'qitishning predmeti, maqsadi va vazifalari alohida yoritib berilgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, darslikning yanada samarali bo'lishi uchun, har bir mavzu doirasida tayanch so'zlar, mashg'ulotni o'zlashtirish va o'quv jarayonining samarali bo'lishi interaktiv interfaol metod va texnologiyalarni qo'llash tartib keltirilgan. Shuningdek, har bir mavzu yakunida mustahkamlash uchun Ijtimoiy pedagogika fanidan testlar ham berib o'tilgan.

АННОТАЦИЯ

Данный учебник предназначен для студентов образовательного направления «60110300-Психология и педагогика дошкольного образования» педагогических вузов и задания разъясняются отдельно. Следует отметить, что для того, чтобы учебник был более эффективным, внутри каждой темы существует порядок использования ключевых слов, освоения обучения и эффективности учебного процесса, использования интерактивных методов и технологий. Также в конце каждой темы для подкрепления были даны тесты по социальной педагогике.

ANNOTATION

This textbook is intended for students of the educational direction "60110300 – Psychology and Pedagogy of Preschool Education" of pedagogical higher educational institutions. This textbook specifically highlights the subject, goals and objectives of teaching Social Pedagogy in higher educational institutions. It should be noted that in order for the textbook to be more effective, key words are presented within each topic, the use of interactive methods and technologies for mastering the lesson and the effectiveness of the learning process is provided. Also, tests on Social Pedagogy are given at the end of each topic to consolidate.

KIRISH

Hozirgi kundagi global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi XXI asr o'qituvchisidan pedagogik mahoratni, o'tkir irodani, pedagogik-psixologik bilimlarni, o'z fanini chuqur bilishni va yuksak tafakkurni, siyosiy savodxonlikni, keng fikrlash doirasi va mulohazakorlikni talab qiladi. Ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar o'qitish shakllarini optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. Shaxsni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan.

Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi va uning tashkil etilishi nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ushbu tajribalar o'qitish shakllarida foydalaniladigan qonuniyatlar va prinsiplarni ijodiy qo'llashda, ilmiy bilishga doir g'oyalar, nazariyalar va qonuniyatlarni amaliyotga tatbiq etishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, buyuk allomalar vatani bo'lmish O'zbekistonda yosh avlod tarbiyasi mutlaqo o'zgacha ma'no kasb etishi muqarrar.

O'qituvchi – O'zbekistonning porloq kelajagini barpo etuvchi, dunyoga mashhur mutafakkir va olimlarning davomchisi bo'lgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxsdir. Shunday ekan, o'qituvchining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi, uning o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o'rtasidagi obro'-e'tibori hozirgi zamon talablariga mos bo'lishi shart. O'qituvchi nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, balki pedagogik mahoratini namoyon eta olishi, yetuk o'qituvchi sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga munosib hissa qo'shishi zarur.

O'zbekistonda ta'lim tizimini rivojlantirish va modernizatsiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni

asosida barcha sohalarida keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirilayotganini ta’kidlab, mamlakatning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi avvalo ilm-fan va ta’lim-tarbiya sohasining rivoji bilan uzviy bog‘liqligini qayd etdi. “Yangi O‘zbekiston davlatini barpo etish, uni yanada taraqqiy ettirishga qaratilgan og‘ir va mashaqqatli, shu bilan birga g‘oyat sharaflı mehnatingizni munosib qadrlash uchun biz ustozlarga davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etishga tayyormiz”, – deya va’da berdi. Bu o‘qituvchiga e’tibor zamirida ulkan ishonch va mas’uliyat mujassam.

“Ijtimoiy pedagogika” kursi talabalarining umumiy pedagogik bilim darajasini kengaytirish bilan birga, ularni jamiyatdagi turli ijtimoiy munosabatlar, ma’naviy omillar, shuningdek, mazkur fanning obyekti, predmeti, boshqa fanlar bilan aloqadorligi, kategoriyalari va ijtimoiy pedagog kasbining o‘ziga xos xususiyatlari kabi masalalar ustida bosh qotirishga undaydi.

Fanni o‘qitishdan maqsad – bolalarni ijtimoiylashtirish jarayonida ijtimoiy tarbiya va ta’lim qonuniyatlarini o‘zlashtirishdir.

Fanning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Ijtimoiy pedagogika, uning obyektlari, tadqiqot predmeti va asosiy kategoriyalari haqida nazariy bilimlar berish.
- Talabalarda ijtimoiy-pedagogik tadqiqotga doir ko‘nikma va malakalarni shakllantirish.

Talabalar uchun bilim va ko‘nikmalar:

- Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning madaniy-tarixiy an’analari va rivojlanish omillari.
- Ijtimoiy pedagog va boshqa kasbiy faoliyat sohalarining farqlari.
- Ijtimoiy pedagog faoliyatining vazifalari, strukturasi va uzluksiz ta’lim mazmuni.
- Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsini ijtimoiylashtirish mohiyati.
- Asotsial oilalar bilan ishlash usullari, imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiylashtirish shartlari va huquqiy me’yorlari.

- Ijtimoiy pedagogik texnologiyalarni qo'llash va xavotirli oilalar bilan ishlash metodlari.
- Deviant xulqli bolalar bilan ijtimoiy-pedagogik faoliyat olib borish malakalariga ega bo'lish.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ijtimoiy pedagogika fanini rivojlantirish uchun qulay zamin yaratmoqda. Ta'lim-tarbiya sohasining mazmuniga shaxsning ijtimoiylashuvi masalasi asosiy vazifa sifatida kiritilmoqda. Shu sababli ijtimoiy pedagogika bo'yicha darslik va qo'llanmalarni yaratish dolzarb masaladir. Bu nafaqat yosh avlod tarbiyasi uchun muhim, balki jamiyatning taraqqiyoti va ma'naviy yuksalishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagilarni inobatga olib mualliflar tomonidan o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish maqsadida pedagogika oliy ta'lim muassasalarining Maktabgacha ta'lim yo'nalishlari uchun "Ijtimoiy pedagogika" darsligi tayyorlandi. Mazkur darslik muallifi M.N. Xushnazaova tomonidan tayyorlangan, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligida ro'yxatga olingan "Ijtimoiy pedagogika" fan dasturi asosida ishlandi.

Darslik pedagogika oliy ta'lim muassasalarining Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun tayyorlandi, undan pedagog, magistrant va talabalar hamda ilmiy izlanuvchilar foydalanishi mumkin.

1 – MAVZU: IJTIMOIIY PEDAGOGIKA FANI JAMIYAT RIVOJINING ASOSI SIFATIDA

REJA:

1. Ijtimoiy pedagogikaga kirish.
2. Ijtimoiy pedagogika fanlari tizimidagi o`rni.
3. Fanning predmet, ob`ekt, maqsadi va vazifalari.
4. Ijtimoiy pedagogikaning boshqa pedagogik fanlaridan farqi.
5. Ijtimoiy pedagogikaning jamiyat tarakkiyotida tutgan o`rni va roli, jamiyatda ijtimoiylashuv jarayonining globallashuvi.

Tayanch tushunchalar: Ijtimoiy pedaogika, islohotlar, ijtimoiy hayot, xususiyatlar, zaruriy shart, ijtimoiy - pedagogik faoliyat.

«Ijtimoiy pedagogika» kursi talabalarning umumpedagogik bilim darajasini kengaytirish bilan birga, ularni jamiyatdagi turli ijtimoiy munosabatlar, ma`naviy omillar, shuningdek, mazkur fanning ob`ekti, predmeti, uning boshqa fanlar bilan aloqadorligi, kategoriyalari, ijtimoiy pedagog kasbining o`ziga xos xususiyatlari kabi muammolar ustida bosh qotirishga undaydi.

Fanni o`qitishdan maqsad – bolalarni ijtimoiylashtirish jarayonida ijtimoiy tarbiya va ijtimoiy ta`lim qonuniyatlarini o`zlashtirish.

Fanning vazifasi – gumanitar bilishning sohasi sifatida ijtimoiy pedagogika, uning ob`ekti, tadqiqot predmeti va asosiy kategoriyalari haqida nazariy bilimlar berish; talabalarda ijtimoiy- pedagogik tadqiqotga doir ko`nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

“Ijtimoiy pedagogika” o`quv fanini o`zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

Ijtimoiy - pedagogik faoliyatning madaniy-tarixiy an`analari; ijtimoiy-pedagogik faoliyat rivojining tarixiy omillari; pedagog, ijtimoiy-pedagog va ijtimoiy xodimning kasbiy faoliyatidagi farqlar; ijtimoiy- pedagogning kasbiy faoliyati strukturasi; ijtimoiy-pedagog faoliyati vazifalari; ijtimoiy- pedagogning kasbiy tayyorlashda uzluksiz ta`lim mazmuni; O`zbekistonda ijtimoiy pedagog amaliy faoliyatining o`ziga xosliklari; maktabgacha yoshdagi bola shaxsini ijtimoiylashtirish mohiyati; bola shaxsini ijtimoiylashtirishda mikro muhitning roli; rivojlanishida nuqsoni bo`lgan bola, nogiron bola, cheklangan imkoniyati bola tushunchalari tavsifi; imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiylashtirishdagi umumiylik va tafovutlar; imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiylashtirishning shartlari va xuquqiy me`yorlari; ijtimoiy pedagogik kategoriyalar; ijtimoiy pedagogikaning tamoyillarini bilishi kerak;

ijtimoiy pedagog faoliyat metodikasi va texnologiyasi; asotsial oilaga ijtimoiy - pedagogik yordamning asosiy shakllari; ijtimoiy pedagog faoliyatida ishontirish metodlari, korrektsiya, mashqlarini qo`llash; kasbiy faoliyatda

sotsiologik metodlardan foydalanish; ijtimoiy pedagogik texnologiyalarini qo'llash; xavotirli oila ijtimoiy maqomini tavsiflash; xavotirli oila bilan ishlash metodlarini qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;

ota-ona vasiyligisiz qolgan bolalar bilan ijtimoiy-pedagogik faoliyat olib borish; deviant xulqli bolalar bilan ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish va olib borish malakalariga ega bo'lishi kerak. Ijtimoiy pedagogika, garchi u avvaldan yurtimizda "ijtimoiy tarbiya", "ijtimoiy muhofaza", "ijtimoiy yordam" ko'rinishida mavjud bo'lgan bo'lsada pedagogik bilim sohasi va fan sifatida O'zbekiston uchun yangi hodisa va tushunchadir. Uning mustaqil fanga aylanganligi, ammo amaliy tajribalarni tizimlashtirilmaganligining sabablari O'zbekiston tarixiy rivojlanishining murakkabliklari va qarama-qarshiliklari bilan izohlanadi. Ijtimoiy pedagogikaga salbiy ta'sir ko'rsatgan hodisalarga XX asrning 30-yillarida boshlangan ijtimoiy tarbiyaning diskreditatsiyalashuvi, mahalliy olimlar, pedagoglarni xorij tajribasi va chet ellik hamkasblaridan ajratgan "temir parda"ning paydo bo'lishi, umuminsoniy qadriyatlarni sinfiy qadriyatlarga almashtirilishi, ijtimoiy muammolar haqida jim turish siyosati, rahmdillik, mehr-muruvvat an'alarining yo'q qilinishi misol bo'ladi. Bugungi kunda ijtimoiy pedagogikaga qiziqish jamiyat taraqqiyotining ehtiyojlari va davlatning ijtimoiy buyurtmasi asosida paydo bo'ldi.

Hozirda respublikamizning barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'lim borasida ham katta islohotlarni amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy tuzilmalarni insonparvarlashtirishda yangi tamoyillarga asoslanish, bozor iqtisodiyoti munosabati qonunlari, mafkuraviy va axloqiy tamoyillarning o'zgarishi ishsizlik, moddiy yetishmovchilik, bolalarning nazoratsizligi, oilalarning ajralib ketishi, g'ayri ijtimoiy hodisalar; alkogolizm, narkomaniya, jinoyatchilik, fohishalik kabi ijtimoiy muammolarni ham yechimini topishga qaratilgan chora va tadbirlarni ishlab chiqishga asos bo'lmoqda. Bu holatda birinchi navbatda, bolalar, so'ngra esa kattalar ijtimoiy yordamga muhtojdirlar. Bunday sharoitlarda jamiyatning ijtimoiy muammolari bilan bog'liq bo'lgan pedagogik masalalarni hal qiluvchi, uning ijtimoiylashuvi jarayonida shaxsga yordam beruvchi mutaxassis sifatida ijtimoiy pedagogga talab paydo bo'ldi.

Muhtojlarga ijtimoiy-pedagogik yordamni amalga oshirish, jamiyatda insoniylik, fuqarolarning haq-huquqlarini amalga oshirishga asoslangan yangi demokratik qadriyatlar paydo bo'lgani bilan ham izohlanadi. Bu masalaning ahamiyatliligi davlatimizning boshqaruv tizimlari tomonidan mustaqillikning ilk kunlaridanoq anglanganligini, quyidagilar bilan izohlash mumkin:

Kuchli ijtimoiy siyosatni respublika taraqqiyotining ustuvor yo'nalishi sifatida e'lon qilinishi;

1. Aholining kam ta'minlangan qatlamlarini himoya qilish yuzasidan bir

qator qonun va farmonlarning qabul qilinishi;

2. Sobiq ijtimoiy himoya muassasalarining moddiy texnik bazasining yaxshilanishi va yangilarining ta'sis etilishi;

Ijtimoiy pedagogika fan sifatida pedagogikadan ajralib chiqdi. Uni o'rganilish jarayoni va ko'rinishi pedagogika o'rganadigan lekin aniq o'ziga xos jihatda tatbiq qilinadi. Pedagogika fanining bu yangi tarmog'i o'ziga xosligi "ijtimoiy" so'zida namoyon bo'ladi.

"Ijtimoiy" tushunchasi (lotincha socialis-umumiy, jamoatchilik) insonlarning birgalikdagi hayoti bilan bog'liq bo'lib, ularning muomala va bir-biriga ta'sirining turli xil shakllarda birlashadi. **Pedagogika** – fan sifatida o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi va ta'limi haqidagi fan bo'lsa, ijtimoiy pedagogika esa tarbiya va ta'limning bolalar hayotining jamiyatdagi o'rnini belgilab beradi. Bu jarayon bolaning jamiyatga "kirishi" ularning ma'lum bir ijtimoiy tajribaga ega bo'lishi (bilim, qadriyatlar, axloqiy qoidalar o'rgatiladi) **sosializastiya** (ijtimoiylashuv) deb yuritiladi.

Bolaning ijtimoiylashuvi – juda uzoq va murakkab jarayon hisoblanadi. Har qanday jamiyatda har bir bola shu jamiyat ma'lum ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar tizimiga, me'yor va qoidalariga ega bo'lishi shu jamiyatda yashash uchun teng xuquqli a'zosi bo'lishga intiladi.

Jamiyat o'zining tuzilishiga ko'ra turli xildagi o'zaro bog'langan va o'zaro ta'sir etuvchi **ijtimoiy institutlarga** ega. **Ijtimoiy institut** - insonning jamiyatdagi hayotining tarixiy murakkab shaklda tashkil etilganligi va tartibga solinganligini o'rganadi. Huddi ana shular orqali bola jamiyat qonuniyatlari va axloq me'yorlarini o'zlashtiradi. Shunday ijtimoiy institutlarni ijtimoiylashgan institut deb nomlash mumkin va bularga **oila**, **ta'lim**, **madaniyat** va **din** kabilar kiradi. Oila - ijtimoiylashishining yetakchi instituti bu orqali bola asosiy ijtimoiy bilimni egallaydi, axloqiy malaka va ko'nikmaga ega bo'ladi, ma'lum baxs va eng yuksak maqsadlarni o'zlashtiradi, hayotida nima kerak bo'lsa shu jamiyatdan oladi.

Ta'lim – ta'lim orqali bola bu jamiyatga hukmronlik qilayotganlarni baholay oladi. Bilim olish jarayonida, u nafaqat rivojlanadi, balki jamiyatdagi hayotga moslashadi.

Madaniyat – bu shunday ijtimoiy institutki, insoniyat o'zi uchun yaratilgan, moddiy va ma'naviy boyliklarni tanlaydigan soha. Bolaga uning shakllanish jarayonida adabiyot, musiqa, rasm, ommaviy axborot vositalari va boshqalarning ta'siri kuchli bo'ladi.

Din – ijtimoiy institut sifatida murakkab ijtimoiy ko'rinishga ega. Bu yaxlit tizimda alohida tasavvur, sezgi harakatlari, tashkilotlar va e'tiqodga ega turli xil birlashmalari mavjud. Doimiy axloqiy qadriyatlar, islom, xristian dinida

yaqinlarga (g'amxo'rlik, halollik, chidamlilik, yaxshilik, mehr-muruvvatlilik va b.), diniy bayram va an'analar, diniy musiqa va bolaning jamiyatdagi axloqiy me'yorlariga ta'sir etishi mumkin.

Fan sifatida ijtimoiy pedagogika xususiyatlarini tushunish uchun u nimani o'rganishini aniqlab olish lozim. Biz ularni bu yangi ijtimoiy soha ajralib chiqqan pedagogika bilan solishtirishda aniqlaymiz. Biz bilamizki, pedagogikaning o'rganish ob'ekti – bola, predmeti esa - bola tarbiyasi va ta'limi qonuniyatlari hisoblanadi. Ijtimoiy pedagogika ob'ekti – bola bo'lib, o'rganish predmeti bolaning ijtimoiylashuvi (sotsializatsiyasi) hisoblanadi.

Ijtimoiy pedagogika ma'naviy – ma'rifiy faoliyatning alohida sohasi sifatida uning ommaviyligi, barchacha axoli urtasida milliy istiklol g'oyalarini targ'ibot – tashvikotini keng olib borish imkoniyatini beradi.

Ijtimoiy pedagogika predmeti sa'natdan shaxsga ta'sir etadigan g'oyaviy – emotsional vositalar kompleksidan keng foydalanish bilan farq kilib turadi.

Ijtimoiy pedagogika O'zbekistonda xam, dunyodagi boshqa mamlakatlarda xam o'z ok va chukur an'analarga ega. Shunga karamay sovet davrida ijtimoiy pedagogika yutuklari e'tiborga olinmadi. Bunday muammolarni shaxsga, xamkorlik an'analarga, raxm – shavkatga, milliy an'analarga befarq bulish xolatlari bilan izoxlash mumkin. Bu ijtimoiy tarbiya sohasi mutaxassislari oldida turgan vazifalarni murakkalashtirib yuboradi. SHuning uchun xam ijtimoiy pedagogikani rivojlantirish va mazkur yunalishda mutaxassislar tayyorlash muxim ahamiyat kasb etadi. Mana shuning uchun xam ijtimoiy pedagogika yangi soha sifatida fakat ijtimoiy – pedagogik mutaxassislar davlat va jamoat organlari boshqarmalarinigina emas, balki mutaxassislar tayyorlaydigan tizimni, shuningdek ijtimoiy – pedagogik faoliyatining ilmiy – tadqiqot bazasinni xam o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy pedagogika yaqin kelajakda ukituvchi yoki tibbiy xodim singari ommaviy kasbga aylanadi, chunki ayrim olamning ijtimoiy kasalligini oldini olish va ma'naviy – axloqiy ogishini davolash «ijtimoiy epidemiya»ga qarshi kurashga nisbatan ancha osondir.

Ijtimoiy pedagogikani fan sifatidagi xususiyatlarini anglash uchun uning tadqiqot ob'ekti xususiyatlarini o'rganmok lozim. Shu sabab fanda tadqiqot ob'ekti va predmeti tushunchasi mavjud. Ijtimoiy pedagogikaning tadqiqot ob'ekti za predmetini taxlil qilishdan avval ijtimoiy pedagogika terminining o'ziga ahamiyat bermok kerak. Bu termin ijtimoy va pedagogika so'z laridan tashkil topib ularni ma'nosini o'zida jamlayadi. Bu birlik fanda differentsatsiya va integratsiya xodisalari bilan birgalikda namoyon bo'ladi.

Yangi bilimlarni o'sishi ilmiy fikrlarni real xayotga tatbiq etilishi, yangi mualimmlarni yuzaga kelishi jamiyatni ilmga extiyojini yuzaga keltirish darajasi

fanning differentsnatsiyasi va maxsuslashtirish tendentsiyasi ko'z atiladi. Chunonchi asosiy fan mustaqil rivojlanuvchi xususiy tarmoklarga ajratiladi. SHuningdek bir qator muammolarni xal qilishda tuplam nukta nazardan bir ob'ektni urganuvchi mustaqil fan birligini o'zida namoyon qiluvchi integratsiya xodisa ko'z atiladi. Masalan: pedagogikani boshqa fanlar bilan alokasida tadkikotning mustaqil ob'ektlari aloxida ko'z atiladi: falsafa bilan birgalikda ta'lim falsafa psixologiya bilan o'z aro munosabatda psixolo- pedagogika, siyosatshunoslik bilan birlikda.. Bunday misollarni kuplab keltirish mumkin.

Pedagogikada keyingi vaqtda differentsiya xodisasi yetarli darajada kuchaydi. Pedagogikaning mustaqil fan sifatidagi tarmoklari maktabgacha pedagogika, maxsus pedagogika, professional pedagogika rivojlanib, takomillashib bormokda. Ijtimoiy pedagogika shular jumlasidandir.

Ijtimoiy pedagogikaning tadkikot ob'ekti pedagogika urganadigan jarayon va vokelik bo'lib, u masalani muaaaaaayyan, o'ziga xos aspektda kuradi. Uning o'ziga xosligi esa «ijtimoiy» degan so'zda ifodalangan. Ijtimoiy pedagogikaning ob'ekti insonning ijtimoiyla-shuv jarayonidir. Xalkning boy merosi, pedagogikasidan, fan, madaniyat, jamiyat yutuklaridan foydalanib, ijtimoiy pedagogika o'z nazariyasini, metodi va texnologiyasini ishlab chikadi. Ijtimoiy pedagogiki davlat va jamiyat institutlarining ma'naviy ma'rifiy markazlari faoliyati soxasidir, bu yerda yangi kadriyatlar san'ati shakllantiruvchi va birlashtirib turuvchi faoliyat jamlanadi.

«Ijtimoiy» tushunchasida odamlarning birga yashashi bilan bog'liq jarayonlar ifodalangan, ammo ularning mulokati va o'z aro alokalari turli shakllarda bo'ladi. Demak, pedagogika o'sib kelayotgan avlod tarbiyasi va ta'limi to'g'risidagi fan bo'lib, ijtimoiy pedagogika esa jamiyat a'zosini tarbiyalash va unga ta'lim berish to'g'risidagi fandir.

Ijtimoiy pedagogika jarayon va xodsalarni ma'lum spetsifik aspektda o'rganadi. Pedagogik bilimlarning bu yangi tarmogi spetsifikasi «ijtimoiy» so'zida namoyon bo'ladi. «umuminsoniy tushuncha insonlar xayotiy faoliyati, ularning o'zaro mulokat» formalari bo'lgan narsa-xodisalarpi o'zida jamlaydi. SHunday kilib, pedagogika yosh o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalovchi va ta'lim beruvchi fan asoslari ijtimoiy pedagogika ta'lim-tarbiya jarayonida bolaning jamiyat xayotiga kiritishni ta'minlaydigan aspektni tadkik etadi.

Insonni atrofdagi muxit bilan o'zaro alokasiga ta'siri asosida rivojlanishini uning ijtimonylashish jarayoni deb ta'kidlash mumkin. Zero ijtimoiy norma - madaniyat kadr-qimmatlar egallashi lozim shuningdek bu jamiyatda insonni o'z kobiliyatlarini realizatsiya kilinish, nazorat qilish ijtimoiy ijtimoiy tajribani egallash (bilimlar kadr-qimmat xulk-atvor koidalari jarayoni ijtimoiy xodisa deb nomlanadn. Bolani ijtimoiylashtirish murakkab va davomli xodisadir. Bir

tomondan xar qanday jamiyat o'zining rivojlanish etapida ma'lum ijtimoiy, ma'naviy kadr- qimmat, o'z ini tutishi, axloqiy konun-koidalar, normalar ishlab chiqadi.

Jamiyat bir avlod shu jamiyatdagi konun - koidalarni egallab uning teng xuquqli a'zosi sifatida yashab, faoliyat kursatishni ko'z da tutadi. Buning uchun jamiyat ta'lim-tarbiya normasi orkali shaxsga ta'sir kursatadi Ikkinchi tomondan, atrofdagi olamda sodir etilayotgan turli xodisalar uning shakllanishga ta'sirini kursatmay qolmaydi.

Jamiyat o'zaro munosabatda bo'lgan o'zaro xarakatlanadigan xilma-xil ijtimoiyi institutlarni o'zida namoyon kiladi. SHular orkali bola tomonidan ijtimoiy normalarni egallash jarayoni amalga oshadi. Bulardan ba'zilar bolani rivojlanishi va ijtimoiy shakllanishiga ta'sir kursatadi, boshqalari esa uning shaxsiy sifatlarini shakllanishiga ijobiy ta'sir kursatadi. Bunday ijtimoiy institutlar qatoriga oila, ta'lim, madaniyat va din kiradi.

O'z qobiliyatini inson tomonidan jamiyatda kuplab kuydagi jarayonlarda amalga oshadi;

A) Insonni jamiyat bilan stixiyali o'zaro munosabatda va uning xayotiy jabxalariga stixiyali ta'lim jarayonida.

B) Insonlarni u yoki bu kategoriyasiga davlat tomonidan pedagogika nimani urgatadiq Ijtimoiy pedagogika insonlarning butun egalayotganayotgan davom etayotgan amalga oshiradigan ijtimoiy tarbiyani tadkik ta'sir kursatish jarayonida.

V) Inson rivojlanishi, uni tarbiyalash uchun kulay shart—sharoitlar yaratish.

G) Inson o'z ini tarbiyalashi va rivojlantirish jarayonida.

Shunday qilib, rivojlanish insonni shakllanish jarayoni, ijtimoiylashtirish-konkret ijtimoiy sharoitlar asosida rivojlantirishdir.

Inson tarbiyasi asosan oilada amalga oshiriladi. Bu xolatda biz oilaviy pedagogika ob'ekti bo'lgan oilaviy xususiy tarbiyalarida muloxoza yuritamiz.

Tarbiyalash diniy idoralar orkali amalga oshadi. Bunda konfessional tarbiyaga duch kelimiz.

Tarbiyalash davlat va jamiyat tomonidan shu maksadida tashkilotlar orkali yuzaga keladi. Bu ijtimoiy pedagogika tadkikot ob'ekti bo'lgan ijtimoiy tarbiyalash jarayoni xususida fikrlaymiz.

Ijtimoiy tarbiyalash siyosatshunoslik, ijtimoiy: jarayonining tarkibiyismi xisoblanadi. Ijtimoiy pedagogika matnda uni ijtimoiylashtirish bilan borish oldida urganadi ya'ni, planeta, mamlakat maktablardagi inson tarbiyasiga ijtimoiy omillar ta'sir etish ishlab chikarish tarbiyasida oila, ommaviy axborot vositalar, atrofda odamlar bilan mulokot urnini kurib chiqadi.

Ijtimoiy pedagogikani nima uchun urganish lozim:

Ijtimoiy pedagogika - fanning shunday tarkibiki uning vositasida:

Birinchidan inson xayotda ma'lum sabablar asos ichida yuzaga kelgan xodislar urganiladi.

Ikkinchidan insonning rivojlanishi uchun qo'llay sharoitlar yaratishni ko'z da tutadi.

Uchinchidan ta'sir etuvchi xodisalarni oldini oladi.

Ijtimoiy pedagogika o'quv predmeti sifatida ijtimoiy pedagogik faoliyat tasvirini xarakterlaydigan vazifasini amalga oshiradi. Bu vazifani amalga oshirish ijtimoiy pedagogikani urganish jarayonida talabalar tomonidan bir qator maksadlarni amalga oshirishni ko'z da tutadi: ma'lum doiradagi nazariy bilimlarni egallash va bularni amalda kullash muammoni oldindan kurish va yechishga sub'ekt va ijtimoiy jarayonga kura ijtimoiy gumanitik munosabatlarni shakllantirish. Ijtimoiy pedagogika ijtimoiy tarbiya muammosini urganadi. Bu ijtimoiy pedagogika ukuv kursini tuzilishini o'zida aks ettiradi. U ijtimoiylashtirish jaryonini ijtimoiy pedagogik xodisa sifatida o'rganadi. Ijtimoiy pedagogika pedagogikaning mustaqil bir bulagi bo'lib u kishilar jamoasi xamda aloxida shaxslarga ta'lim tarbiya jarayonidagi ijtimoiy muammolar ularning kelib chiqish sabablari xamda bu muammo-larning bartaraf etilishining nazariy va amaliy jixatlarini urgatadi. Ijtimoiy pedagogika fani ijtimoiy shaxsning o'ziga xos mil-liylik tomonlarini tarbiya jarayonida urgatib boradi.

Pedagogika va sotsial pedagogika bir-biriga juda bog'liq, lekin ularning fark;i shundaki Pedagogika fani ijtimoiy shaxsning fak;at ta'lim va tarbiyasi bilan xugullanadi. Ijtimoiy pedagogika esa bola xaxsini va uning bolaligini himoya k;iladi.

Ijtimoiy pedagogika fanining maqsadi va vazifasi.

Pedagogik sotsiologiya faning maksadi jamiyatdagi xar bir shaxsning xayotida uchraydigan ijtimoiy muammolarni bartaraf etish va xal k;ilishdan iborat. Ta'lim va tarbiya masalalari bilan shugullanish , keksalar, qariyalar; kasal va boquvchisini yuqotganlar, mexribonlik uyida tarbiyalanayotgan bolalar xolidan xabar olish. Shu jumladan foxishabozlik, narkomaniya va qonunbo'zarlikka qarshi kurashish. Bu illatlardan jamiyatni ayniksa kelajak avlodni ximoya qilish.

Ijtimoiy pedagogika faning vazifasi quyidagi 4 bosqichni o'z ichiga oladi.

1. Bolani va usmirni xaqiqatguy qilib tarbiyalash va voyaga yetkazish;
2. Shaxsning mustaqil fikrlay olishi, muammoga duch kelganida uni mustaqil ravishdaxal qila olishi va o'z munosabatini bildirishi;
3. Atrofdagi kipshlar bilan erkio' va madanii xolda muomala q ilishni o'rgatish;
4. Xayotdagi o'z oldiga kuygan maqsad va vazifalarini ongli ravishda

tushunishga urgatish;

O'zbekistonda ijtimoiy pedagogikani tiklash va uni yangi boskichga kutarish uchun xorijiy mamlakatlar tajribasini urganish, bu soxadagi ilmiy bilimlar va milliy tadbirlarni rivojlantirish bu jarayon davomida yuzaga keladigan muammo va kiyinchiliklarni taxlil qilish xam katta rol o'ynaydi.

Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ishlarining rivojlanish tarixi juda yakin. Eng avvalo, ularni odamlarga aloxida gamxurlik va e'tibor talab etadigan madaniy – tarixiy an'ana birlashtirib turadi. Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ishlarda raxm – shavkat, «xayriya», «yordam» kabi tushunchalar juda kup ishlatiladi. Ammo ularning aniq ifodalangan o'ziga xos jixatlari xam bor, mamlakatimizning dastlabki rivojlanish boskichida ular rasman tan olingan institut sifatida namayon buldi, masalan, ijtimoiy ishlar axolini ijtimoiy ximoyalash soxasida rivoj topdi, ijtimoiy pedagogika esa, yukorida ta'kidlanganidek, ta'lim tizimida va yoshlar ishlari buyicha kumita muassasalarida rivojlandi. Ijtimoiy pedagogik va ijtimoiy xodimlar faoliyati astasekin kengayib, biriikkinchisini tuldira bordi.

Ishlarini o'zviy ravishda kushish, ya'ni ma'naviy – mafkuraviy, ma'rifiy faoliyatini pedagogika bilan birga olib borish uchun zarur sharoit yaratish lozim.

Bu ijtimoiy pedagogika soxasidagi yangi ijtimoiy buyurtma bo'lib, tadqiqot ishlarini yulga kuyishda xaqikiy jushkinlik kasb etadi. Kupgina mustaqil fanlarning birlashib bir ob'ektni xar xil nuktai nazardan urganganda integratsiya muammosi ko'z atiladi. Mn-pedagogikaning boshqa fan lar bilan tuqnashishi natijasida yana mustaqil fan-lar yuzaga keldi. Filosofiya bilan -ta'lim filosofiyesi, Sotsiologiya bilan ta'lim va tarbiya sotsiologiyasi, Psixologiya bilan -pedagogyk psixologiya. Ijtimoiy pedagogika pedagogi-kadan ajralib chiqqan. Uning kuzatuv markazida pedagogikada urganladigan barcha jarayonlar namoyon bo'ladi. Ijtimoiy pedagogika aloxida fan va amaliy faoliyag soxasi sifagida bolanilg ijtimoi muhitda rivojlanishi. (sotsiumda rivojlanishi) bilan shug'illanadi.

Ijtimoiy pedagogika tushunchasining mohiyati. Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatidagi ta'rifi bir qator baxs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Yaxshi ma'lumki, har qanday fan bilim sohasi sifatida nazariya va amaliyotning birligi sifatida faoliyat yuritadi. Bu ikki soha doimo bir-birini to'ldirib keladi va voqelikning mukammallashuviga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Demak, biz ijtimoiy pedagogikani ham fan va amaliy faoliyat sohasi sifatida o'rganishimiz lozim. Bundan tashqari ijtimoiy pedagogika ko'pgina boshqa fanlar (falsafa, matematika, biologiya) kabi o'quv fani bo'lib ham xizmat qilishi mumkin.

O'zbekiston tarixiy pedagogik an'analarga ega davlatdir. SHarq mutafakkirlari va diniy arboblarning asarlarida ijtimoiy pedagogika fanining rivojlanishiga asos bo'ladigan g'oyalar mavjuddir. XIX asrda o'zbek ma'rifatparvarlari, XX asrdagi novator pedagoglarining ijtimoiy tarbiya sohasidagi faoliyati ijtimoiy pedagogika uchun boy materiallar manbai hisodlanadi.

Biroq ma'lum bir davrda ijtimoiy pedagogikaning MDH hududidagi tadrijiy rivojlanishi to'xtatib qo'yildi. Ijtimoiy pedagogikaning tiklanishi

faqatgina XX asrning 90-yillarida ro'y bera boshladi. Uning qayta "tug'ilishi" ijtimoiy pedagoglarni hozirgi sharoitdagi amaliy faoliyatlarida ijtimoiy pedagogika fanining yutuqlaridan foydalanish zaruriyati tug'ilgani bilan izohlanadi. Bu yerda davlat va jamiyatning faoliyat yuritishining yangi tamoyillari-bozor iqtisodiyoti, raqobat, byudjetdan pul ajratishni ko'paytirish yoki kamaytirish, dunyo hamjamiyatiga kirish, iqtisodiy holatning barqarorligi nazarda tutilmoqda. SHu bilan birga ijtimoiy hayotni demokratiyalashtirish, jahon hamjamiyatiga kirish aholining kam ta'minlangan qatlamlariga e'tiborni yanada kuchaytirishni talab qiladi. Biroq ijtimoiy pedagogika sohasidagi mavjud nazariya va amaliyotning tizimlashtirilmagani bu ikki soha bir-biridan alohida ravishda rivojlanishiga sabab bo'ldi va ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida shakllanishiga ta'sirini ko'rsatdi. Natijada bugunda ilmning bu sohasini to'liq qamrab oluvchi ta'rifni barish ancha murakkab hisoblanadi, ammo Rossiyalik qator olimlar ijtimoiy pedagogikaga ta'rif berishga harakat qiladilar.

Masalan, YU.V.Vasilkova bu fanni "alohida shaxs yoki guruhni tarbiyalash, o'qitish nazariyasi va amaliyotidir" deb ta'kidlaydi.

A.V.Mudrikning fikricha, "Ijtimoiy pedagogika - barcha yosh va ijtimoiy guruhlar ijtimoiy tarbiyasini o'rganuvchi pedagogika"dir.

V.D.Semenov "Ijtimoiy pedagogika yoki muhit pedagogikasi"ni ma'lum yutuqlarni birlashtiruvchi va ularni ijtimoiy tarbiya jarayonida amalga oshiradigan fan, deb hisoblaydi.

I.P.Podlasiyning "Pedagogika" darsligida quyidagicha ta'rif mavjud:

"Ijtimoiy pedagogika - ijtimoiy muhitning shaxsni shakllantirishga va ijtimoiy tarbiya muammolariga ta'siri qonuniyatlarini o'rganuvchi fandir".

M.A.Galaguzova ijtimoiy pedagogikaga uning ob'ekti va predmetini aniqlash orqali ta'rif bermoqchi bo'lgan.

Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatidagi mohiyatini aniqlash uchun "fan" tushunchasining o'zi ob'ektiv bilimlarini tizimlashtirish va ishlab chiqishga qaratilgan faoliyat ekanligini ta'kidlash lozim. Tushunchaning ilmiy mazmunijihatini o'rganish "ijtimoiy pedagogika" atamasiga e'tibor qaratishni talab qiladi. U ikki sohadan iborat bo'lib, ya'ni "Pedagogika" va "Sotsiologiya"ning birlashuvidan vujudga kelgan. Bu birlashuv tasodifiy emas. U fanda tabaqalashuv va ixtisoslashuvning zamonaviy jarayonlariga bog'liq. Pedagogika fanida tabaqalashuv va ixtisoslashuv jarayoni keyingi yillarda ancha kuchaydi. Ba'zi bir ixtisoslashtirilgan sohalar - maktabgacha pedagogika, maktab pedagogikasi, maxsus pedagogika, kasb-xunar pedagogikasi, pedagogika tarixi va boshqa bir qancha fanlar mustaqil ilmiy sohalarga aylanib bo'ldi. Ularning qatoriga ijtimoiy pedagogikani ham kiritsak bo'ladi.

Ijtimoiy pedagogika pedagogika singari ta'lim-tarbiya jarayoni va hodisalarini o'rganadi. Biroq ular o'ziga xos yo'nalishlarni va xususiyatlarni tadqiq etadi. Bu fanning o'ziga xos xususiyati " ijtimoiy" so'zida mujassamlashtirilgan.

"Ijtimoiy" (lotinchada sokialis-umumiy, ijtimoiy) tushunchasi ostida insonlar orasidagi o'zaro munosabatlarning turli shakllari bilan bog'liq barcha jarayonlar tushuniladi. Bu degani, agar pedagogika o'sib kelayotgan avlodlarning

ta'lim tarbiyasi haqidagi fan bo'lsa, ijtimoiy pedagogika ta'lim-tarbiya jarayonlarida bolaning jamiyatga qo'shilishi(integratsiya) bilan bog'liq xodisalarni alohida ajratadi. Bolaning jamiyatga "kirish" jarayoni, uning muayyan ijtimoiy tajribani qo'lga kiritishi (bilim, qadriyat, yurish-turish qoidalari va boshqalar) ijtimoiylashuv deyiladi.

Shunday qilib, agar biz ijtimoiy pedagogika mohiyatini bu fanning ob'ekt va predmetini qiyoslash orqali aniqlamoqchi bo'lsak quyidagi holat kelib chiqadi. Pedagogikaning ham, ijtimoiy pedagogikaning ham ob'ekti- bu bola, biroq o'rganish predmetlari turlicha. Pedagogikaning o'rganish predmeti bolani tarbiyalash qonuniyatlari hisoblanadi, ijtimoiy pedagogikaning predmeti esa bolani ijtimoiylashtirish qonuniyatlari hisoblanadi. SHuni ta'kidlash lozimki, bu ikki fanning uzoq tarixiy aloqasiga qaramay ularning o'ziga xos vazifalari tufayli uzoqlashish ro'y berdi. Umumiy pedagogikaning o'ziga xos vazifasi ta'lim-tarbiyadir. Bola va bolalikni himoya qilish ijtimoiy pedagogikaning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Ijtimoiy pedagogika jamiyatni va ijtimoiy munosabatlarni o'rganadi, insonlar bir-birlari bilan qanday muomalaga kirishishlarini, guruhlariga birlashish sabablarini va jamiyatning boshqa ijtimoiy masalalarini aniqlashga harakat qiladi. Ijtimoiy pedagogika bu muammolarni biroz boshqacha tarzda, uning ilmiy vazifalariga mos ravishda o'rganadi. SHu bilan birga o'z rivojlanishida umumiy pedagogikadan ajralib chiqib, u kompleks xarakterga ega bo'ldi. Hozirda uning nazariy va amaliy faoliyati sohasiga maktab va maktabdan tashqari muassasalarda tarbiya va qayta tarbiya, "Mehribonlik uylari", qariyalar uylarida yashovchilarga g'amxo'rlik, huquqbuzarlar bilan ishlash va boshqalar kiradi. Ijtimoiy pedagogikaning kompleks xarakteri uning boshqa fanlar bilan munosabatida namoyon bo'ladi.

Falsafa va ijtimoiy pedagogika. Falsafa inson borlig'i haqidagi masalalarini o'rta qo'yadi va ularga javob topishga harakat qilib, dunyoqarashning umumlashgan tizimini ishlab chiqadi. Ijtimoiy pedagogikaning " ijtimoiy tarbiya falsafasi" bo'limi inson va uning tarbiyasiga muayan qarashlardan kelib chiqadi. Bu qarashlarda har doim u yoki bu falsafiy asoslarni uchratsak bo'ladi.

Etika va ijtimoiy pedagogika. Etika axloqiy tasavvur va qarashlar rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini, shuningdek, u tartibga solayotgan axloqiy ong shakllarini va ularning axloqiy faoliyatini tahlil etadi. Ijtimoiy pedagogika etika shakllantirgan tamoyillardan foydalanadi, tarbiya usullari va maqsadlarini ishlab chiqadi.

Sotsiologiya va ijtimoiy pedagogika. Sotsiologiya – jamiyat va ijtimoiy munosabatlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi, faoliyat yuritishi, shakllanishi qonuniyatlari haqidagi fandir. Ijtimoiy pedagogika ijtimoiylashuv muammolarini o'rgana turib, sotsiologik ma'lumotlarga murojaat etadi va ulardan o'z o'rnida foydalanadi. (yosh, shahar va qishloq, dam olish, ommaviy aloqalar, yoshlar, axloq, ta'lim, jinoyatchilik, din, oila sotsiologiyasi).

Etnografiya, etnopsixologiya va ijtimoiy pedagogika. Etnografiya xalqlarning maishiy va madaniy xususiyatlarini o'rganadi. Etnopsixologiya

insonlar ruhiyatining etnik xususiyatlari, milliy xarakteri, milliy o'z-o'zini anglashning shakllanish qonuniyatlari, etnik stereotiplarni o'rganuvchi bilim sohasidir. Ijtimoiy psixologiya va etnopsixologiya inson hayotining yosh davrlarga bo'linishi, etnik xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar, etnosda ma'lum yoshdagi yoki jinsdagi insonlarning tutgan o'rnini belgilovchi omillar, ijtimoiylashuvda tarbiyaning etnik xususiyatlari va qonuniyatlarini o'rganadi.

Ijtimoiy tarbiya nazariyasini ishlab chiqishda etnografiya va etnopsixologiya ma'lumotlari ham inobatga olinadi. Etnik xususiyatlarni tarbiyaning aniq vazifa va mazmunini belgilashda, tarbiya tizimini tashkil etishda inobatga olish lozim. SHu bilan birga umuminsoniy tarbiya tamoyillariga mos keladigan, etnosda shakllangan tarbiya usullaridan shu xalq doirasining ijtimoiy tarbiya tizimida foylanish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari ijtimoiylashuv va tarbiyaning ba'zi bir etnik xususiyatlarini muayyan doirada jadallashtirish va o'rnini to'ldirish ham lozimdir.

Ijtimoiy va yosh psixologiyasi hamda ijtimoiy pedagogika. Ijtimoiy psixologiya inson va guruhlar faoliyatiga psixologik tasnif berish bilan birga insonlarni ijtimoiy guruhlarga qo'shilishlari faktini keltirib chiquvchi inson faoliyati va yurish-turish qonuniyatlarini ham ham o'rganadi. YOsh psixologiyasi inson ruhiyati dinamikasi va yosh xususiyatlarini, shuningdek shaxs rivojlanishining yoshga bog'liq omillarini ham o'rganadi. Ijtimoiy pedagogika ijtimoiylashuv va viktimologiya (jinoyatshunoslik) muammolarini o'rganishda ijtimoiy tarbiya metodikasi va texnologiyasini ishlab chiqishda ijtimoiy va yosh psixologiyasi ma'lumotlaridan foydalanadi.

Shunday qilib, ijtimoiy pedagogika ilmiy tadqiqotlarning fanlararo bog'langan sohasi hisoblanadi. Uning asosini pedagogika, pedagogika tarixi, pedagogik usullar va vositalar tashkil etadi. SHu bilan birga ijtimoiylashuv muammolari sotsiologiya fani tomonidan ham o'rganilganligi sababli ijtimoiy pedagogika ba'zi sotsiologik nazariya, usul va vositalardan ham foydalanadi. SHu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, ijtimoiy pedagogika o'zining nazariya, uslub, vosita va texnologiyalarini ham ishlab chiqmoqda.

Yuqorida bayon etilgan ma'lumotlar asosida YU.N.Galaguzovanning ta'rifiga juda yaqin turuvchi ijtimoiy pedagogikaning eng aniq ta'rifi quyidagicha:

Ijtimoiy pedagogika - shaxsning ijtimoiylashuvi qonuniyat-larini o'rganish, jamiyatning ijtimoiy muammolarini hal qilish maqsadida ijtimoiy pedagogik faoliyatning samarali usullari, texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni qo'llashga qaratilgan pedagogika sohasi.

Shuningdek, ijtimoiy pedagogikaga bola ijtimoiylashuvi qonuniyatlarini o'rganadigan, mutaxassislarni ijtimoiy tarbiya va ta'lim usullari hamda texnologiyalar bilan ta'minlaydigan fan sifatida ta'rif bersak ham bo'ladi.

Ijtimoiy pedagogikaning sohalari va vazifalari. Ijtimoiy pedagogika bilim sohasi sifatida bir nechta bo'limlardan iborat. Bu bo'limlarda olingan bilimlar ijtimoiy tarbiyani ijtimoiy faoliyat turlaridan biri sifatida xarakterlashga va uni mukammallashtirish bo'yicha muayyan tavsiyalarni berish imkonini yaratadi.

Ijtimoiy falsafa falsafa, etika, sotsiologiya va pedagogika fanlarining to'qnashuvidan kelib chiqadi. Unda amaliy, uslubiy va dunyoqarashga oid masalalar o'rganiladi. Xususan, ijtimoiy tarbiya va uning vazifalariga ta'rif beriladi: inson obrazini muayyan tushunish asosida rivojlanish, ijtimoiylashuv va tarbiyaga nisbatan umumiy yondashuvlar ishlab chiqiladi; ijtimoiy tarbiyaning qadriyat sifatida tamoyillari ishlab chiqiladi va boshqalar.

Ijtimoiy tarbiya sotsiologiyasi ijtimoiylashuvni ijtimoiy tarbiya konteksti va ijtimoiy tarbiyani ijtimoiylashuv tarkibi sifatida o'rganadi. Olingan bilimlar ularning tarbiya salohiyatlaridan foydalanish, ijtimoiylashuv jarayonida inson rivojiga ta'sir etish mumkin bo'lgan ijobiy ta'sirlarni kuchaytirish, salbiy ta'sirni kamaytirishning usullari va yo'llarini izlab topish imkonini beradi. Umuman olganda, ijtimoiy tarbiya sotsiologiyasi tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar jamiyatdagi tarbiyaviy kuchlarni birlashtirish yo'llarini qidirishga asos bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy tarbiya nazariyasi ijtimoiy tarbiyaning faoliyat yuritishini tavsiflaydi, tushuntiradi va bashorat qiladi. Ijtimoiy tarbiya nazariyasi ijtimoiy tarbiya filosofiyasidan kelib chiqib, ijtimoiy tarbiya sotsiologiyasi hamda viktimiologiya ma'lumotlarini inobatga olib individual, guruhli, ijtimoiy sub'ektlar nima ekanligini va ular o'zaro qanday munosabatda bo'lishlarini o'rganadi.

Ijtimoiy tarbiya psixologiyasi guruh va insonlarning ijtimoiy psixologik tavsiflari, ularning turli yoshlardagi xususiyatlari asosida ijtimoiy tarbiya sub'ektlarining o'zaro munosabati samaradorligining psixologik sharoitlarini aniqlaydi.

Ijtimoiy tarbiya metodikasi ijtimoiy tarbiyani maqsadga muvofiq tashkil qilishning yangi usullari va metodlarini ishlab chiqadi.

Ijtimoiy tarbiya menejmenti va iqtisodiyoti bir tomondan jamiyatning "inson kapitali"ga bo'lgan ehtiyojini, boshqa tomondan ijtimoiy tarbiyani tashkil qilishda foydalanishi mumkin bo'lgan jamiyatning iqtisodiy resurslarini tadqiq etadi. Bundan tashqari bu bo'limda ijtimoiy tarbiya boshqaruvi ham ko'rib chiqiladi.

Ijtimoiy pedagogika fan sohasi sifatida bir qator vazifalarga ega. A.V.Mudrik bu vazifalarni 3 guruhga ajratib ko'rsatadi: nazariy, amaliy va insonparvarlikka oid.

Nazariy vazifa ijtimoiy pedagogika oid bilimlarni to'plab zamonaviy jamiyatda o'rganayotgan jarayon va hodisalarining to'liq tasvirini nazariy jihatdan yoritib berishda namoyon bo'ladi.

Amaliy vazifalarga ijtimoiy pedagogikaning ijtimoiylashuviga tashkiliy-pedagogik va psixologik yo'nalishlardagi ta'sirini samarali takomillashtirish ishlarini aniqlash bilan bog'liq. Amaliy vazifalarga quyidagilar kiradi:

1. bola (o'smir) ongida yaxshilik, adolat, yaqinlariga, ijodga, o'zaro tushunishga muhabbatnitarbiyalash;
2. inqirozli holatlardan mustaqil chiqib ketish maqsadini qo'yish, chiqish yo'llarini aniqlash, atrofdagilar bilan muloqot qilishni o'rganish, hayot mazmuni va maqsadini aniqlash;

3. atrof-muhit, inson, uning jismoniy va ma'naviy xususiyatlari, jamiyatdagi huquq va majburiyatlarini bilishga intilishni rivojlantirish;
4. g'urur, mustaqillik, o'ziga ishonch hissini rivojlantirish;
5. bola (o'smir)da oila, maktab, tengdoshlari davrasida, ishda muomala madaniyatini oshirish.

Bunda ijtimoiy pedagog o'z tarbiyalanuvchilarining yosh xususiyatlarini bilishi zarur. SHuningdek, u bolaga ijtimoiy munosabatlarning axloq va huquq normalariga suyanagan holda insonlar, shaxs va jamiyat o'rtasidagi nizolarni yechishga o'rgatishi kerak. Bu vazifalar yaxshilik qilish, o'z hayotini tashkil etishga o'rgatish, o'ziga xoslik va iqtidorni tashkil qilishga rivojlantirishda o'z aksini topadi.

Insonparvarlik vazifasi shaxsning rivojlanishida o'z-o'zini takomillashtirish uchun sharoitlar yaratib beruvchi, ijtimoiy pedagogik jarayonlarni mukammallashtiruvchi, qo'yilgan maqsad va vazifalarni ishlab chiqishda insoniylikka asoslanishda o'z ifodasini topadi. Zamonaviy ijtimoiy pedagogikaning insonparvarligi bola va pedagog o'rtasidagi munosabatlarni qattiqqo'llik emas, o'zaro tushunishga asoslanishda ko'rinadi. Ijtimoiy pedagogning vazifasi bolaning jismoniy, axloqiy va ma'naviy kuchlarini shakllantirishida, unda jamiyat qabul qilgan xislatlarni tarbiyalashga yordam berishdan iborat.

YU.V.Vasilkova ijtimoiy pedagogikaning asosiy tarbiyaviy, ijtimoiy-huquqiy va ijtimoiyreabilitatsion vazifalarini ajratadi.

Tarbiyaviy vazifa bolaning jamiyatga qo'shilishi yoki uning ijtimoiylashuv jarayoni, o'quv va tarbiya jarayoniga ko'nikishida ekanligini ko'zda tutadi.

Ijtimoiy - huquqiy vazifaning asosini davlatning bolalarga g'amxo'rliqi, ularning huquqiy himoyasini tashkillashtirish, muammolarini hal qilishda maslahatlar beruvchi tashkilotlar ishinitakomillashtirish tashkil etadi.

Ijtimoiy reabilitatsion vazifa – nogiron, jismoniy va ruhiy nuqsonlarga ega bolalar bilan tarbiyaviy va o'quv ishlarini olib borishdir. Bunda asosiy vazifalarni ijtimoiy pedagog bajaradi.

Shu bilan birga YU.V.Vasil'kova vazifalarning yanada kengroq tavsiflarini ham beradi:

- ✓ falokatga uchragan bola(o'smir)larga yordam ko'rsatish, inqirozdan chiqish yo'llarinitopish, qiyin vaqtda qo'llab-quvvatlashi;
- ✓ bola(o'smir)ni, uning holatini, oila va maktabdagi munosabatlarini o'rganishi;
- ✓ bolani o'rab turgan va unga ta'sir qiluvchi turli ijtimoiy sohalaridagi ijtimoiy tarbiyaholatining tahlili;
- ✓ ijtimoiy pedagogikaning ijobiy tajribalarini tahlil qilishi, tarqatishi, targ'ib qilishgaqaratishi;
- ✓ u bola(o'smir) faoliyatini o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini o'qitish va o'z hayotinimustaqil tashkil qilishni bilishga qaratishi;
- ✓ ijtimoiy pedagog bola (o'smir) muammolarini hal qiluvchi, uning muammolari, huquqlariga aloqador tashkilot va mutaxassislarini

birlashtirish bilan ham shug'ullanishi;

- ✓ ijtimoiy tarbiyaning turli muammolarini o'rganishni tashkil qilishi, ijtimoiy pedagoglarfaoliyatini tahlil qilishi lozim.

Ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyalari. Har bir fanni shu fanning o'rganish predmetiga asoslangan bilimlar tizimi ajratib turadi. Fanning bilimlar tizimi uning tushuncha va kategoriyalarida aks etadi. Tushuncha - real olamni bilish jarayonida aks etish shakllaridan biri. Reallikning o'zgaruvchanligi va ko'p qirraliligi tufayli tushunchalar dinamik, rivojlanadigan xarakterga ega. Ular tarixiy holat va hayot sharoitlariga bog'liq ravishda o'zgaradi.

Har qanday fan rivojlanishi jarayonida tushunchalar fan kategoriyalariga birlashadi. Fan kategoriyalari shu fanda qo'llaniladigan yanada kattaroq, amaliy tushunchalardir. Ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyalariga olimlar "ijtimoiy pedagogik faoliyat", "ijtimoiy ta'lim" va "ijtimoiy tarbiya"ni kiritishadi.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat va ijtimoiy ta'lim. Ijtimoiylashuv jarayonida bola jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy maqom va rol, ijtimoiy xulq-atvorning me'yori va qoidalari haqida ko'p bilimlarni o'zlashtiradi. U shuningdek, uning jamiyatga ko'nikishiga yordam beruvchi turli ko'nikma va malakalarni ham o'zlashtiradi. Bu jarayon ayniqsa bolalikda juda jadal amalga oshadi. Ma'lumki, bola besh yoshgacha uning keyingi hayotida o'z aksini topuvchi nihoyatda ko'p bilimlarni oladi.

Bolalar ijtimoiylashuvining ajralib turuvchi xususiyati shuki, bola jamiyat ilgari surayotgan yurish-turish me'yoriyliklariga baho berishi va nazorat qilishi qiyin. U bularni faqat o'zlashtirib boradi. SHuning uchun bolalarning ijtimoiylashuv jarayonida ota-onalar, qarindoshlar, ular bilan ishlayotgan mutaxassislarining (psixolog, shifokor, pedagoglar, "agent"lar) ta'siri katta bo'lib, bolalarni hayotda zarur ijtimoiy bilimlarni ertaroq va yaxshiroq o'zlashtirishlari, ularni hayotda qo'llashga intilishlari aynan ularga bog'liqdir. Buning ijtimoiy pedagogika bilan bog'liqligi shundaki, maktab yoki boshqa ta'lim muassasida ta'lim olish jarayonida ma'lumki bola avvalo akademik bilimlarni o'zlashtiradi. Biroq shu bilan bir paytda u muayyan tizimlashgan ijtimoiy bilim, ko'nikma va malakalarni qo'lga kiritadi. Bu bilim, ko'nikma va malakalar ijtimoiylashuv jarayonida bolaga maxsus yordam kerak bo'lganda juda zarur bo'ladi.

Bolaning ijtimoiylashuviga yordam beradigan ijtimoiy bilimlarni bolaga yetkazish, unda ijtimoiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni ijtimoiy ta'lim deyiladi.

Tarbiya va ijtimoiy tarbiya. Tarbiya pedagogikaning asosiy ob'ekti sifatida pedagogikaning rivojlanish tarixi mobaynida olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Shu bilan birga "tarbiya" tushunchasining mazmuni

amaliy ahamiyatga ega. Chunki bu tushuncha pedagogik faoliyatning vazifa va maqsadlariga asosiy yondashuvlarni belgilaydi.

Boshqa tomondan tarbiya ijtimoiy hayotning doimiy va umumiy kategoriyasidir. Tarbiyaning ijtimoiy qamrovi uning lug'aviy ma'nosidan ancha kengdir.

Ijtimoiy tarbiyani insonning qobiliyati, bilimi, yurish-turish namunasi, qadriyatlar u yashayotgan jamiyatga munosabatidan iborat imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi, maxsus tarbiya tashkilotlarida amalga oshiriladigan jarayon sifatida ko'rib chiqish lozim.

Boshqacha aytganda, ijtimoiy tarbiyaning maqsadi insonni ijobiy rivojlanishga qaratilgan sharoitlar yaratish jarayoniga yo'naltirishdir. Bu sharoitlar individual va guruhiiy sub'ektlarning uchta o'zaro bog'liq va shu paytning o'zida mazmuni, shakli, usuli jihatidan nisbatan mustaqil bo'lgan jarayonlarni qamrab oladi: bolalar, o'smirlar, o'spirinlar ijtimoiy tajribasini tashkil qilish, ularning ta'lim olishlarini ta'minlash, ularga individual yordam ko'rsatish.

Ijtimoiy tajribani tashkil qilish guruh (jamoal)larning maishiy va hayotiy faoliyatini tashkil qilish, guruhdagi o'z-o'zini boshqarish faoliyatini rag'batlantirish va norasmiy mikroguruhlariga ta'sir etish orqali amalga oshiriladi.

Ijtimoiy tajriba keng ma'noda turli ko'nikma va malakalar, bilim va fikrlash usullari, yurish- turish me'yor va stereotiplari, qadriyatlar, odamlar bilan munosabatga kirishish tajribasi, moslashish tajribasi, shuningdek o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini belgilash yig'indisidir.

Ta'lim o'z ichiga quyidagilarni oladi: uzluksiz tizimli ta'lim (rasmiy ta'lim), madaniyatni targ'ib qilish va tarqatish, o'z-o'zini shakllantirishga va mustaqil ta'lim olishga yo'naltirish.

Individual yordam insonga muammolarni hal qilishda, o'z-o'zini rivojlantirishda, jamiyatdagi mavqei, o'rnini yuksaltirishda yordam berishda namoyon bo'ladi. Individual yordam boshqa insonlarning ehtiyojlarini qondirishga zarur bo'lgan bilim, malakalarni o'zlashtirishga insonga ongli yordam berish, insonning o'z qadrini bilishi, o'z-o'zini anglash, oila, guruh, jamiyatga mansubligi hissini rivojlantirishdir.

Tabiiyki, ijtimoiy tajriba ta'lim va individual yordamning usul, shakl, mazmuni, xarakter, jadalligi bevosita tarbiyalanuvchilarning yoshi, jinsi, qaysi kasb egasi ekanligi ularning va ijtimoiy- madaniy mansubligiga bog'liq. Bu jihatlar turli ta'lim muassasalari va tashkilotlari farqlanadi. Farqlar ham tashkilot turiga, ham unda faoliyat yuritadigan pedagoglarning o'z faoliyatlarida amalga oshirayotgan ishlariga bog'liq.

Ijtimoiy tarbiya jarayonidagi o'zaro munosabat uning sub'ektlari orasidagi axborot, faoliyat usullari, qadriyatlar almashuvidir. Bunaqa munosabat ijtimoiy jihatdan tabaqalashgan, alohida ko'rinishga ega. Chunki o'zaro munosabatning aniq ishtirokchilari muayyan etnik, ijtimoiy va ijtimoiy psixologik guruhlar vakili bo'la turib, o'z munosabatlarida u yoki bu darajada ular mansub guruhlariga tegishli ijtimoiy yurish-turishni amalga oshirishadi.

Umuman olganda, o'zaro munosabat tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning, birgalikdagi faoliyati, uning mazmuni, xarakteri, tarbiyaviy samaradorligi, unda kimlar ishtirok etishi va ular o'zlarini qay darajada shaxs deb hisoblashiga bog'liq.

O'zaro munosabat jarayonida amalga oshirilayotgan ijtimoiy tarbiya insonning ijobiy ijtimoiy, ma'naviy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishda qulay sharoitlar yaratadi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatidagi xususiyatlari qaysilar?
2. Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatidagi mazmunini xarakterlang?
3. Ijtimoiy pedagogikaning funktsiyalarini aniqlang? Ijtimoiy ish nima?
4. Ijtimoiy xodimning faoliyati mazmuni?
5. Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ishning o'zaro munosabati nimadan iborat?
6. Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ish o'rtasidagi farqlarni ayting?

2 – MAVZU: O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY PEDAGOGIKANING PAYDO BO'LISHI MADANIY-TARIXIIY, IJTIMOIIY-XUQUQIIY SHART-SHAROITLARI.

1. Ijtimoiy pedagogikaning dastlabki tarixi.
2. Avestoda ijtimoiylashuv jarayoning dastlabki ko'rinishlari.
3. Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy pedagogikaga oid ilmiy qarashlari.
4. Ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi xamda metodologik yondashuvlar

Tayanch tushunchlar: amaliy faoliyat, ijtimoiy ish, mehribonlik, xayriya.

Har bir fan aniq bir haqiqatdan "o'sib chiqadi", uning aksini ifodalaydi. Ilmiy bilimlar amaliy faoliyatdan uzilgan holda rivojlana olmaydi. Aynan amaliyot istalgan fanning manbai hisoblanadi. Boshqa tomondan, barcha amaliy faoliyat ham agar ilm-fan yutuqlariga asoslangan bo'lsa, yanada samarali bo'ladi. Ijtimoiy pedagogika *fan sifatida* ham, amaliy faoliyat sifatida ham farqlanadi, lekin ular bir-biri bilan o'zaro bo'g'liq.

Amaliy faoliyat – bu ijtimoiy pedagogikaning aniq bir bola yoki bolalar

guruhi bilan olib boradigan ishidir.

Ijtimoiy pedagogikani o'quv fani sifatida ham qarash mumkin. **O'quv fani** – bu umumta'lim yoki maxsus ta'lim muassasalarida o'rganiladigan predmetdir.

O'zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanishi o'ziga xos xususiyatga ega fan, ilmiy bilimlar sohasida maxsus amaliy faoliyat hamda o'quv fani sifatida.

Qadim antik davrlardayoq bolani himoya qilish maqsadida ijtimoiy pedagogik tarbiyaga oid muammolarni oldinga surganlar.

Eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda Markaziy Osiyo hududida jahon dinlari orasida eng qadimgi din **Zardo'shtiylik** dini xukmronlik qilgan. Bu din insoniyatga katta ta'sir etdi, ya'ni **insonni birinchi o'ringa** olib chiqdi. Zardo'shtiylar muqaddas kitobi "Avesto" (olovga sig'inish) o'z erasining o'ziga xos qomusiy asari deb hisoblash mumkin. Zardo'shtiylik dinida axloqiy me'yorlar asosi (axloqiy mezonlar) uchlikka tayangan edi. "Avesto" da – inson yaxshi fikrlarga ega bo'lishi, faqat yaxshi so'zlar so'zlashi, savobli ishlar qilishi lozim deb yozilgan (xulq-atvor)¹

"**Avesto**" ning katta qismi bo'lgan "Yasna" larda inson kamolini ko'rsatuvchi axloq-odob mezonlari ana shu uchlikda humata (gumata) - yaxshi fikr, xukta (gukta) - yaxshi so'z va hvarsha (gvarshta)-yaxshi ishlarda ifodalanadi. "Men yaxshi fikr, yaxshi so'z yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman. Men yaxshilikdan iborat Mazda qonuniga shon-shavkat baxsh etaman" ("Yasna", 14), deyiladi.²

"Avesto" tadqiqotchisi A.O.Makovelskiy inson fikri, so'zlari va ishlariga ikki qarama-qarshi kuch: Voxu Mana ("Ezgu fikr") va Ako Mana ("Yovuz fikr") ta'sir ko'rsatadi deydi. Barcha fikrlar, so'zlar va ishlar ichida aslida *ezgulik va yovuzlik* yotadi. "yaxshi fikr" deganda ilohiy qonun ruhidagi yaqin kishisiga mehribon bo'lish, muhtojlarga ko'maklashishga, yovuzlikka qarshi kurashishga doimo tayyor turish, kishilarning baxt-saodati uchun harakat qilish, ahillik va do'stlik, totuvlikda yashashga intilish ruhidagi niyatlar va fikrlar musaffoligi tushunilgan. Inson o'z fikr- hayolida boshqalarga hasad qilmasligi lozim. Yaxshi niyatli kishi darg'azab bo'lmaydi va yomon ishlarga berilmaydi. Chunki bunday holatda inson yaxshi niyatini yo'qotadi. Burch va adolat haqida unutadi va nojo'ya harakatlar qiladi. Qadimgi davrlardanoq shunday insoniy hislatlar qadrlangan. Inson *bilimlarga* ega bo'lishi (ya'ni kasb-hunarga ega bo'lishi), adolatli bo'lishi (ya'ni insoniy bo'lishi) shunday *axloqiy hislatlarga* ega bo'lishi lozim ediki, ya'ni *mehribon, kamtarin, jasur, chiroyli nutqiga ega, vatanparvar, kuchli iroda va boshqa hislatlar sohibi bo'lishi zarur edi.*

Pedagogika tarixi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Ko'p ming asrlar

mobaynida pedagogika falsafaning ichida rivojlandi. Qadimgi zamonlardan bo'yon olamda insonning o'rni va roli shaxsning axloqiy shakllanishida madaniyat va dinnig ahamiyati barkamol shaxs rivojlanishi masalalari va shu kabilar. Sharq uyg'onish davri (IX-XI asrlar) qomusiy olimlari Abu Nasr al Farobiy (873-950), A.R.Beruniy (973-1050), Abu Ali ibn Sino (980-1037) shunday ijtimoiy pedagogik g'oyalrni aytib o'tganlarki, bolani ayni go'daklik chog'idanoq tarbiyalay boshlashining zarurati, shuningdek, bolaning tarbiyasiga tabiatan va atrof-muhitning ta'siri va boshqa fikrlar kabidir. XII-XIII asrlarda Markaziy Osiyo tabiatshunos – faylasuflari, tarixchi, shoir va rassom musavvirlari o'z ijodlarida ijtimoiy fanlarga alohida e'tibor bilan qarab, tabiat sirlarini o'rganishga intilganlar. Bular qatorida Nuriddin Abdurahmon Jomiy (1414-1492), Jaloliddin Davoniy (1427- 1502), Alisher Navoiy (1441-1501), Husayn Voiz Koshifiy (1440-1505) o'z asarlarida inson aqli- tafakkuri, uning qobiliyati insonni yuqiri axloqiy hislatlari, insoniylik g'oyalari, bolalar tarbiyasida umuminsoniy qadriyat hisoblanadi. Shu jumladan, o'zbek tilining asoschisi ulug' alloma, musiqachi, davlat arbobi, Alisher Navoiyning ijtimoiy pedagogik g'oyalari yuksak darajada insonparvarligi bilan ajralib turadi. U insonni butun koinotda, bu olamda ham yagona eng oliy mavjudot deb hisoblagan. Bolani esa oilaga quvonch ham baxt keltiruvchi muqaddas in'om sifatida uyni yoritib yuboradi deb hisoblaydi. Inson o'z farzandinigina emas, balki kelajak avlod bo'lgan barcha bolalarni sevmog'i shart deb yozadi shoir. Ijtimoiy pedagogikaga oid fikrlarini bizning olim va allomalarimiz- ma'rifatparvarlarimiz jadidchilik harakati etakchilari XX asr boshlarida yashab ijod etgan Mahmudxo'ja Behbudiy (1874-1919), Munavvar qori Abdurashidxonov (1878-1931), Abdulla Avloniy (1878-1934), Abduqodir Shakuruy (1875-1943), H.H.Niyoziy (1889-1929) va boshqalarning asarlarida ham ko'plab keltirish mumkin.

Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida vujudga kelishida XX asr 20-30 yillari muhim o'rin tutadi. Bu davrda Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuruy, Munavvar qori Abdurashidxonov, V.F Lubinsov, N.P. Argemskiy O.Sharafiddinov kabi pedagoglarning faoliyat muhim ahamyatga molik. Ular avvalo ijtimoiy izdan chiqib ketayotgan bolalarga yordam ko'rsatish, ya'ni bu allomalar aynan ijtimoiy pedagoglar bo'lib, ular tashkil etgan maktablar shuningdek boshqa pedagoglar tajribalariga tayanganlar. (Abdulla Avloniy nomidagi, N.G.Chernishevskiy nomidagi *bolalar tajriba maktablari* va boshqa muassasalar ijtimoiy pedagogikaning amaliy manbai bo'lib hisoblanadilar.)

Biroq O'zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning rivoji amalga oshmadi. Bunda avvalo yangi ittifoq sovet pedagogikasi va o'sha davr pedagogikasi o'rtasida ajralish yuzaga keldi. Uzoq yillar mobaynida o'zbek ma'rifatparvarlari -

pedagoglari tomonidan to'plangan barcha bilimlar inkor etilgandi. Pedagogikada shunday shior tarqalgandi. *“Olam zo'ravonlikdir, biz uni ildizi bilan qo'poramiz”*.

Marksist pedagoglar tomonidan, shu vaqtgacha bo'lgan barcha pedagogika sohasidagi oktabr to'ntarishigacha bo'lgan asarlarni unutish talab etildi. 30 yillar oxirida sosializm g'alaba qilganligi e'lon qilindi. Shu vaqtdan e'tiboran ijtimoiy muammolar haqida sukut saqlash sharti mustahkamlandi. Bu muammolar alohida, yengil hal etiladigan, *“eskilik sarqiti”* deb baholandi. Bu esa o'z o'rnida ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida rivojlanishiga yo'l bermadi.

1991 yil O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilinishi bilan pedagogikaning ko'pgina sohalarini, shu jumladan ijtimoiy pedagogikani ham rivojlantirish vazifasi qo'yildi.

Mazkur sohada ilmiy-tadqiqot ishlari shu darajada dolzarbki, bu fan bo'yicha mamlakatimizda: *“Ma'naviyat va ma'rifat markazi”*, *“Oila makkazi”* nodavlat hukumatga qarashli bo'lmagan xayriya jamg'armasi *“Sog'lom avlod”* uchun O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi qoshidagi Respublika o'quv-metodik ta'lim markazi, Nizomiy nomidagi TDPU da ijtimoiy kafedralar va boshqalar. Respublikamizda har bir navbatdagi yilni ijtimoiy muammolardan biriga bag'ishlash an'ana tusiga kirgan.

Bugungi kunda ko'plab emperik va nazariy bilimlar to'plangan. Ularni to'la anglamoq va tizimlashtirishni talab etadi. O'zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning kelgusi rivojlanishi yetarlidarajada emas.

O'tmish allomalarimiz, olim-pedagoglarimiz asarlarini yangi nuqtai nazardan turib, o'rganish, chet el tajribalarini o'zlashtirib, Respublikamizga moslashtirilgan holda maqsadga muvofiq qo'llashlozim.

Ijtimoiy pedagogika fan sifatida respublikamiz mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng o'qitila boshlagan bo'lsada, ijtimoiy tarbiya, ijtimoiy faoliyat, ijtimoiy himoya ko'rinishida qadimiy ildizlarga ega. Ilk diniy-falsafiy (Avesto) va adabiy (Alpomish, Go'ro'g'li) manbalarda biz insonning ijtimoiy kelib chiqishi nuqtai nazaridan pedagogik qarashlarning aks etganini ko'ramiz. Keyinchalik VI-VII asrlarda Markaziy Osiyo hududida islom dinining tarqalishi yangi ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni olib keldi. Ular mintaqada oila va jamiyat tarbiyasiga ta'sir ko'rsatdi. Markaziy Osiyoning arab halifaligi tarkibiga kirishi madaniy almashinuv, fikr va qarashlarning erkin kurashi, o'zaro munosabatlarning shakllanishiga olib keldi. Moddiy barqarorlik, ishlab chiqarish hamda savdo rivoji ehtiyojlariga asoslangan yangi ijtimoiy-iqtisodiy holat ma'naviy va madaniy hayotning yuksalishiga, dunyoviy ilm va fanlarning gullab-yashnashiga, fors, arab, qadimgi yunon madaniyati yutuqlarini o'zlashtirishga yordam berdi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Avesto kitobidagi ijtimoiy pedagogik qarashlar.
2. Sharq uyg'onish davri allomalarining asalaridagi ijtimoiy tarbiyaga ta'riflari.

3 – MAVZU: O'ZBEK XALQ PEDAGOGIKASI VA ISLOM TA'LIMOTIDA IJTIMOIIY-PEDAGOGIK G'OYALAR.

REJA:

1. Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy pedagogikaga oid ilmiy yondoshuvlar.
2. Yevropa mamlakatlari ta'lim tizimida ijtimoiy pedagogikaning xolati.
3. Rossiya pedagogikasida ijtimoiy pedagogikaga oid ilmiy izlanishlar.
4. Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy pedagogikaning ilmiy va nazariy asoslari.

Tayanch tushunchalar: antik davr, ijtimoiy pedagogika, ijtimoiy pedagogik faoliyat, zamonaviy bosqichlar.

Ijtimoiy pedagogika Pedagogika fanidan ajralib chiqqaniga deyarli ko'p vaqt bo'lgan emas. Biroq pedagogika fanining o'zi ham mustaqil fan sifatida, faqatgina, XVII asrdan boshlab shakllangan. Bu buyuk chex pedagogi (1592-1670) Yan Amos Komenskiy nomi va uning "Buyuk didaktika" asari bilan bog'liq. Bu asarda pedagogikaning tadqiqot predmeti va prinsiplari belgilab berilgan. Pedagogic jarayon qonuniyatlari ko'rsatib berilgan. Shu bilan birga pedagogika tarixiningildizlari juda qadimga borib taqaladi.

Ilgari ta'kidlab o'tganimizdek, pedagogika uzoq asrlardan bo'yon falsafa fani doirasida rivojlanib keldi. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy pedagogika pedagogika fanidan yosh emas, doimo pedagogikaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida pedagogika fani doirasida, u bilan birga rivojlangan. Shu sababli ijtimoiy pedagogika tarixi muammolari bilan shug'ullanuvchi olimlar o'z tadqiqot ishalarini pedagogika tarixi, falsafa va barcha davrlar va xalqlar o'tmish allomalarining pedagogik qarashlari bilan bog'lashlari tasodif emas. Agar ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish davrlariga shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, uni bir qator bosqichlarga bo'lish mumkin deb o'ylaymiz:

Birinchi – dastlabki - boshlang'ich bosqich. Bu bosqich qadimgi davrlardan XVII asrlargacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda tarbiya amaliyoti va pedagogik ijtimoiy pedagogic qarashlarning shakllanish davridir.

Bu bosqichda tarbiyaviy va ijtimoiy voqe'liklarni vujudga kelishi yuz berdi. Inson tarbiyasi bu davrda tabiiy holatdan ongli faoliyatga aylanadi. Tarbiya nazariyasining turli ko'rinishlari vujudga keladi. Ibtidoiy jamiyatdan feodalizm jamiyatiga o'tilib kapital munosabatlari vujudga kela boshladi. Bu o'z navbatida

tarbiyada turli muammolarni oldinga suradi. Ijtimoiy pedagogikaga oid ko'pgina g'oyalar uzoq qadimgi antik davrlarda olg'a surilgan.

Ga'rbdagi uyg'onish davrida esa bola tarbiyasida insoniylik g'oyalarini ilgari surish rivojlana bordi. Bu davrga italyan pedagogi, insonparvari Vittorino Da-Feltre (1378-1446), "Quvonch uyi" deb nomlangan birinchi maktab internati tashkil etgan olimning fikrlarini kiritish mumkin.

Ikkinchi bosqich - XVII-XIX asrlar. Ijtimoiy pedagogika fanini fan sifatida vujudga kelishi va bu fan rivojidadagi ilg'or g'oyalar bilan harakterlanadi va XIX asrlar jahon madaniyati tarixidan burjua-demokratik inqilobi bosqichi sihfatida joy olgan. Yirik olim (pedagoglar, faylasuflar, sosiologlar, psixologlar) ijtimoiy - pedagogik muammolar yechimini izladilar. Ular jamiyat va davlat bilan hamkorlikda bu muammolar yechimini izladilar. Tarbiya masalalari jamiyatni qayta tashkil etish g'oyalari bilan ko'rib chiqildi. Bu davrlar ijtimoiy - pedagogik g'oyalarida barcha insonlar teng xuquqli, erkin- ozod bo'lishlari lozim ekanligi haqidagi fikrlar ko'tarilgan. Bu bosqichda ijtimoiy pedagogika muammolari amaliy-ijtimoiy pedagogika bilan uzviy aloqada rivojlandi. O'sha davr yetuk pedagoglari bolalarning turli muammolariga bag'ishlab, yetim va qarovsiz bolalar uchun bolalar uyi, bog'chalari, maktab va boshqa muassasalar tashkil etadilar.

Butun XIX asr davomida pedagogikadan ijtimoiy pedagogikaning ajralib chiqishi jarayoni uzoq davom etdi. Shu bilan birga uning rivojlanishiga falsafa va pedagogikadan tashqari psixologiya, sosiologiya, antropologiya (inson kelib chiqishi va rivojlanishi haqidagi fan), tibbiyot va boshqa fanlar katta ta'sir ko'rsatdi. Lekin ijtimoiy pedagogikaning pedagogikadan ajralib chiqishi jarayoni bilan birga boshqa jarayon ham uning integrasiya jarayoni (lotincha integer - yaxlit), ya'ni boshqa fanlar bilan birlashishi davom etdi.

XVIII asrning oxirida ijtimoiy pedagogika – pedagogik fanning mustaqil sohasi bo'lib ajralib chiqdi. Bu hodisa A.Disterverg, Raul Natore va boshqalarning nomlari bilan bog'liq.

Uchinchi bosqich - XX asrning boshidagi ijtimoiy pedagogikaning mustaqil fan sifatida rivojlanish davri. Bu davrni tekis yoki oson davr deb aytib bo'lmaydi.

Hozirgi kungacha turli davrlar olimlari orasida ijtimoiy pedagogika boshqa pedagogik fikrlar orasida qanday o'rin tutishi haqida tortishuvlar mavjud: u fan hisoblanadimi yoki amaliy faoliyatning sohasimi; ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ishlar qanday munosabatlar bor va boshqalar; ko'pchilik davlatlarda "pedagogika" va "ijtimoiy pedagogika" terminlari ijtimoiy pedagogikada umuman ishlatilmaydi. Masalan: AQShda o'quv yurtlarida pedagogika o'rniga talabalar "Ta'lim falsafasini" o'rganadilar, odamlarga amaliy – yo'naltirilish yordami sohasi ijtimoiy ishga taalluqli, biroq, ijtimoiy xizmatlar orasida aynan

turli muammolari mavjud boshqalarga yordam ko'rsatishga xizmat qiladigan mutaxassislar bo'lsa ham. Belgiyada "orto pedagogika" terminidan foydalaniladi, u "maxsus pedagogika" va "ijtimoiy pedagogika" tushunchalariga yaqin.

Rossiyada ijtimoiy pedagogika rivojlanishi – fan sohasi sifatida ham va professional amaliy faoliyat sohasi sifatida ham va o'quv fani sifatida o'z xususiyatlariga ega.

Ijtimoiy pedagogikani mustaqil fanga ajralib chiqishida shart-sharoitlarini XIX asrning K.D.Ushinskiy, I.N.Tolstoy kabi mashhur pedagoglari va boshqalar asarlarida topish mumkin. XX asrning 20-30 yillarida A.S.Makarenko, S.T.Shatskiy kabi pedagoglar faoliyatlarida yetim bo'lib qolgan bolalarga ijtimoiy pedagogik yordam ko'rsatishga qaratilgan edi. Lekin 30-yillardan keyin sosializm g'alaba qozongani e'lon qilinganidan keyin hamma ijtimoiy muammolar ikkinchi darajali bo'lib qoldi. Ularni o'tmish qoldiqlari deb atab ular haqida gapirmaslikka hatrakat qilindi.

XVIII asrning 90 yillarida Rosiyada ijtimoiy psixologiyaning rivojlanishi yangi davri boshlandi. Ular bu yillarda "yuqoridan" imperative (lotincha imperativus) farmon ya'ni, e'tirozlarni qabul qilmaydigan, tanqidga yo'l qo'ymaydigani kiritilgan. Bu ijtimoiy psixologiyaning ilmiy va amaliy sohalari bir vaqtda bir-biridan ajralan holda rivojlanishga olib keldi. Amaliyot faniga tayana olmadi, chunki, fan ham amalda yo'q edi, fan haqida hech narsani bilib bo'lmas edi, chunki amaliy faoliyat faqatgina shakllanar edi. Bu ijtimoiy pedagogikaning o'quv fani sifatida tashkil topishida ham ta'sirini ko'rsatdi, bu ham ijtimoiy pedagogic faoliyat va fan, rivojlanishi bilan bir vaqtda sodir bo'ldi. Fanning va amaliyotning tashkil topmaganligi "Ijtimoiy pedagogika fanida bugungi kunda ham ko'olab hal qilinmagan, tortishuvli masalalari bor. " bu ob'ektiv holatlar ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida rivojlanishini sekinlashtiradigan omillar hisoblanadi, lekin amaliyot talablari Rossiyada shunchalik jiddiy va dolzarb ediki, natijada fanning bu sohasi bilan ko'plab ilmiy jamoalar shug'ullana boshladilar.

Rossiya ta'lim akademiyasi ijtimoiy pedagogika markazi (RAO), ijtimoiy ta'lim akademiyasi Moskva, Sank-Peterburg, Tula, Yekaterinburg va boshqa shaharlar pedagogik universitetlarida "ijtimoiy pedagogika" fakultetlari tashkil etildi.

V.G.Bochrova, M.A.Galaguzova, A.V.Mudrik kabi va boshqa olimlar ijtimoiy pedagogika bo'yicha nazariy tadqiqotlar olib boradilar. Ijtimoiy pedagogika bilan bir vaqtda XX asr 90 yillarida Rossiyada ijtimoiy ishlar instituti kiritildi.

Ijtimoiy ishlarning vazifasi aholining ijtimoiy himoyalangan qismiga yordam ko'rsatish bo'ldi. Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ishlarning rivojlanish

tarixi bir-biriga juda yaqin. Birinchi navbatda ularni madaniy-tarixiy an'analari, alohida g'amxo'rlik va e'tiborni talab qiluvchi odamlarga munosabatlari ularni birlashtiradi.

“Mehribonlik”, “Xayriya”, “Yordam ko'rsatish” va boshqa tushunchalar ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ishlarda keng foydalanishi bejiz emas. Ammo ular yaqqol ifoda etuvchi o'ziga xoslikka va farqlarga ega. Ularning umumiyliklari va o'ziga xosliklari nimalardan iborat? Birinchi navbatda bu ularning ob'ekti yoki adresatiga taalluqlidir. Ijtimoiy ishchi ko'z oldida inson bo'ladi, lekin har qanday emas, faqatgina insonga muvaffaqiyatli bo'lishi, farovonligi, jamiyatning haqiqiy a'zosi, tekis hayot kechirishida muammolari bo'lgan inson bo'ladi. Insonning hayoti davomida yuzaga keladigan muammolar har bir odamda uchraydi. Ular psixologik, tibbiy, huquqiy, moddiy va boshqa xususiyali bo'lishi mumkin. Ular insonga bog'liq bo'lmagan tashqi omillar (ekologik, ijtimoiy, texnogen, millatlararo va boshqa katalizatorlar) yoki ichki shaxslararo muammolar (jismoniy yoki psixik rivojlanishida sog'lig'i yaxshi emasligi) bilan bo'g'liq bo'lishi mumkin. Shunday qilib, ijtimoiy ishlar ob'ekti ijtimoiy hayotda yordamga muxtoj bo'lgan inson hisoblanadi deb aytishimiz mumkin, ya'ni inson yoshidan qat'iy nazar ijtimoiy ob'ektdir. Ijtimoiy pedagogika esa uning ijtimoiylashishi-individning ijtimoiy sub'ektga aylanishi jarayonida yordam ko'rsatilishi kerak bo'lgan bola bilan shug'ullanadi, ya'ni bola shakllanayotgan, rivojlanayotgan shaxs.

Bu ob'ektlarni taqqoslash ana shu 2 fanni nimalar yaqinlashtirishini (ijtimoiy hayot jarayonida yordam ko'rsatish) va ob'ektni farq qilishini (katta odam va bola) yaqqol ko'rsatadi. Bu nuqtai nazardan ijtimoiy ishlarda yordam ko'rsatilayotgan odamni odatda sub'ekt deb atashlari, ijtimoiy pedagogikada esa odatda bola so'zi ishlatilishi ham buni tasdiqlashi mumkin. Shunday qilib, turli mamlakatlarda tarixiy va madaniy an'analari, jamiyatning rivojlanish darajasiga, pedagogika va ijtimoiy pedagogikaning rivojlanishiga qarab terminalogiyalarida ham va tushunchalari mazmunida ham o'z farqlari bor. Ammo ularni birlashtiruvchi narsa ham bor.

Umumiyligi shundan iboratki, har qanday jamiyat ham “doimiy muammolarni” bolalarning rivojlanishi, tarbiyasi va ta'limi, ayniqsa ruxiy kamchiliklari va deffekti bo'lgan bolalarning muammolarini har doim hal etib kelgan, hal etmoqda va hal etadi.

Ijtimoiy pedagogikaga birinchi navbatda nemis fani pedagogikasi rivojlanishi tarixi katta hissa qo'shgan, shuning uchun Germaniyada ijtimoiy pedagogikaning rivojlanishi tarixini ko'rib chiqamiz, uning tarixi 100 yildan ortiqroqdir.

“Ijtimoiy pedagogika” termini 1844 yili K.Mager tomonidan tarbiya

haqidagi ochiq ilmiy munozaraga kiritilgan va keyinchalik A.Disterveg tomonidan tarqatilgan. Ana shu tushuncha paydo bo'lgan paytdan to hozirgi kungacha nemis adabiyotlarida uni ikkita turlicha talqini mavjuddir.

Birinchi talqin (K.Mager) – Ijtimoiy pedagogika tarbiyaning ijtimoiy tomoni bilan biror bir umumiylikka ega. Ikkinchi talqin (A.Disterveg) - ijtimoiy pedagogika ma'lum ijtimoiy sharoit, vaziyatlarda pedagogik yordam sifatida ishtirok etadi.

Birinchi yo'nalish vakillari K.Mager, XX asrda P.Naturn (20-yillar), E.Borneshan, F.Shliper (60yillar) D.Legeler (80 yillar) va boshqalar bo'lgan. Paul Naturn (1854-1924) ijtimoiy pedagogikani umumiy pedagogikaning bir qismi sifatida qaraydi. P.Naturn ijtimoiy pedagogikaning uchta asosiy vazifasini ko'rsatadi:

Birinchi – bolaning jinsiy hayoti bilan bog'liq, uning hayotida bola davrasida va atrofidagi yaqin odamlari bilan aloqada rivojlanadi.

Ikkinchi – irodasi bilan bog'liq, u maktabda shakllanadi va bilim berishni amalga oshirilishi bilan bog'liq, shu bilan birga bolada emosional, ijtimoiy va motorli (harakatlanish) qobiliyatlari rivojlanadi.

Uchinchi – aql umumiylikda ochib beriladi. P.Naturn ijtimoiy pedagogikani hamma yoshdagi odamlar uchun pedagogika deb hisoblagan, uning vazifasi – yoshlarda birdamlik va jamoatchilik asoslarini tarbiyalash hisoblanadi. P.Naturn fikrini davom ettirib bu yo'nalishning vakillari ijtimoiy pedagogikani integrativ (birlashtiruvchi) fan sifatida qaraydilar. Shu mazmunda E.Borneshanning talqin qilishi e'tiborga loyiq. U ijtimoiy pedagogikani davolash pedagogikasini, iqtisodiy pedagogikani va boshqalarni birlashtiruvchi fan sifatida qaraydi. Uning vazifalari ijtimoiy guruhlar va ijtimoiy jamiyatda individual mustaqillikka yordam ko'rsatish. Jamiyatning madaniyati va insonparvarlik rivojlanishi haqida qayg'urishidan iborat. O'zining qo'shiluvchanligi sababli ijtimoiy pedagogika tarbiyaning hamma sohalariga kirib boradi, ya'ni u pedagogikaning prinsiplaridan biri sifatida ishtirok etadi. Shunday qilib, ana shu talqinga binoan ijtimoiy pedagogika tarbiyaning prinsipi sifatida ishtirok etadi. Ikkinchi yondashish A.Disterveg (40-50 y, XX asr), G.Nol, G.Boymer (XX asr 20-30 yillar), K.Molengauyer (50 yillar) va boshqalar asarlarida aks ettirilgan. A.Distervegdan boshlab, bu yo'nalish vakillari ishchi sinfining ijtimoiy himoyalanganligi, xalq ta'limi, boshpanasizlar kabi o'z davrining ijtimoiy masalalariga javob topishga harakat qildilar.

German Nol (1879-1960) ijtimoiy pedagogikaning vazifasi agarda oila va maktab biror bir sababga ko'ra o'z vazifalarini bajara olmay qolganda zarur bo'ladigan shoshilinch tez yordam ko'rsatishdan iborat deb hisoblaydi. G.Nolning fikricha, P.Naturnnikidan ancha ishonchli aniq va amaliy ko'rinadi.

Uning g'oyalari 1922 yili qabul qilingan yoshlarning xayriya ko'rsatish faoliyatlari haqidagi qonunda o'z aksini topadi, bu yoshlarni maktabdan tashqari boshqaradigan Germaniyadagi birinchi davlat xujjati edi. Shu davrdan boshlab ijtimoiy pedagogika amalda "Shoshilinch xolatlar pedagogikasi" bo'lib qoldi, u yoshlarni tarbiyalashda oilada va maktabda mavjud bo'lgan kamchiliklar o'rnini to'ldirishi kerak bo'lgan.

Gertruda Boymer birinchi yo'nalish tarafdorlaridan farqli ravishda ijtimoiy pedagogikani prinsipi emas, balki tashkiliy qismi deb hisoblagan. Oilada va maktabda tarbiyaga taalluqli bo'lmagan hamma narsa ijtimoiy pedagogikaning muammosi demakdir deb hisoblaydi u. K.Molengauyer boshpanasizlik haqidagi tushunchani rivojlantiradi. Agarda alohida ijtimoiy institutlar bolaning bu muamosini hal eta olmas ekan, deb hisoblaydi u, unda tarbiyaning yangi yo'nalishini yaratish zarurligi yuzaga keladi – ya'ni davlat yordamini deydi u, shu bilan birga ijtimoiy pedagogika madaniy mazmunini yetkazish bilan emas, balki o'sib kelayotgan avlodning rivojlanishi va jamiyatga qo'shilishi jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal etish bilan shug'ullanishi kerak deb hisoblaydi.

Hozirgi vaqtda ijtimoiy pedagogikaning asosiy yo'nalishlari to'la ishlab chiqilgan bo'lsa ham, ammo bu hali hamma muammolar o'rganilib bo'lmagan bed hisoblaydilar.

Ijtimoiy pedagogika nazariyasining umumiy ko'rinishi hali ham noaniqligicha qolib ketmoqda deb hisoblaydilar hozirgi davr nemis olimlari. Ular bundan keyin ham shundayligicha qoladi, chunki aralash fanlarning (psixologiya, sosiologiya, ijtimoiy ishlar va boshqalar) davom etib kelayotgan differensiasi (lot - farqlash) ijtimoiy pedagogika nazariyasini to'la tasvirlab berish imkonini bermay kelyapti. Bu holat har qanday fanning rivojlanishi jarayoni uchun tabiiydir. Boshqa tomonadan esa bu ijtimoiy pedagogika nazariy munozaralari maydoni XXI asrda ancha kengaydi deganini bildiradi. Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida rivojlanishi bilan birga Germaniyada ijtimoiy pedagogika sohasida mutaxassislik professional faoliyat sohasi ham faol rivojlanadi (ya'ni ijtimoiy pedagog). 1908 yildan boshlab maxsus pedagoglarni tayyorlash boshlandi, XX asrning 70 yillari boshlariga kelib Germaniya universitetlarida oliy ma'lumotli ijtimoiy pedagoglarni tayyorlash boshlandi. Shuni aytish kerakki, Germaniyada ijtimoiy pedagogika bilan bir qatorda XX asr davomida bilim va amaliy faoliyat sifatida ijtimoiy ishlar ham faol rivojlanib keldi.

Ammo ijtimoiy pedagoglar va ijtimoiy ishlarda professional faoliyatda ko'pincha umumiylik mavjud. Shuning uchun Germaniyada ular yagona standart bilan boshqariladi.

Bu standartda bu mutaxassislarning nomlari sinonimlar sifatida defis orqali

yoziyadi: ijtimoiy ishchi – ijtimoiy pedagog.

Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida rivojlanishi ancha qadimiylikka borib tutashadi. Uning qadimiyligi buyuk mutafakkirlarning ilmiy qarashlarida o'z tasdig'ini topadi.

Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida rivojlanishining birinchi bosqichi - qadimgi davrlardan XVII asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda faktlar to'planishi, tarbiya tajribasining ortib borishi, pedagogik va ijtimoiy nazariyalarning shakllanishi ro'y bergan. Ijtimoiy pedagogikaning bu rivojlanish bosqichi tarbiyani ijtimoiy hodisa sifatida asta-sekin tan olinishi bilan xarakterlanadi. Buning natijasida tarbiyaga oid turli nazariyalar paydo bo'lgan.

Birinchi bosqichning bu kabi davriy chegaralanishi, avvalambor, insoniyat tarixining ilk bosqichlarida ham ijtimoiylashtirish muammosining mavjud bo'lganligi bilan izohlanadi. Chunki ibtidoiy jamoada to'plangan tajribalar tarbiyaga oid boy ijtimoiy pedagogik g'oyalar haqida gapirishga imkon beradi. Tarbiya ijtimoiy hodisa sifatida insonning hayvonot olamidan ajralishi bilan paydo bo'lgan. Dastlab tarbiya umumiy taqlidiy ma'no kasb etgan bo'lsa, keyinchalik esa o'ziga xos faoliyat turiga aylangan va bu bilan shug'ullanuvchi odamlar - tarbiyachilar paydo bo'lgan. Vaqt o'tgani sari tarbiya jarayoni ham murakkablashib borgan, yosh, jins, mazmuniga ko'ra farqlana boshlagan, uning axloqiy jihatlariga e'tibor qaratila boshlagan. Bundan tashqari, arxeologik ma'lumotlar ibtidoiy jamoada kasal va yaradorlarga yordam ko'rsatilganligini, bolaligida olingan jarohatlar tufayli vafot etganlarning skeletlari asosida to'la tasdiqlaydi.. Bu kabi qarashlar etnografik ma'lumlarda paydo bo'lishi bilan ham o'z tasdig'ini topgan. Ibtidoiy jamoa tuzumida yashagan barcha elatlarda mehnatning jins va yoshga qarab ajratish an'anasi bo'lgan. Mavjud yoshlarni muntazam ravishda turli kasb-hunarlariga o'rgatishgan. Bularning hammasi ibtidoiy jamoada ijtimoiy-pedagogik tajribaning ilk ko'rinishlari mavjud bo'lganligi haqida tasavvur qilishga imkon beradi.

Agar ibtidoiy davr ijtimoiy pedagogik amaliyotning vujudga kelishiga zamin yaratgan bo'lsa, qadimgi dunyoning ilk tsivilizatsiyalarining paydo bo'lishi ijtimoiy-pedagogik fikrning shakllanishiga kuchli ta'sir etgan. SHarqning quldorlik davlatlarida ijtimoiy pedagogik g'oyalar bir nechta mualliflar tomonidan shakllantirilgan va odatda muqaddas kitoblar shaklida butun xalq mulkiga aylangan (Xitoyda-Shukit, Hindistonda-Vedalar, Misrda-Tot xudosi kitoblari, O'rtaOsiyoda-Avesto va boshqa).

Faqatgina miloddan avvalgi I ming yillikning o'rtalari va ikkinchi yarmida ijtimoiy pedagogik g'oyalarni yaratuvchilarning nomlari ma'lum bo'la boshlaydi.

Shubhasiz, ijtimoiy pedagogik tafakkurning rivojlanishiga antik davr (yunon va rim) faylasuflari katta hissa qo'shishgan. Xususan, **Suqrot** (mil. avv. 469-399

y) “O‘z o‘zingni angla” degan shiorni ilgari surgan va shu bilan ong insonda barcha yovuzlikni yo‘qotishi mumkinligini ta’kidlagan.

Demokrit (mil. avv. 460-370 y) o‘z ta’limotida tarbiyada bola tabiatini hisobga olish tamoyilini asoslab bergan. Bundan tashqari uning fikricha, bola tarbiyasini yoshligidan boshlamoq kerak.

Aflotun (mil. avv. 423-347 y) ilk marotaba davlat va tarbiyaning o‘zaro munosabati g‘oyasini ilgari surgan. Uningcha, tarbiya davlatning eng muhim vazifasi bo‘lgan.

Arastu (mil.avv. 384-322y.) antik dunyoda tarbiyaning to‘liq nazariyasini ishlab chiqqan. Aflotundan farqli o‘laroq, u inson tarbiyasida asosiy urg‘uni davlatga to‘liq bo‘ysundirishga emas, balki insonning o‘z manfaatlariga qaratadi. Shaxsning jamoa bilan uyg‘un rivojlanishi to‘g‘risidagi g‘oya ham unga tegishlidir.

Mark Fabiy Kvintilian (mil. avv. 42-118 y) notiqlik san‘atining qadimgi yunon nazariyotchisi, pedagog. “Notiqning tarbiyasi haqida” deb nomlangan ilk pedagogik asar unga tegishli bo‘lib, unda tarbiyaning muhim g‘oyalari, ta’lim metodikasi bayon etilgan. Kvintilianning asosiy g‘oyalari –o‘z “men”ini saqlab qolish, “o‘z ustidan” hukmronlikka erishish kabilarni tashkil etadi.

Feodalizm davri tarbiyasining o‘ziga xos xususiyatlari asketizm, dunyo dinlari qoidalariga qat’iy amal qilish bo‘lgan. Asketizm(yunoncha)- tuyg‘u va istaklarni cheklash yoki bostirish, azob tortish, hayot ne‘matlaridan voz kechish degan ma’noni anglatadi. O’sha davrning (VI-XII asrlar) ijtimoiy-pedagogik g‘oyasini yaratuvchilari o’sib kelayotgan avlodga singdirmoqchi bo‘lgan axloqiy qadriyatlar orasida hamdardlik, yaqinlarga yordam xususan, kasallar va nochorlarga yordamkabilarni targ‘ib etadilar.

XV-XVI asrda avval Italiyada, so‘ngra Yevropaning boshqa davlatlarida kapitalistik munosabatlar rivojlana boshladi. Paydo bo‘layotgan yangi toifa vakillariga, xususan, ziyolilarga asketizmning tamoyillari begona edi. Yangi burjua madaniyati shakllana boshlagan bir paytda uni tavsiflash uchun odatda insoniylashtirish va qayta tiklash tushunchalari qo‘llanilgan. Gumanizm (insoniylik) tushunchasi yangi madaniyat markazida ilohiylik emas, inson shaxsi turishidan guvohlik berardi. Uning o‘zi ham qalban, ham jisman go‘zal bo‘lishi lozim. Inson faqatgina o‘z ongi, kuchi, muvaffaqiyatiga ishonchi, faolligi, irodasi tufayli barcha qadriyatlar va o‘z baxtining yaratuvchisiga aylana oladi. SHu bilan birga gumanistlar cherkovga qarshi ochiq qarshi chiqmaganlar. Ular xudoga buyuk yaratuvchi sifatida qarashgan.

XIV-XVI asrlar gumanistlarining aksariyati o‘zlari pedagog bo‘lishgan yoki pedagogik nazariyaga murojaat qilishgan. Gumanizm g‘oyasi pedagogikada xuddi ana shu davrlardan boshlab o‘rnasha boshlagan.

Asl tarbiya o'z mohiyatiga ko'ra doim go'zallik haqida, uning kelajagi haqidagi g'amxo'rlikni bildirgan. Uyg'onish davrida ijtimoiy gumanizm g'oyalarini amalga oshirila boshlanishi mashhur italiyalik pedagog-gumanist Vittorino de Genotre (1378-1446) tomonidan ilk marta "Quvonch uyi" nomli internat maktabning yaratilishi bilan bog'liq. SHuni ta'kidlash joizki, ta'riflanayotgan davrda din, pedagogika va ijtimoiy-pedagogika bir-biri bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan.

Diniy qarashlarda asosiy e'tibor umuminsoniy qadriyatlarga qaratilgan. Diniy rivoyatlarda, muqaddas kitoblarda, oyatlarda axloqiy o'gitlar, insonlararo munosabatlar, qavm-qarindoshlarga, bolalarga g'amxo'rlik haqida ko'p gapirilgan. Bu asosda ko'pgina avlodlar tarbiya topishgan va bu borada Yevropada cherkov uzoq vaqt mobaynida "nogiron bolalar rahnamosi" bo'lgan. Unga nafaqat ruhiy yordam so'rab, balki tibbiy, moddiy yordam so'rab, adolatsizlikdan himoya so'rab murojaat qilishgan. Bu borada butun dunyoda diniy tashkilotlarning boy ana'nalari mavjud. Masalan, Yevropada antik davrlardan buyon ota-onasiz qolgan bolalarni ibodatxonalar eshigi oldiga qo'yib ketishgan. Manbalarga ko'ra, ota-onasiz qolgan bolalar uchun ilk tarbiya uylari IV asrda Kesariya shahrida yepiskop **Vasiliy Kesariy**ning tashabbusi bilan paydo bo'lgan. 787 yilda bunday muassasa Milandagi soborda ham paydo bo'lgan. Uzoq vaqt u Yevropada yagona tashkilot bo'lib qolavergan va faqat XIV asrga kelib tarbiya uylari soni o'ttiztagacha ko'paygan. Qizig'i, endi unda faqat tarbiya bilan shug'ullanishmagan, ularda amaliy ishlar ham olib borilgan: onalarga yordam berilgan, bolalarni oilalarga berishgan, ularning tarbiyasini nazorat qilishgan. Keyinchalik ham bolalar uylari ruhoniylar tomonidan boshqarilgan. Parijda 1640 yil ruhoni **Vintsentom Depolen** tomonidan asos solingan tarbiya uyi juda mashhur bo'lgan. U tarbiya uyini qirol Lyudovik XIV tomonidan moliyalashtirishga erishgan. Mehribonlik bilan shug'ullanuvchi uyushmalar - yirik cherkov tashkilotlari ham tuzila boshlagan.

Ijtimoiy pedagogika rivojining ikkinchi davri XVII-XIX asrlar - ijtimoiy-pedagogika eng ilg'or g'oyalar va ilmiy kontseptsiyalar bilan boyitilgan davr bo'ldi desak, xato bo'lmaydi.

XVIII-XIX asrlar (burjua-demokratik inqiloblar davri) olimlarining (pedagog, faylasuf, sotsiolog, psixologlar) davlat va jamoat institutlari bilan hamkorlikda ijtimoiy-pedagogik muammolarni hal qilish g'oyalarining paydo bo'lishi davridir. Tarbiya masalalari jamiyat islohotlari, inson huquqlari tengligi bilan bog'lana boshlangan. Aynan shu davrda ijtimoiy-pedagogikaning asosiy yo'nalishlarining aniq faoliyatda amalga oshishi sodir bo'ladi.

Ijtimoiy pedagogik g'oyalarning rivojlanishiga frantsuz faylasufi, yozuvchi, ma'rifatparvar **J.J.Russo** (1712-1778) ulkan hissa qo'shgan. U huquqiy, diniy va

tabiiy rivojlanish asosiga qurilgan tabiatan shakllangan tarbiya g'oyalarini ilgari suradi. Rus qomusiy olimi va pedagogi **M.V.Lomonosov** (1711-1765) o'z "reglamentlari"da tarbiyaning xalqparvar g'oyalari, insonga faol shaxs sifatida yondashuv bolaning axloqiy sifatlarini shakllantirishda o'ta muhimligini bayon etgan.

Yangi ijtimoiy pedagogik g'oyalar frantsuz faylasufi va ma'rifatparvari **Klod Adriana Gelvetsiy** (1715-1771) ishlarida ham tilga olingan. Ular tarbiya omillari hisoblanmish muhit va pedagogik ta'sir, shaxs va jamiyat manfaatlarining birligi masalalaridir.

Shvetsariyalik buyuk pedagog **Iogann Genrix Pestalotstsi** (1746-1827 y) o'z faoliyatida ijtimoiy pedagogik nazariyani va amaliyotni birlashtirgan va o'z mablag'lari hisobiga yetimlar uylari ochgan.

Ingliz faylasufi va pedagogi **Robert Ouenning** ijtimoiy pedagogik faoliyati bir qancha qiziqarli va sermahsul tajribalardan iborat. Nyu-Lenarkda "Inson xarakterini tuzishning yangi instituti"ni ishchilarning turmush darajasini yaxshilash uchun yaratib, u amaliyotda ishlab chiqarish ta'limini madaniyat bilan bog'lab qo'ydi. Jahonda ilk marta didaktik o'yinlar o'tkaziladigan, bolalarning jismoniy holati haqida g'amxo'rlik qiluvchi muassasalar u tomonidan tuzilgan.

Ingliz faylasufi **Gebert Spenser** (1820-1903) oilaning shaxs shakllanishidagi o'rni haqidagi ijtimoiy pedagogik g'oyalar bilan to'ldirilgan asarlar yaratgan. Bu maqsadlarga erishishi uchun u qiziq usulni ilgari surgan. Angliyaning davlat va siyosiy tuzilmasini oila va maktab tomonidan imitatsiyalashuvi.

XIX asr shunisi bilan xarakterliki, bu davr mobaynida ijtimoiy pedagogikaning pedagogikadan ajralishi jarayoni sodir bo'lgan. Ikkinchi tomondan, uning boshqa fanlar, xususan, psixologiya, sotsiologiya, tibbiyot, falsafa kabi fanlar yaqinlashuvi bilan ham ro'y bergan.

XIX asr ijtimoiy pedagogikaning asosiy yo'nalishlari esa quyidagilardan iborat:

1. **ijtimoiy pedagogikaning nazariy asoslarini ishlab chiqilgan.** Bu uning fan sifatida paydo bo'lishiga olib kelgan;
2. **ta'lim sohasidagi ijtimoiy pedagogik faoliyat vujudga kelgan.** Bu yerda ijtimoiy pedagogik ta'lim, tarbiya maqsadi va xarakteri, ta'siri haqida gap bormoqda
3. ijtimoiy pedagogika harakat doirasining kengayishi ro'y bergan. "Nochor" va tanlab olingan bolalar bilan bir qatorda katta yoshdagilar bilan ham faoliyat boshlanadi. Asosiysi, ijtimoiy pedagogika o'z faoliyatini davlat siyosati darajasiga ko'taradi. XIX asrning 60-70 yillarida Germaniya, Angliya, AQSHda ijtimoiy qonunchilik tizimlari yaratiladi.

Shuni aytib o'tish joizki, ijtimoiy pedagogika fani rivojlanishining barcha yo'nalishlarini uning eng asosiy vazifasi- bolalarni ijtimoiy jihatdan himoya qilish g'oyasi birlashtiradi. Biroq, XVIII-XIX asrlarda u avvallari e'tiborsiz bo'lgan g'oyalar bilan to'ldiriladi. Aniqrog'i, ijtimoiy pedagogika nazariyasi va amaliyotida birinchi o'ringa umuminsoniy qadriyatlar chiqadi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab pedagogika va ommaviy tarbiya tizimiga e'tibor kuchayadi. Unda yoshlarni tarbiyalash, shuningdek, ijtimoiy xulq-atvor normalarini buzuvchi shaxslarni qayta tarbiyalash muammolari hal qilina boshlandi. Industriyalashtirish qishloq axolisining shaharga ommaviy migratsiyasini keltirib chiqardi. Yevropa va Amerika mintaqalarining ijtimoiy - madaniy jarayonlari bilan ham bog'liq o'zgarishlar, qishloq axolisining shaharga ko'chib o'tishlari g'ayriaxloqiy xulq-atvor, jinoyatchilik, daydilikning ko'payishiga olib keldi. Ayniqsa, AQSHda holat nihoyatda og'ir edi chunki, bu davlatga boshqa kam rivojlangan davlatlardan aholi ko'chib kelishi ortib bordi. Ayni vaziyatda cherkov rolining susayishi kuzatildi. CHerkov shu paytgacha axloqiy normalarning ana'naviy tashuvchisi bo'lib kelgan, biroq endi u jamiyatning yangi ehtiyojlari va voqeliklarini anglay olmadi va ko'pgina odamlar hayotida o'zining avvalgi mavqeini yo'qotdi. SHu bilan birga, Yevropada milliy davlatchilikning shakllanishi va Amerikada millatning yuzaga kelishi barcha ijtimoiy qatlamlarda muayyan g'oya va qadriyatlarning madaniylashuvini talab qilardi. Bu esa masalaning yechish vositalarini topishni taqozo etardi. XIX asr oxirida mustaqil fanga aylangan ijtimoiy pedagogika rivojiga aynan shu omil turtki bo'ldi.

Bu paytda esa nemis pedagogi **Fridrix Disterveg** tomonidan faqatgina XX asrda keng qo'llanilgan «ijtimoiy pedagogika» atamasi fanga kiritildi.

Aynan shu vaqtdan ijtimoiy pedagogikaning mustaqil fan sifatida rivojlanishining uchinchi bosqichi boshlanadi. XX asr inson tsivilizatsiyasi tarixida ilmiy-texnikaviy inqiloblar asri sifatida nom qoldirdi. Fan ishlab chiqarish ob'ektidan iqtisodiy va madaniy sohaning yetakchi omiliga aylandi. Ilmiy inqiloblar ijtimoiy pedagogikaning keyingi rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ijtimoiy pedagogikaning boshqa fanlar-psixologiya, fiziologiya, anatomiya, tarix, sotsiologiya va boshqalar fanlar bilan yaqinlashuvi ro'y berdi. Eng asosiysi-XX asrda insonning muammolari, uning tarbiyasi va ta'limi uchun ijtimoiy sharoitlarni yaratish zamonning eng global muammosiga aylandi. Aynan shu davrda "pedalogiya" bolani har tomonlama o'rganish haqidagi fan rivojlana boshlaydi. Uning asoschilari E.Meyman, S.Xoll, Torndayk hisoblanadi. Bu borada Rudolf Shteynerning pedagogikasi ham muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy pedagogikani yangi g'oyalar va tarbiya usullari bilan boyitgan pedagogika arboblardan Georg Kirshenshteyner (1854-1932, Germaniya), Jon Dyui (1859-1952, AQSH), Vilgelm Layni (1862-1926, Germaniya) ko'rsatsa bo'ladi.

G.Kirshenshteynning pedagogik nazariyasi maktablarda bolalarning sust qabul qilishidan faol harakatdagi ehtiyojlarini ijodiy amalga oshirishga, ijodga ko'ra isloh qilish g'oyasiga asoslanadi. Kirshenshteyner ijtimoiy pedagogik qarashlarining asosini bolalarni jamiyatda har tomonlama tayyorlash uchun mehnat maktablarini yaratish, hamkorlik malakalarini rivojlantirish, davlat

manfaatiga xizmat qiluvchi bolalarning fuqarolik tarbiyasini amalga oshirish kerakligi tashkil etadi.

Jon Dyui pragmatik pedagogika asoschisi hisoblanadi. Uning oliy qadriyatlari amaliy natija, biznesda muvaffaqiyatga erishish hisoblanadi. Bu pedagogning xizmati shundaki, u maktab bilan hayotning aloqasi, ta'limning individuallashtirish kabi ijtimoiy psixologik g'oyalarga murojaat qilganidir.

Hozirgacha turli davlat olimlari o'rtasida ijtimoiy pedagogikaning boshqa pedagogik fanlari orasidagi o'rni borasida – bu mustaqil fan bo'la oladimi yoki faqatgina yosh guruhlarini o'rganish bilan cheklanadigan pedagogikaning bir sohasi bo'lib qolaveradimi, degan masalada bahs- munozara davom etmoqda.

Bu bahslar, yangi fan tushunchasining shakllanmaganligi ijtimoiy pedagogika mohiyatini inkor etuvchi ba'zi pedagoglar nazariyalarida paydo bo'lgan. Masalan G.Noll va G.Boymmer (1920- 1930 y.) ijtimoiy pedagogikani bolalarga yordam berish va voyaga yetmagan huquqbuzarlarning profilaktikasi deb tushunishgan.

Ijtimoiy pedagogikaning mohiyatini nemis olimi **Paul Natorp** (XX asrning 20- yillari) umuman boshqacha ta'riflagan. U ijtimoiy pedagogika xalqning madaniy va ahloqiy darajasini ko'tarish maqsadida jamiyatning barcha tarbiyaviy kuchlarini yaqinlashtirish muammosini tadqiq etadi deb hisoblagan. Bunaqa tushunish yangi davrning buyurtmasiga ko'proq mos kelgan va ijtimoiy pedagogika inson hayoti davomida tarbiyalash haqidagi bilim sohasi ekanligini tasdiqlagan.

XIX asrning 60-yillarida ijtimoiy pedagogika huquqbuzarlik sodir etgan bolalarga yordam berish, bolalar uylarida tarbiyaviy ishlarni olib borish, ijtimoiy pedagogik faoliyat olib boruvchi mutaxassislarni tayyorlashni o'z ichiga qamrab oladi. Xususan, XX asrning 70-yillaridan Germaniyada oliy ma'lumotli ijtimoiy pedagoglar tayyorlana boshlandi.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib ijtimoiy pedagogik muammolarning global darajaga yetganiga BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 20.11.1959 yil va 20.11.1989 yilda bola huquqlari deklaratsiyasini qabul qilinganligi guvohlik beradi. Unda alohida e'tibor yetimlarning ijtimoiy himoyasiga, ko'p bolali oilalar, kam ta'minlangan oilalar bolalariga ijtimoiy yordam ko'rsatishga va boshqa bir qator muammolarga qaratilgan.

O'zbekistonda ijtimoiy pedagogika an'ana va tamoyillarini tiklanishi murakkab sharoitlarda amalga oshmoqda. Davlat ta'lim standartlarini va darsliklarni yaratish, mutaxassislar tayyorlash, o'quv rejalari va dasturlarni tuzishda mavjud tajriba va chet el mutaxassislari bilan yaqin hamkorlik asosida bo'lish kerak. Chunki Germaniya, Angliya, AQSHlarda boy ijtimoiy pedagogik tajriba mavjud.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Xorijda ijtimoiy pedagogika taraqqiyotining asosiy bosqichlarini sanab o'ting?
2. Ikkinchi bosqichning qisqa ta'rifini bering?

3. "Ijtimoiy pedagogika" atamasi kim tomonidan va qachon fanga kiritilgan?
4. Nima sababdan XX asrda ijtimoiy pedagogika fani va faoliyatiga ijtimoiy talabkuchaydi?
5. XX asr ijtimoiy pedagogika vakillarining qarashlarini ochib bering?

4 – MAVZU: SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA SHAXS IJTIMOIYLASHUV MASALALARINI YORITILISHI.

REJA

1. Sharq mutafakkirlari asarlarida shaxs ijtimoiylashuv masalalarini yoritilishi.
2. Sharq mutafakkirlari asarlarida shaxsning ijtimoiylashuvi.

Shaxs bu - alohida individ, mohiyatan yaxlit ijtimoiy-axloqiy olam. U o'zida inson mohiyatini, uning mavjud sifatidagi qadriyatini mujassam etadi. Shaxs ijtimoiygumanitar fanlarda o'z yo'nalishi, tadqiqot obyekti va maqsadi nuqtai nazaridan turlicha talqin etiladi. U o'ta murakkab ziddiyatli, qarama-qarshi, o'zini o'zi inkor etadigan mavjudot sifatida, biologik, fiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, ruxiy-axloqiy va estetik aql idrok tafakkur obyekti sifatida hayot mantig'i jihatidan tadqiqot manbaiga aylanishi mumkin.

Shaxsning shakllanish omillari ko'p va xilma-xildir. Masalan genetik, (nasliy), biologik-tabiiy, madaniy, ijtimoiy hayot tajribasi, o'z turdoshlari bilan munosabat va boshqalar shaxsning genetik jixati uning nasliy asosi, ajdodlaridan yetib kelgan fizionomiya, fe'l-atvor bilan, biofiziologik jixati esa yashash uchun quvvat olish bilan belgilanadi.

Shaxsning ijtimoiylashuvi - ta'lim tarbiya ta'sirida inson psixologik funksiyalarining takomillashuvi, ijtimoiy -axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me'yor va qoidalarining o'zlashtirilishi, dunyoqarashning boyish jarayoni va natijasidir. Ijtimoiylashuv jarayoni o'zining sifat va xususiyatlariga ega, tarkibiga, qonuniyatlariga, omillariga, shart - sharoitlariga, boshqarilishiga va ijtimoiylashgan insonda namoyon bo'lishiga ko'ra murakkabdir. Ana shu sababli u o'zida turli fanlar tomonidan ko'rib chiqiladigan ijtimoiylashuvning

xilma-xil madaniy, axloqiy, xuquqiy, mehnat, psixologik ko'rinishlarini aks ettiradi.

Ijtimoiylashuvning quyidagi umumiy mexanizmlari mavjud;

An'anaviy - oila va yaqin muhit orqali o'quvchilarni ijtimoiy faollikka jalb etish, faoliyat va muloqotda maqbul shar- sharoitlarni yaratish. Institutsional - ijtimoiy institutlar va ta'lim muassasalari tomonidan o'quvchilarning rivojlanishi uchun zaruriy shart sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish. Shaxslararo-o'quvchilarni ijtimoiy aloqalar tizimiga jalb etish, ularda muloqotmandlik malakalarini rivojlantirish;

Refleksiv-o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini baxolash, o'z-o'zini loyixalashni pedagogik qo'llab-quvvatlash orqali indiviual ongni taraqqiy etish.

Sharq yulduzi sanalgan Abu Rayhon Muhammad ibn Axmad Beruniy (973-1048) qarashlarida iqtisodiy ijtimoiylashuv jarayonining mohiyati, ijtimoiy munosabatlar, kishilarning yashash tarzi moddiy extiyojlari, qiziqishlari, manfaatlari, talablari va maqsadlari bilan uzviy bog'liqlikda aks ettirgan.

Jaxon fani taraqqiyotiga ulkan xissa qo'shgan buyuk qobusiy olim Abu Ali alXusayin ibn Abdulloh ibn Xasan ibn Ali (980-1037) Ibn Sino o'zining buyuk "Tib Qonunlari" asarida iqtisodiy tarbiya haqida so'z yuritib; "Agar oila boshlig'i ,deydi Ibn Sino, tajribasizlik va noxaqlik qilsa u oila a'zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi va uning oqibatida bundanda yomon natijalar kelib chiqadi". Uning fikricha agar oila boshligi yetarlicha ijtimoiylashgan va bu borada ma'lum tajribaga ega xolatda oilani ijtimoiylashtirsa oila baxtli bo'ladi.

Mutafakkir va davlat arbobi Yusuf xos Xojib o'zining "Qutadg'u bilik" asarida ham aynan ijtimoiylashuv masalasiga oid 4ta obraz vositasida mohiyatni ochib bergan;

Birinchisi-adolat bo'lib u Podshox Kuntug'di timsolida, ikkinchisi davlat bo'lib, vazir Oyto'ldi, uchinchisi- aql bo'lib , vazirning o'g'li O'gdilmish, to'rtinchisi- qanoat bo'lib Uning qarindoshi O'zgirmish qiyofasida tasvirlangan.

Shaxsning iqtisodiy ijtimoiylashtirish jarayonida iqtisodiy tarbiya masalasi ham muxum o'ringa ega. Bunda buyuk mutafakkir va davlat arbobi Nizomiddin Mir Alisher (1441-1501) Alisher Navoiy. qarashlari o'ziga xos alohida axamiyat kasb etadi. Allomaning shaxs ijtimoiylashuvi borasidagi qarashlari, asosan, "Xazoyin ul-maoniy" She'riy devoniga joylangan.

Xulosa. Ijtimoiylashuv cheksiz jarayon sifatida baxolanib, Biron bir yosh davri bilan chegaralanmay, aksincha, individning hayoti davomida ijtimoiy malakalarni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan uzluksiz jarayondir.

Individ tomonidan ijtimoiy rollar va odob-axloq normalarini o'zlashtirilishiga alohida urg'u berishi, ijtimoiylashuv xodisasining ijtimoiy tajribani boshqa individga yetkazishning ajralmas xususiyati sifatida ko'rilishi bilan bog'liq xolat ekanligidir. Bundan ko'rinib turibdiki shaxsning ijtimoiylashuvi nafaqat hozirgi zamon global masalasigina bo'lib qolmay bir necha asrlar avval yashab o'tgan sharq mutafakkirlarining ham asarlarida alohida yoritilgan mavzulardan bo'lgan.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR.

1. Sharq mutafakkirlari asarlarida shaxs ijtimoiylashuv masalalarini yoritilishi deganda nimani tushunasiz.
2. Sharq mutafakkirlari asarlarida shaxsning ijtimoiylashuvi.

5 – MAVZU: XORIJDA IJTIMOIIY PEDAGOGIKANING RIVOJLANISH TARIXI.

REJA:

1. Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy pedagogikaga oid ilmiy yondoshuvlar.
2. Yevropa mamlakatlari ta'lim tizimida ijtimoiy pedagogikaning xolati.
3. Rossiya pedagogikasida ijtimoiy pedagogikaga oid ilmiy izlanishlar.
(Ma'lumotlar kam chiqdi)
4. Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy pedagogikaning ilmiy va nazariy asoslari.

Tayanch so'z va iboralar: ilmiy yondoshuv, ijtimoiy pedagogikaga oid ilmiy izlanishlar, ijtimoiy pedagogikaning ilmiy va nazariy asoslari.

Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy pedagogikaga oid ilmiy yondoshuvlar. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida har jihatdan rivojlangan kishini ijtimoiy tarbiyalash muammosi hozirgi kunning asosiy talabi bo'lib turibdi. Chunki, jamiyatda yuz berayotgan inqilobiy o'zgarishlarni insonning o'zini o'zgartirmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Ammo, yangi kishini tarbiyalash o'z-o'zidan emas, balki ijtimoiy munosabatlar yangilanishi jarayonida amalga oshadi. Bu jarayonda maktablar tizimi muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot texnologiyalari yetakchi o'ringa chiqib olgan hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda maktablar tizimini, ta'lim mazmunini yangilash zaruratga aylandi. Eskicha o'qitish usullari va metodlari ma'nadan eskirib, ta'limning ilg'or ijtimoiy pedagogik texnologiyalarga asoslangan metodlari va shakllariga ehtiyoj kuchaydi.

Qadimgi ajdodlarimiz olamning murakkab tabiiy jarayonlarini o'rganib borar ekan, insonni, uning ma'naviy-axloqiy kamolotini olamdan tashqarida emas, balki shu olamning ichida deb qaraydilar. Ularning fikricha, odam – olam ichidagi kichik olam bo'lib, unda katta olam (olami Kubro) ning barcha xususiyatlari o'z aksini topgandir. Bu hol olamni to'la tasavvur qilishdan oldin odamni, inson olamini yaxshi bilishni taqozo etadi. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, hozirgi davr rivojlangan mamlakatlarida insonni tabiatning oliy mahsuli sifatida, olamning bir parchasi deb qarashda biryoqlamalikka berilib ketish kuzga tashlanadi.

Ijtimoiy pedagogikada samarali islohotlarni amalga oshirish talab etilayotgan hozirgi davrda esa ilmiy texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revoliutsiya sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a'zolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb – hunarga yo'naltirishda davlat xizmatini hamda o'rta ta'limning ko'p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta'lim mazmunini yaxshilashda pedagogik vositalarni qo'llash, ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yul oshish, uning muhim tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o'rganish ayni muddaodir.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limning mamlakat ishki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e'tirof qilingan haqiqatdir. Shu tufayli ham chet mamlakatlarda maktab ehtiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan mablag' miqdori yildan yilga - oshib bormoqda.

Yaponlarda masalan, «maktab muvaffaqiyati va farovonlik timsoli» gina bo'lib qolmay, «u insonlarni yaxshilaydi», degan fikr ishonch va e'tiqodga aylangan. Ta'lim to'g'risidagi g'amxo'rlik taniqli siyosatchilarning ham hamisha diqqat e'tiborida bo'lgan. Shuning uchun ham AQSH ning sobiq Prezidenti R.Reyganni, Buyuk Britaniya Bosh vaziri M.Techcherni, Fransiya Prezidenti F.Mettiranlarni maktab islohotining tashabbuskorlari deb bejiz aytishmaydi. F.Mitteran maktabni «Jamiyatini harakatlantiruvchi kuch» deb hisoblagan.

Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko'p sonli ilmiy muassalar ishlab turibdi. Germaniyada ularning ikki mingdan ortiq. Fransiya, AQSH, Yaponiyada ta'lim tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar Universitetlar pedagogik tadqiqot markazlari shug'ullanmoqdalar. Ular faolitini esa xalqaro ta'lim markazlari, masalan, AQSH da xalqaro instituti muvofiqlashtirib bormoqda. Ko'pchilikning faoliyati o'quv dasturini takomillashtirish va qayta qurishga qaratilgan. Maktab dasturlarini o'zgartirish ikki asosiy yo'nalishda: ekstensiv va intensiv yo'l bilan amalga oshiriladi.

Birinchi holatda o'quv muddati uzaytiriladi, o'quv materiallari hajmi ko'paytiriladi; ikkinchi holda esa mutlaqo yangi dastur yaratiladi. Bu o'rinda ikkinchi yo'l, ko'pchilik mutaxassislarning e'tiroficha, maqbul hisoblanadi. 1961

yilda «Bosh yangi bazis» tamoyillari asosida AQSH oʻrta maktablarni islohot qilish boshlangan edi. Buning mohiyati shundaki, ingliz tili va adabiyoti (toʻrt yil), matematika (toʻrt yil), tabiiy bilimlar (uch yil), ijtimoiy fanlar (uch yil), kompyuter texnikasi (yarim yil) kabilardan iborat besh yoʻnalishdagi majburiy taʼlim joriy qilindi.

XX asrning 80- yillarida majburiy taʼlim hajmini qisqartirish jarayoni yanada chuqurlashtirildi. Hatto ayrim kollejlarda bu sohada uch yangi: ingliz tili va adabiyoti, matematika, ijtimoiy bilimlar bazislari asosida ish olib borilmoqda. Taʼlimning boshqa turlari esa ixtisoslashtirish davrigacha amalga oshiriladigan boʻldi. Amerikadagi koʻzga koʻringan «Found Karnegi» pedagogik markazi bu dasturni XXI asr dasturi deb baholamoqda. Oʻquv dasturlarini qayta qurish jarayoni Gʻarbiy Yevropa davlatlarida ham amalga oshirilmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyada taʼlim vazirligining tavsiyalariga muvofiq oʻquv rejasi va dasturini taʼlim muassasalarining oʻzlari belgilaydilar mazkur tavsiyalarga muvofiq 50 foiz oʻquv soatlari oʻqitilishi shart boʻlgan «yadro» predmetlar: ingliz tili adabiyoti matematika, din darsi jismoniy tarbiyaga ajratiladi. Oʻquv soatlarining boshqa qismi esa oʻqitilish shart hisoblanib, tanlab olingan predmetlarga (gumanitar, tabiiy matematik) ajratiladi.

80-yillardan boshlab Buyuk Britaniyada ham AQSH dagi singari oʻrganilishi majburiy boʻlgan fanlar doirasi kengaytirildi. Ingliz tili va adabiyoti, matematika va tabiiy fanlar oʻquv setkasining yadrosini tashkil etadigan boʻldi. Qolgan predmetlarni tanlab olish oʻquvchilar va ota- onalar ixtiyoridadir. «Yangi dunyo» ning pedagogik gʻoyalari Fransiya va Germaniya taʼlimiga ham sezilarli taʼsir etayotir. Germaniya toʻliqsiz oʻrta maktablarida asosiy predmetlar bilan bir qatorda tanlab olinadigan ximiya, fizika, chet tillari kiritilgan oʻquv dasturlari ham amalga oshirilayotir. Bu oʻquv dasturi tobora toʻliqsiz oʻrta maktab doirasida chiqib, oʻrta maktablar va gimnaziyalarni ham qamrab olmoqda.

Fransiya boshlangʻich maktablarida taʼlim mazmuni ona tili va adabiyoti hamda matematikadan iborat asosiy, tarix, geografiya, aholishunoslik, tabiiy fanlar, mehnat taʼlimi, jismoniy va estetik tarbiya kabi yordamchi predmetlarga boʻlinadi.

Yaponiya maktablari ikkinchi jahon urushida keyinroq Amerika taʼlimi yoʻlidan bordi. Lekin shunga qaramay, bu ikki mamlakat oʻquv dasturida qator farqlar koʻzga tashlanadi. Yaponiyada oʻquv dasturlari jiddiy murakkablashtirilgan asosiy fanlar majmui ancha keng, bir qator yangi maxsus va oʻquv fakultativ kurslar kiritilgan.

Germaniya maorifidagi asosiy muammo sobiq GDR dagi taʼlimni bir xil milliy meʼyorga solishdan iboratdir. Asosiy vazifa sobiq GDR dagi taʼlim tuzilmasini yangi meʼyorga va oʻlchovga tushirish, oddiy usul bilan GFR dagi taʼlim tizimiga oʻtkazib oʻqishdan iborat. Ammo, buning ham oʻziga xos

muammolari bor. Birinchidan mablag' masalasi bo'lsa, ikkinchidan sobiq GDR dagi ta'lim jarayoni qatnashchilarining bu o'zgarishga munosabatidir.

Germaniyada ta'lim davlat va jamiyat tomonidan ardoqlanayotgan soha bo'lib, u mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishga barakali hissa qo'shib kelmoqda.

Maktabgacha tarbiya Germaniya ta'lim tizimida muhim bosqich hisoblanib, uning 100 yildan ortiq tarixi bor. Germaniyada bolalar MTTlari ta'limning quyi bosqichi hisoblansada, lekin u davlat ta'lim tizimi tarkibiga kirmaydi.

Eski yerlardagi (sobiq GDR ga kirmagan yerlar) 24000 dan ortiq MTTlarni mablag' bilan ta'minlash turli jamoat tashkilotlari, xayriya birlashmalari, korxonalar, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasidadir. Ota onalar ham qisman pul to'laydilar. 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarning 80 foizi bolalar MTTsiga qatnaydi. MTTlarda ta'lim tabaqalashtirib olib boriladi. Germaniyada bolalar MTTlarida odatda bolalar tushgacha tarbiyalanadilar. Kunning ikkinchi yarmida esa uyda, oilada bo'ladilar. Kuni uzaytirilgan guruhlar ham mavjud.

Majburiy ta'lim 6 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarga tegishli, bu jarayon 12 yil davom etadi. Bundan 9 yillik (ba'zi bir yerlarda 10 yil) maktabda to'la haftalik o'qishini bitiradi, keyin hunar texnika bilim yurtlarida to'la bo'lmagan haftalik o'qishida o'qiydilar. O'qish davlat maktablari tekis. Xususiy maktablar ancha kam. Boshlang'ich maktab. O'qish 6 yoshdan boshlanadi va 4 yil davom etadi (Berlinda 6 yil). Dastlabki ikki yil o'qish davomida bolalarga baho qo'yilmaydi. Boshlang'ich maktabda 4 yillik o'qishdan keyin o'quvchilar yo'nalish bosqichidagi maktabga o'tadilar. Bu yerda 5-6 sinf bosqichidagi yo'nalish maktab tipiga bog'liq yoki bog'liq bo'lmagan holda maxsus dastur asosida o'qitiladi bunda bolalarning ota-onalari maktab tipini tanlash yoki o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Hunar ta'limi Germaniya ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega. Buning sababi, Germaniyada yuqori malakali ishchilarga bo'lgan talabning kuchliligidir. To'liqsiz o'rta maktabni bitiruvchilarning (9-10-sinflar) 79 foizi, to'liq o'rta maktabni bitiruvchilarning esa 20 foizi hunar ta'limi tizimida bilim olishni davom ettiradilar. Germaniya hunar ta'limi tizimi turli tipdagi o'quv yurtlari va o'qitishning turli shakllariga ega. Eng ko'p tarqalgan va rivojlangan shakli hunar ta'limining —Dual tizimidir. Bu tizimda tayanch maktablarning 50 foizi va to'liq o'rta maktablarning 16 foizi o'qishni davom ettiradi.

Maxsus hunar bilim yurtlari va o'rta maxsus bilim yurtlariga bu mamlakat tayanch maktablarining 25 foizgacha bitiruvchilari kiradilar. Bu turdagi o'quv yurtlarining bitiruvchilari texnika oliy o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirishlari mumkin. Oliy ta'lim muassasalarining xususiyatlari, cherkov va bundesvegga tegishlilaridan tashqari bo'lgan oliy o'quv yurtlari viloyatlar boshqaruvida bo'ladi. Ularni yerlar bosh rahbari nomidan oliy ta'lim federatsiyasi boshqaradi.

Oliy maktab o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega. Ular qonun doirasida o'z ustavlarini qabul qiladilar Oliy o'quv yurtini shtatdagi rektor yoki bir necha yilga saylanadigan Prezident boshqaradi. Ko'pchilik viloyatlarda talabalar mustaqil ravishda o'z-o'zini boshqaradilar. Oliy o'quv yurtlarida o'qish diplom olish, magistr unvonini olish yoki davlat imtihonlari topshirish bilan yakunlanadi. Shundan keyin o'qishni davom ettirib, doktorlik ilmiy darajasini olish uchun imtihon topshiriladi. Ta'lim sohasidagi siyosat aholining ko'plab qatlami uchun oliy o'quv yurtlari darvozasini keng oshdi. Federatsiya va viloyatlar nemis oliy o'quv yurtlarida chet elliklar o'qishidan manfaatdordir. 1991 yili ular 76000 ni tashkil etgan.

Yevropa mamlakatlari ta'lim tizimida ijtimoiy pedagogikaning xolati. Rivojlangan davlatlarda ijtimoiy tarbiyani amaliy tashkil etish maxsus kasb darajasiga ko'tarilgan. Janubda bu kasb «Ijtimoiy faoliyat» deb yuritiladi. Bizning yurtimizda aholining, umuman jamiyat a'zolarini ijtimoiy muhofazalashga doir qator ishlar amalga oshirilishidan qafi nazar, u bilan shug'ullanuvchi maxsus fan yo'nalishi to'liq shakllanmagan. Ijtimoiy ish jamiyat a'zolarining bir - biriga insoniy munosabatda bo'lishini taqozo etadi. Qadim zamonlarda bu faoliyatning diniy mas'ullik, sahiylik, xayrixoxlik singari qirralari namoyon bo'lgan.

Rivojlangan mamlakatlarda shaxsni insonpavarlik g'oyalari asosida ijtimoiylashtirish kontseptsiyasi asosida faoliyat yuritayotgan maktablar mavjud. Germaniyadagi xolistik maktablarning pedagogik kontseptsiyasi, shvetsiya va Amerikadagi hamda Rossiyadagi «Kichik tumanlar maktabi» («Maktab mikrorayon»)shular jumlasidandir. Shu kabi kontseptsiyalarda maktab insonparvarlik tizimi sifatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy pedagogika va pedagogik sotsiologiya Rossiyada o'tgan asrning 80-yillarida alohida fan sifatida shakllandi. Mustaqil yurtimizda esa uning ma'lum qirralari yoritilgan bo'lishiga qaramasdan bu yo'nalish bo'yicha hali alohida tadqiqot ishlari yuzaga chiqqanicha yo'q. Bu fan har bir jamiyatning, har bir mamlakatning, har bir millatning ijtimoiy hayoti va milliy psixologiyasi bilan bevosita bog'liq, shu nuqtai nazardan mazkur fanni turmush pedagogikasi, deyish ham mumkin.

Turmush shaxsning jamiyatda o'z o'rnini topishini taqozo etadi. Biz ta'lim tarbiya muassasalari va ulardan tashqari, ya'ni har kungi ijtimoiy hayotimiz orqali tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish asosida barkamol, komil insonni voyaga etkazishimiz kerakki, toki biz tarbiyalagan shaxs jamiyatga «kirishib keta olsun». Ular jamiyatdan chetda qolishi mumkin emas. Ma'lum sabablarga ko'ra «jamiyat tan olmagan», «sotsiumga krisha omagan» shaxslarning o'z yo'lini topib ketishi uchun ijtimoiy faoliyat talab etiladi. Ushbu muammo dolzarb kasb etib, Rossiyada 1960-

1970 yillardayoq shunday ijtimoiy - pedagogik faoliyatga yo'naltirilgan mutaxassislarni taylash bo'yicha ishlar olib borildi. Jumladan, sinfdan tashqari muassasalar xodimlari, yotoqxona, maktab klublari xodimlarisingari kadrlar faoliyati olib borishdi.

Qator chet mamlakatlarda esa 1970-1980 yillarda ijtimoiy talab - bu muammoni hal etishning yangi darajalarini vujudga keltirdi. Amaliyotda ijtimoiy pedagogik va yoshlarning yashash komplekslarida, turli yoshdagi xodimlardan iborat birlashialarda ijtimoiy pedagogik tajribalarni to'plash ishlari xamkorligi o'zgardi. SHu asosda ijtimoiy muhitni pedagoglashtirishi jarayoni intensiv tarzda rivojlanib bordi. Lekin bu boradagi kadrlar masalasi muammo bo'lib qolaverdi. Buning ustiga tarbiya ishlari bilan faqat maktab, bog'cha kabi ta'lim - tarbiya maskanlari shug'ullanadi, - degan fikr jamiyat a'zolari ongida o'rnashib qolgan. Demak, ta'lim tarbiya bilan shug'ullanuvchi fanlar va o'quv muassasalaridan farqli o'laroq Ijtimoiy pedagogika va pedagogik sotsiologiya ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalari bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham u juda ko'plab fanlar bilan uzviy bog'liq. Ularning asosiylari quyidagi jadvalda aks ettirilgan. Kelgusida bu jadval ilmiy izlanishlar va o'quvchi - talabalar taklifiga binoan to'ldirib boriladi.

Rossiya pedagogikasida ijtimoiy pedagogikaga oid ilmiy izlanishlar. Rossiyada ijtimoiy [pedagogika rivojlanishi fan sohasi sifatida ham va professional amaliy faoliyat sohasi sifatida ham va o'quv fani sifatida o'z xususiyatlariga ega. Ijtimoiy pedagogikaning mustaqil fanga ajralib chiqishida shart-sharoitlarni 19 asrning K.D.Ushinskiy, L.N.Tolstoy kabi mashxur pedagoglar va boshqalar asarlarida topish mumkin. 19 asrning 20-30 yillarida A.S.Makarenko, S.T.Shatskiy kabi pedagoglar faoliyatlarida yetuk bo'lib qolgan bolalarga ijtimoiy-pedagogik yordam ko'rsatishga qaratilgan edi. Lekin 30-yillardan keyin Sotsializm g'alaba kozongani e'lon qilingandan keyin hamma ijtimoiy muammolar ikkinchi darajali bo'lib koldi. Ularni o'tmish qoldiqlari deb atab ular haqida gapirmaslikka harakat qilindi. XX asrning 90 yillarida Rossiyada ijtimoiy psixologiya'ning rivojlanishining yangi davri boshlandi. Ular bu yillarda "Yukoridan" imperativ (lotincha imperativus) farmon, ya'ni etirozlarni qabul qilmaydigan, tankidga yo'l qo'yilmaydigan bo'ldi. Bu ijtimoiy psixologiya'ning ilmiy va amaliy sohalari bilan bir vaqtda bir-biridan ajralgan xolda rivojlanishiga olib keldi. Amaliyot fanga tayana olmadi, chunki fan ham amalda yo'k edi, fan haqida xech narsani bilib bo'lmas edi, chunki amaliy faoliyat endigina shakllanar edi. Bu ijtimoiy pedagogikaning okuv fani sifatida tashqil topishida ham tasirini ko'rsatdi, bu ham ijtimoiy pedagogik faoliyat va fan rivojlanishi bilan bir vaktida sodir bo'ldi. Faning va amaliyotning tashqil topganligi "ijtimoiy pedagogika" fanida bugungi kunda hamko'plab hal qilinmagan, tortishuvlar masalalari bor. Bu obektiv xolatlar ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida rivojlantirishini sekinlashtiruvchi omillar

hisoblanadi. Lekin amaliyot talablari Rossiyada shunchalik jiddiy va dolzarb ediki, natijada fanning bu sohasi bilan ko'plab ilmiy jamoalar shug'ullana boshladilar. Rossiya ta'lim akademiyasi ijtimoiy pedagogika markazi, ijtimoiy ta'lim Akademiyasi Moskva, Sankt-Peterburg, Tula, Yekaterinburg va boshqa shaharlar pedagogik Universitetlarida "ijtimoiy pedagogika" fakultetlari tashqil etildi. V.G.Bocharova, M.A.Galagizova, A.V.Mudrik kabi va boshqa olimlar ijtimoiy pedagogika bo'yicha nazariy tadqiqotlar olib boradilar. Ijtimoiy pedagogika bilan bir vaqtda XX asr 90 yillarida Rossiyada ijtimoiy ishlar instituti kritildi. Ijtimoiy ishlarning vazifasi aholining ijtimoiy himoyalangan qismiga yordam ko'rsatish bo'lda. Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ishlarning rivojlanish tarixi bir biriga juda yaqin. Birinchi navbatda ularning madaniy tarixiy an'analari, alohida g'amxurlik va e'tiborini talab qiluvchi odamlarga munosabatlari ularni birlashtiradi. "Mehribonlik", "Xayriya", "Yordam ko'rsatish" va boshqa tushunchalar ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ishlarda keng foydalanish bejiz emas.

Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy pedagogikaning ilmiy va nazariy asoslari. Ijtimoiy pedagogika o'z faoliyatida davlat darajasiga chiqadi va o'z sheriklari bilan birga talablarini qonuniy rasmiylashtirishga erishadi. XIX asrning 60-70 yillarida Germaniya, Angliya, AQSHda ijtimoiy qonunchilik tizimlari yaratiladi. Ijtimoiy pedagogika rivojlanishining barcha yo'nalishlari uning eng asosiy vazifasini-bolalarning huquqlarini himoya qilishni birlashtiradi.

O'rta asrlar davrida ta'lim va tarbiya tizimi aniq ifodalangan tabaqaviy-ideologik xarakter kasb etgan bo'lib, u din va cherkov tomonidan belgilanar edi. Ammo, feodalizm tuzimining yemirilishi va Uyg'onish davrlarida gumanizm ideologiyasi va odamning tabaqaviy qaramlikdan ozod bo'lish g'oyalari qaror topa boshlaydi.

T. Mor o'zining «Utopiya» nomli kitobida, T. Kompanella esa «Quyosh shahri» nomli asarlarida endi tabaqalanmagan ta'lim va tarbiya g'oyalarini ilgari surib, erdagi xayotni yagona qimmatga ega bo'lgan narsa deb hisoblaydilar.

Yangi davrda burjuaziya tartib-qoidalari o'rnatila borgan sari hamda odamning bilish va tajriba – amaliy faoliyati ijtimoiy rivojlanish omili sifatida anglana boshlangach, Platonning odamga «beshikdan – qabrgacha» ta'lim berish kerak degan g'oyasi qayta tiklanadi va pragmatik tarbiya kontseptsiyasi vujudga keladi. Yq. A. Komenskiyning pedagogik asarlarida har bir odam tomonidan butun umri davomida uzluksiz tarzda pansofiyan (hammani hamma narsani bilishi) egallashi lozimligi haqidagi kontseptsiya rivojlantiriladi. D. Lokkning «Tarbiya haqida fikrlar» nomli asarida endi dunyoga kelayotgan burjua qadriyatlari tizimiga muvofiq bo'lg'usi jetelmenni o'qitish va tarbiyalash dasturi taqdim etiladi.

Ma'rifat, ma'lumot asri deb nomlangan XVIII asrda jamiyat a'zolari ongiga ta'lim va tarbiya jamiyat rivojlanishida yaratuvchi –o'zgartiruvchi omil deb singdiriladi.

Ozodlik, tinchlik, birodarlik kabi qadriyatlarga muvofiq tarzda odam rivojlanish vositasi emas, balki doimo uning maqsadi bo'lmog'i lozim, deb uqtiriladi.

Mana shunday g'oyalarga muvofiq tarzda erkin tarbiya kontseptsiyasi faol rivojlantirila boshlanadi. Yangi nasldagi odam zotini «yaratib», shular orqali jamiyatni qayta o'zgartirish g'oyasi ilgari surildi. Ulug' Frantsuz burjua revolyutsiyasi davrida mamlakatda tabaqalanmagan umumta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan bir qator reformalar amalga oshirildi. SHu sababli ham Frantsiyada XVIII asrning oxiriga kelib 59% aholi savodli edi.

XIX asrda fabrika va zavod ishlab chiqarishining rivojlanishi, Evropada sodir bo'lgan bir qator urushlar, ishchi va dehqonlarning revolyutsion chiqishlari, milliy ozodlik harakatlari va boshqa ko'plangan voqea hamda omillar madaniyat va ta'lim – tarbiya sohasida demokratik tendentsiyalarning joriy etilishini muqarrar qilib qo'ydi. Endilikda jamiyatning olg'a siljishi nafaqat xukmron sinf vakillarining, balki xalqning barcha qatlamlarining ma'lum darajada ma'lumotisiz mumkin bo'lmay qoldi. Lekin, o'sha davrda ham ta'limning asosan shunday shakl va darajalari rag'batlantirildiki, toki ular xukmron sinflarning yashashiga tuskinlik qilmasin...

Turli xildagi pedagogik loyihalar va tizimlar, xuddi R. Ouenning ta'lim kompleksi kabi davlat tomonidan qo'llab – quvvatlanmadi hamda erkin bozor raqobati sharoitida boshidanoq katta qiyinchiliklarga duch keldi va mag'lubiyatga uchradi.

G.Kershenshteyner «Fuqaroviy tarbiya» kontseptsiyasini ilgari surdi. SHunga ko'ra xalq «mehnat» maktabi davlatga so'zsiz bo'ysinuvchi o'quvchilarni tarbiyalashi, har bir bola o'zining ijtimoiy kelib chiqishiga qarab bo'lg'usi kasbiy faoliyatga tayyorlanmog'i lozim edi.

Mana shunday turlicha kontseptsiyalar, pedagogik yondashishlar ham pedagogika fanini olg'a qarab rivojlanishida ma'lum darajada progressiv rol o'ynadi.

Ingliz faylasufi va pedagogi Robert Ouenning ijtimoiy pedagogik faoliyati bir qancha qiziqarli va sermaxsul tajribalardan iborat. Nyu-Lenarkda “Inson xarakterini tuzishni yangi instituti”ni ishchilarning turmush darajasini yaxshilash uchun yaratib, u amaliyotda ishlab chiqarish ta'limini madaniyat bilan bog'lab qo'ydi. Jaxonda ilk marta didaktik o'yinlar o'tkaziladigan, bolalarning jismoniy holati haqida gamxo'rlik qiluvchi muassasalar u tomonidan tuzilgan.

Ingliz faylasufi Gebert Spenser (1820-1903 y) oilaning shaxs shakllanishidagi o'rni haqidagi ijtimoiy pedagogik g'oyalar bilan to'ldirilgan asarlar yaratgan.

XIX asrning 2 – yarmida «Nemis o'qituvchilarining otasi» hisoblangan Adolf Disterveg (hozirgi kunlarda voyaga yetmagan yoshlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar deb atalmish) hamma narsadan mahrum etilgan nochor va qarovsiz qolgan, boshpanasiz bolalar tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan

jinoyatlarni oldini olish uchun olib boriladigan pedagogik faoliyatni belgilash, ko'rsatish uchun «ijtimoiy pedagogika» so'z birikmasini taklif etgan edi. XX asr boshlarida esa mashxur nemis faylasufi Paul Natorp jamiyatning barcha tarbiyalanuvchi kuchlarini bir butun, yaxlit holga keltirish (birlashtirish) g'oyasini o'rta tashladi. Bundan ko'zlangan maqsad xalq orasida madaniyat va maorifni keng tarqatish, umumpedagogik ma'lumot berish edi. SHuningdek, u tarbiyalovchi ittifoqlar, ya'ni – «fuqoralar ittifoqi» ni tuzishga chaqirdi. Ushbu ittifoqlar uning fikricha yuqorida aytilgan rejalarni amalga oshirmog'i lozim edi. Mana shu faoliyatlarning barchasini u ijtimoiy pedagogika deb atadi.

Xorijda Ijtimoiy pedagogika rivojining ikkinchi davri nechanchi asrga to'g'ri keladi?

6 – MAVZU: O'ZBEKISTONDA IJTIMOY PEDAGOGIKANING RIVOJLANISH TARIXI.

1. Ijtimoiy pedagogika tushunchasi, Mustaqillik davrida ijtimoiy pedagogikaning pedagogika fanlar soxasidagi tutgan o'rni.
2. Ijtimoiy pedagogik tadqiqotlar va ularni amalga oshirishda olib borilgan sa'y-xarakatlar.
3. “Qur'oni Karim”, “Xadisu sharif”larda ijtimoiy pedagogik g'oyalarning o'rni va ahamiyati.
4. O'zbek xalq pedagogikasida ijtimoiy pedagogik jarayonlarni rivojlanishi va bugungi kundagi ahamiyati.

Tayanch tushunchalar: xalq pedagogikasi, ta'lim-tarbiya masalasi, etnografiya, islom dini, hadislar, ijtimoiy-pedagogik g'oyalar. O'zbek xalq pedagogikasi, ta'lim-tarbiya masalasi, inson modeli, islom dini, hadislar, ijtimoiy-pedagogik fikrlar.

Ijtimoiy pedagogika fan sifatida respublikamiz mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng o'qitila boshlagan bo'lsada, ijtimoiy tarbiya, ijtimoiy faoliyat, ijtimoiy himoya ko'rinishida qadimiy ildizlarga ega. Ilk diniy-falsafiy (Avesto) va adabiy (Alpomish, Go'ro'g'li) manbalarda biz insonning ijtimoiy kelib chiqishi nuqtai nazaridan pedagogik qarashlarning aks etganini ko'ramiz. Keyinchalik VI-VII asrlarda Markaziy Osiyo hududida islom dinining tarqalishi yangi ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni olib keldi. Ular mintaqada oila va jamiyat tarbiyasiga ta'sir ko'rsatdi. Markaziy Osiyoning arab halifaligi tarkibiga kirishi madaniy almashinuv, fikr va qarashlarning erkin kurashi, o'zaro munosabatlarning shakllanishiga olib keldi. Moddiy barqarorlik, ishlab chiqarish hamda savdo rivoji ehtiyojlariga asoslangan yangi ijtimoiy-iqtisodiy holat ma'naviy va madaniy hayotning yuksalishiga, dunyoviy ilm va fanlarning gullab-

yashnashiga, fors, arab, qadimgi yunon madaniyati yutuqlarini o'zlashtirishga yordam berdi.

O'rta Osiyo qomusiy olimlarining ijtimoiy pedagogik g'oyalari.

Ijtimoiy pedagogik g'oyalar va nazariyalarning shakllanishida SHarq uyg'onish davri olimlarining asarlari beqiyos o'ringa ega. Ular faoliyatining mohiyati shuki, mavjud bo'lgan o'sha davrni ijtimoiylashtirish usullari ilmiy asarlarining asosiga singdirilganidadir. Yetuk olimlarning faoliyat xarakteri - ilm bilan mashg'ul bo'lishi ijtimoiy pedagogik qarashlarning mazmuniga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Buyuk olim Al-Xorazmiy (783-850 y.)ning asarlari yorqin didaktik xarakterga egadir. U savol-javob metodi orqali bilimlar qo'lga kiritilishini, bu jarayonda shaxs boshqalar bilan munosabatlarga kirishishini va jamiyatning faol a'zosiga aylanishini ta'kidlagan.

Al-Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek kabi olimlar o'z ilmiy va pedagogik faoliyatlarida rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi va ta'lim beruvchi ta'sir kuchlarini o'sib kelayotgan avlodga qaratish g'oyasini tushunishgan va buni tadbiq etishgan. Bu avvalambor ular ta'limning maqsadi hayotga tayyorlash, axloqiy norma va qoidalar, kasbiy malakalar va chuqur bilimlarga ega bo'lishida deb bilganliklarida namoyon bo'lgan.

Buyuk qomusiy olim Abu Rayxon Beruniy (973-1050 y.) ta'lim jarayonida qo'llaniladigan ilmiy usullarni ishlab chiqqan. U shuningdek, ta'lim tamoyillarini ham tasniflagan. Uning pedagogik qarashlarining ijtimoiy yo'naltirilishi u axloqni ijtimoiy xususiyatlar va hissiyotlarning ifodasi sifatida tushunganligida o'z ifodasini topgan. Olimning tarbiya, shaxsning shakllanishida va jamiyatdagi amaliy faoliyat uchun ilm va mehnatning ahamiyati haqidagi g'oyalari hozirgacha muhimligini saqlab qolgan.

Buyuk qomusiy olim Abu Ali ibn Sino (980-1037 y) o'z davrining barcha bilim sohalarini qamrab oluvchi katta ilmiy meros qoldirgan. Uning barcha asarlarida pedagogik qarashlar mavjud. Uning bilim, iroda va insonning rivojlanish jarayonidagi maqsadga intiluvchanligi, atrof- muhit ta'siri, axloqiy va mehnat tarbiyasi, muomala san'ati, bolalarni jamoada o'qitish haqidagi g'oyalari muhim hisoblanadi.

Forobiy, Beruniy ta'lim muammolari bo'yicha fikrlar bildirishgan va insonning jamiyatga sermahsul xizmat qilishi uchun o'z aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik va mehnat qobiliyatlaridan samarali foydalanish imkonini beruvchi ta'lim vazifasini ajratib ko'rsatganlar. Ta'limning rivojlatiruvchi vazifasini amalga oshirish maqsadida ular quyidagi didaktik tamoyillardan foydalanishni maslahat berganlar:

- ✓ asta-sekin tushunchalarning murakkablashuvi;
- ✓ amaliyotni tajriba bilan bog'lash;
- ✓ qabul qila olishlilik;
- ✓ ko'rgazmalilik.

Ibn Sinoning fikricha, ijtimoiylashtirish ko'nikmalari jamoa bo'lib o'qitish shaklida yaxshishakllanadi. Buning uchun u quyidagilarga asoslanishi lozim:

1. Ta'lim oluvchilar, o'qituvchi va o'quvchilar orasida tajriba, bilim, ma'naviy va axloqiy qadriyatlar almashinuvini tashkil qilish.
2. Musobaqalashuv elementidan foydalanish.
3. O'quvchining ijtimoiy axloqiy xususiyatlarini-muomala, o'zaro tushunish, o'zaroyordam, do'stlik hissini rivojlantirish.

Buyuk olimlarning pedagogik qarashlari va faoliyatlarining ijtimoiy pedagogik yo'naltirilganligi, ularning avvalambor hayotga har tomonlama tayyorlash hisoblangan ta'lim maqsadini sharshlashlarida o'z ifodasini topgan. Shaxsning jamiyatda o'z o'rnini belgilab olishini ta'minlab beruvchi eng muhim xususiyatlar deb, ular mehribonlik, yaqinlarga yordam, g'urur, vijdon, yaxshi niyatlilik, sabrni bilishgan. O'quvchilarning har tomonlama intellektual va mehnat tayyorgarliklariga katta e'tibor qaratib, Forobiy va ibn Sino yoshlarning jamiyatga "kirish"larining eng muhim omillari sifatida, faollik, mustaqil tashabbuskorlik, intiluvchanlik, qiziquvchanlik, ijodiyqobiliyatni ko'rsatib o'tishgan.

Forobiy ijtimoiy tarbiyada o'qituvchiga yetakchi o'rin ajratib, uning faoliyatini - jamiyatning kelajagi unga bog'liq bo'lgan hukmdor faoliyatiga qiyoslaydi. Forobiy ham ibn Sino kabi ustoz va o'qituvchilarning bilimlarini hayotga tadbiq etishlariga e'tibor berish lozimligiga ishora qilgan.

Qomusiy olimlar shaxsiy namunaga nihoyatda katta e'tibor berishgan hamda o'zlari ham intiluvchanlik, yuqori ijtimoiy mavqega erishganlik namunasi bo'lib xizmat qilishgan. Forobiy nihoyatda mehnatsevar, irodali, kamtar, sodda bo'lgan va doim yordamga intilgan. Forobiyning o'quvchilarning individual psixologik va aqliy xususiyatlariga mos tushuvchi ta'limning ustuvorligi, kasb tanlash muhimligi haqidagi fikrlari hozir ham katta ahamiyatga ega.

Tarbiyaning ijtimoiy xarakteri haqidagi g'oyalar Alisher Navoiyning adabiy merosida nihoyatda aniq ifodasini topgan. SHoirning pedagogik qarashlari insonparvar xarakterga ega. Inson egallashi lozim bo'lgan barcha bilim va kasb-hunarlar u tomonidan Vatan foydasi uchun qo'llanilishi kerak.

XI-XII asr Markaziy Osiyo ma'rifatparvar olimlari turli fanlar, shu jumladan pedagogikaning rivojiga katta hissa qo'shishdi. YUsof Xos Hojib, Burxoniddin Zarnujiy va Ahmad YUgnakiylar bolalar jamiyatda o'z o'rnini topishida bilim, ota-ona, oilaning o'rnini alohida ajratib ko'rsatadilar. Ular tarbiyaning asosiy maqsadi deb, komil insonni tarbiyalash, unga yetishish vositasi deb esa qattiqqo'llik, doimiy mehnatga o'rgatish deb bilishgan. Zarnujiyning "Ta'limda o'quvchiga

pandlar” kitobi YUsuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asari Markaziy Osiyoda pedagogikadan birinchi kitoblar hisoblanadi.

O’rta Osiyo olimlari tomonidan tarbiya va ta’limning ijtimoiy o’rnini tushunishlari shunda namoyon bo’ldiki, ular ijtimoiylashuvning mikroomillar-muhit, oila, o’quvchilar guruhiga e’tibor karatganlar va ota-onalar, pedagog va o’quvchining harakatlarini mujassamlashtirish kerakligini ta’kidlaganlar.

Shunday qilib, o’rta asr olimlari ijtimoiy pedagogika sohasida katta meros qoldirganlar. Ularning ilmiy pedagogik asarlari zamonaviy ijtimoiy pedagogika ilmini rivojlantirish uchun muhim manba hisoblanadi.

Alisher Navoiy, Forobiy, Ibn Sinolarning falsafiy va pedagogik kontsepsiyalari keyingi davrlarning yetakchi ta’limotlarini rivojlantirish uchun asos bo’lib xizmat qilgan.

Islom tavqidlilik dini, ya’ni uning mazmuni yagona xudo — Ollohga.:IYmon keltirishdir. Budinningasoschisi Muqammad s.a.v. (570—635) musulmonlar tomonidan payg’ambar, ya’ni Allohning elchisi, deb e’zozlanadi. Islom dinining muhaddas kitobi — Qur’oni Karimdir.

Qur’on matni VII asrda yozilgan. Xalifa Usmon davrida Qur’ssh yagota kitob shakliga keltirilgan va uning boshqa barcha matnlari yo’q qilingan. Qur’on 114 suradan yaborat, Oddiy musulmon Qur’onning murakkab suralarink faqatgina tafsirlar orqali. tushunishi mumkin. Engmashhur tafsirlar At-Tabariy, Zamahshariy, Baydoviy, Fahriddin, ar-Roziy, al-Qurtubiyga tegishli. Natijada sunna -- Qur’onning mazmunini tushunishini boshqarish yaratilgan. Sunna oila, urug’, qabila a’zolari orasidagi munosabatlarini tartibga keltirgan bo’lib, yozilmagan axloqky qoidalar sifatida ham qullanilgan. Sunna hadis shakliga ega. Hadislarni yig’ish, ularni ajratishga ko’p olimlar o’z umrlarini bag’shplaganlar. Islomga muvofiq Qur’on barcha musulmonlar bo’ysunishlari lozim bo’lgan muqaddas kitobdir.

VI asrning o’zidayoq islom insonning ijtimoiy huquq va erkinliklarini e’lon qildi. Bu erkinliklar inson hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan edi. SHariatning huquqiy qadriyatlarini ijtimoiy tavsifga ega va quyidagi tamoyillarga asoslangan adolatli jamiyatni ifodalaydi:

- jamiyatning barcha a’zolarining irqi, tili va diniy mansubligidanqatiy nazar tengligi;
- jamiyat barcha a’zolarinkng teng mas’uliyalta egalikdari, chunki ular bitta manbadan kelibchiqqanligi;
- inson qaeti va erkinligi tengligi;
- oila jamiyatnmng asosidir: jamiyat oilani o’z qimoyasiga oladi vaunga g’amxo’rlik qiladi;
- boshqaruvchi va boshqariluvchilariningtengligi;

- yagona Olloh barcha narsaning egasi va u tomonidanyaratilgan ne'matlar barcha mavjudot va maxluqotlarga uning hadyasidir. Har bir inson bu hadyadan uz ulushini olishga haqli; xalq va jamiyatga tegishli barcha siyosiy, ijtimoiy va boshqa masalalar xalq bilan maslahatlashib hal qilinishi lozim; o'zining dunyoviy ishlari uchun har bir kishi jamiyat oldida, ma'naviy hayotga tegishli ishlari uchun esa faqatgina Olloh oldida javob beradi;

Hadislarda islom dinidagi eng muhim insoniy huquqlar sifatida quyidagilar kafolatlanadi:

- yashash huquqi, o'limdan so'ng esa janoza o'qilishiga ("Agar birortangiz birodaringizni kafanlasangiz, bu ishni hurmat va mehr bilan qiling", "o'liklarni urishmang, ular o'tmishlarini tugatishdi"); erkinlik huquqi, ("siz qachon odamlarni qulga aylantirdingiz. Axir, ular ozod tug'ilishgan edi-ku?"); tenglik huquqi, ("arab boshqalardan, boshqalar esa arabdan ustun emaslar, qora sariqdan, sariq esa qoradan ustun emas. Ustushshkka sazovor bo'lgan inson ustundur"); bunday insonparvar fazilatlarni islom dini tayanadigan beshta asosda ham ko'rish mumkin:

Iymon - Allohdan boshqa iloh yo'q va Muhammad(s.a.v.) uning rasuli; Salavot - musulmon kuniga besh mahal bajaradigan ibodat — namoz;

Zakot — rahmdillik. Beruvchi insokning munosabati u berayotgan miqdordan muhimrokdir;

Ro'za, ramazon musulmonlar uchun muqaddas oy. CHunki aynan shu oyda Muhammad (s.a.v.)payg'ambar bo'lganlar;

Haj — har bir imkoni bor musulmon Makkaga haj safari uyushtirishi lozim.

Tarbiyaviy vositaga ega bo'lgan Qur'on oyatlari muhim ahamiyatga ega. Ularda ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabat, bolalarni tarbiyalayotgan ota-ona nimaga intilishi kerakligi, shuningdek, ular erishmoqchi bo'lgan maqsadlar aniq belgilab ko'yilgan.

Qur'on musulmonlarning hayot mazmuni va maqsadi qaqidagi qarashlariga kagga ta'sir ko'rsatgan va uning g'oyalari musulmon halqlarining madaniyatidan chuqur joy olgan bo'lib, xalq pedagogikasi manbalari: maqol, rivoyat, ertaklar va boshqalarga har tomonlama ta'sir ko'rsatgan.

O'sib kelayotgan avlodning tarbiyasi va ijtimoiy jarayonlarga moslashuvida bilim, unga munosabat masalasi doimiy muammo hisoblanadi. Bu muammo zamonaviy sharoitda yanada keskin ko'rinish kasb etmoqda. Bir tomondan, iqtisodiy hayotda ro'y berayotgay jarayonlar shunga olib keldiki, bidimsiz odamlar katta pul topadigan bo'dishdi. Ularning topganlari bilan ziyodilarning maoshini tenglashtirib bo'lmay qoldi. Buning hammasi yoshlarnvdg bklm olishga qiziqishini pasayishiga sabab bo'lmoqda. Ularga bilim olish moddiy va ma'naviy muvaffaqiyat garovi bo'lib tuyulmayapti. Boshqa tomondan esa, bozor

munosabatlari va unga bog'liq bo'dgan texnikaning doimiy yangilanishi, korxonalar o'rtasidagi raqobat, ishsizlik yoshlardan nafaqat chuqur bilimlar, balki ularning doimiy yangilanib gurishini ham talab qiladi.

Ana shunday sharoitda Qur'oni karim yoshlarni bilim achishga da'vat etuvchi muhim manba vazifasini bajaradi. Ma'lumki, Quronda "ilm" so'zi 750 marta uchraydi. Agar Qur'on 780000 so'zdan iboratligini inobatga olsak, "ilm" so'zi muqaddas kitobning 1/104 qismini tashkil qilishini ko'rishimiz mumkin.

Qur'on inson bilimlarini ikkiga ajratadi: diniy va dunyoviy. Diniy bilimlar dunyo asoslarini, dunyo yaratilishini bilishga qaratilgan bo'yaib, bilimning bu turi - inson etishishi mumkin bo'lgan engoliy cho'qqidir.

Qur'onda inson ega bo'lishi mumkin bo'lgan dunyoviy. bilim haqidagi oyatlarni uchramizki, bunda dunyoviy bilimlarga inson tanasining uch a'zosi — ko'z, quloq va yurak orqali erishish mumkinligi ta'kidlanadi.

Bilimning holatlaridan tashqari, Qur'on bilim rivojlanishining dialektik, dinamik jarayonlarini va inson tomonidan o'zlashtirilishini ham qayd etadi. Buning hammasi mazkur manbada bu holatga alohida e'tibor berganlaridan dalolat beradi. Shuningdek, bilim olishga intilish hadislarida ham o'z ifodasini topgan. Islomshunos olim F.Rouzental to'liq hajmda Imom Buxoriyning "as-Sahih" asarini tahdil qilib chiqqan va ulardagi bilim bilan bog'liq quyidagi g'oyalarni ko'rsatib o'tgan:

- bilim talab qilish jannatga yo'l ochadi;
 - bilim faqatgina o'qish orqali qo'lga kiritiladi;
 - inson rahbar bo'lishidan oldin bilimli bo'lishi kerak;
 - ayollarni o'qitishga ruxsat berilgan;
- Muaffaqiyatga erishish uchun akddan tashqari sabr ham talab qilinadi;
- insonni farishta darajasiga ko'taruvchi — bu xislatdir. Undan mahrum bo'lgan kishida asl sevgibo'lishi mumkin emas. Ichkilikbozlik, fahsh, zino - buning hammasi irodasizlikdir. Bunday insonlar atrofdagilarga, o'z xalqiga zarar keltiradi;
 - chuqur fikr yuritish — insonning aqliy voyaga etganlik alomaygidir;
 - kim o'z o'tmishini yo'qotsa — uning kelajagi yo'qdir. Qariyalarning hikmatlarini unutgan yosh avlod iymonni ham unutadi va shunda yovuzlik yaxshilik ustidan galaba qozonadi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Hadislarda Islom dinidagi eng muhim insoniy hu'quqlar sifatida nimalar kafolatlanadi?
2. Islom dinmda inson ega bo'lishi lozim bo'lgan dunyoviy bilim

haqida nimalar deyiladi?

3. Islom dinidagi shaxs ijtimoiylashuviga oid qarashlarni izohlang.
4. Hadislarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatini bayon eting.

7 – MAVZU: TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDAGI IJTIMOIIY-PEDAGOGIK DOLZARB MUAMMOLAR.

REJA:

1. Pedagogika fanining dolzarb muammolarining nazariy asoslari.
2. Ta'lim-tarbiya jarayonidagi sifat ko'rsatgichining dolzarblik asoslari.
3. Insonning intellekti va kasbiy yetukligiga erishish muammolari.

Tayanch so'z va iboralar: pedagogika, psixologiya, ta'lim, tarbiya, metod, texnologiya, bilim, malaka, ko'nikma, uzluksiz ta'lim, uzviylik, akmeologiya, aksiologiya, qadriyat, texnologiya, pedagogik texnologiya, modulli o'qitish, faoliyatlilik tamoyili, kredit, modulli kredit tizimi, an'anaviy va noan'anaviy ta'lim

Respublikamiz mustaqilligining yigirma to'qqiz yillik rivojlanish davrida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish va zamonaviylashtirish shiddat bilan olib borilmoqda. Shu bilan birga, jamiyatimizga yuksak professional kadrlar tayyorlash masalasi pedagoglardan o'quv mashg'ulotlarining yangi shakllarini izlab topish, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, o'quv jarayonini samarali tashkillantirish va shu orqali oliy o'quv yurtlarida talabalarining fanlardan o'zlashtirish darajasini yanada oshirish maqsadini amalga oshirishni talab qilmoqda. Ana shunday o'qitish usullaridan biri bugungi kunda bizga ma'lum bo'lgan pedagogik texnologiya usulidir. Ammo so'z ta'lim texnologiyasini qo'llash jarayonida o'z talabalarining u yoki bu fanlarga individual imkoniyatlarini birgalikda loyihalash jarayonida olingan natijalar oldimizda turgan muammolarni tanqidiy tahlil qilish orqali, nostandart yechimlarni topish kabi masalalami ishlab chiqishga yondashish ustida ketadi. Shu bois, texnologiyani qo'llash pedagogning tejalgan vaqti, ta'lim olayotgan o'quvchilarining mutaxassislik malakalarini yanada oshirishlarida juda zarur bo'lgan shaxsiy muloqotlari uchun asqotadi.

Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy va ma'rifiy sohalarida amalga oshirilayotgan modernizasiyalash jarayonlari uzluksiz ta'lim tizimiga ham bevosita ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu o'z navbatida, zamonaviy ta'lim muhitining muhim tavsifi hamda shaxs imkoniyatlari muvaffaqiyatli amalga oshirilishining sharti sifatida ta'lim paradigmalarini takomillashtirish, uning tarkibiy qismlari funksional va konseptual muammolari yechimini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimi ijtimoiy sohalar hamda iqtisodiyot

tarmoqlarini modernizasiyalash sharoitida muhim ijtimoiy institutlardan biri sifatida ta'limiy, tarbiyaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy funksiyalarni bajarmoqda. Ularning muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlash uchun o'quvchilarda ijodiy va mustaqil fikrlash, kasbiy yetuklik va yuksak ma'naviyatni shakllantiruvchi pedagogik shart-sharoitlar yaratilishi lozim.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida o'quvchi shaxsini uzviy rivojlantirish muammolari:

- uzluksiz ta'lim tizimida shakllantirilayotgan bilim va ko'nikmalar hamda jamiyatning ijtimoiy, fan va texnologiyalar taraqqiyoti darajasi qo'yadigan talablar o'rtasidagi nomutanosiblik;

- ta'lim jarayonida o'quvchilar egallaydigan bilim va ko'nikmalar hamda mutaxassis sifatida faoliyat ko'rsatish uchun talab etiladigan kasbiy ko'nikma va malakalar tarkibi o'rtasidagi nomuvofiqlik;

- o'quvchi shaxsini shakllantirishdagi ta'lim va tarbiya maqsadi, mazmuni, **metodlari**, vositalari, tashkiliy shakllarini o'zida mujassamlashtiruvchi pedagogik tizimning barcha tarkibiy qismlari o'zaro aloqadorligi, muvofiqligi hamda istiqbolga yo'naltirilganligi, uzviyligi ta'minlanmaganligi;

- o'quvchilarda o'sib borayotgan axborotlar hajmi bilan ishlash, mustaqil tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish asosida ular faoliyatini intensivlashtirishning dasturiy va metodik ta'minoti ishlab chiqilmaganligi.

Uzluksiz ta'lim tizimida har tomonlama yetuk, ijodkor shaxsni tarbiyalash, o'quvchini uzluksiz rivojlantirish uchun ta'lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarida pedagogik tizimning tarkibiy qismlari o'zaro aloqadorligi, muvofiqligi hamda istiqbolga yo'naltirilganligini ta'minlash hamda ularni amalga oshirishning didaktik shart-sharoitlarini aniqlashni taqozo etadi.

Kadrlar tayyorlashning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimida uzviylikni ta'minlash milliy dasturda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ustuvor ahamiyat kasb etib, ta'lim tizimining vertikal va gorizontal uzviyligini ta'minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish borasidagi ilmiy tadqiqotlarni jadallashtirishni talab qiladi.

Ta'lim uzluksizligini ta'minlashning bosh g'oyasi o'quvchi shaxsining ta'lim sub'yekti sifatida izchil rivojlanib borishi bilan bog'liq. Kadrlar tayyorlashda bu g'oya rivojlantirilib, shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'yekti va ob'yekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi sifatida e'tirof etilgan. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlarida shaxsning rivojlanishi uzluksiz jarayon sifatida qaralib, unda o'quv jarayonining faqat bilish emas, balki o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy talqin qilishni nazarda tutuvchi rivojlantiruvchi ta'lim g'oyalari bilan uyg'unlashgan. Bu esa axborot berishga asoslangan o'qitishdan shaxsga yo'naltirilgan ta'limga, xotiraga asoslangan o'qitishdan faol

o'zlashtirishga asoslangan o'qitishga o'tilishini belgilab berdi.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimini ishlab chiqishda milliy ta'lim modeli ilmiy yondashuvining o'ziga xos xususiyati shundaki, uzluksiz ta'lim tizimi yaxlitlik, uzviylik va uzluksizlikda, ya'ni bir butun tizim shaklida qaraladi. Uzviylik va uzluksizlik ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri sifatida belgilanib, pedagogika nazariyasida uni ifodalovchi tizimlilik va izchillik ta'limning metodologik asosini tashkil qilishi bilan birga didaktik prinsip sifatida ham alohida qayd etilgan. Ta'limning uzviyligi – ta'lim mazmunining tizimliliigi, izchilligi va mantiqan bog'liqligi ta'minlanishini, o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlarning keyingi bosqichlarda ko'nikma va malakalarga o'tishiga asos yaratuvchi, ta'limning har bir bosqichida ma'lum darajada bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni ta'minlashni talab qiluvchi didaktik prinsipdir. Uzviylikning mohiyati har bir shaxsga o'ziga mos bilim olish sharoitlarini yaratib bera oladigan ta'limga bo'lgan shaxs va jamiyatning ehtiyojlarini qoniqtirish zarurati bilan belgilanadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim muassasalarida o'quv, tarbiyaviy, boshqaruv hamda investision faoliyat Kadrlar tayyorlashning to'la ijrosini ta'minlashga qaratilgan. Bularning barchasi tuzilmaviy o'zgarishlarni davlat ta'lim muassasalari rivojlanish dinamikasi, uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlashni boshqarishning samarali tartibini joriy qilish, ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini shakllantirishni talab etadi.

Kadrlar tayyorlashning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimida uzviylikni ta'minlash milliy dasturda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ustuvor yo'nalishlarni belgiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi uzluksiz ta'lim tizimi har tomonlama yetuk, barkamol avlodni yetishtirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratadi. Uzluksiz ta'lim deganda – o'quvchi shaxsini uzviy rivojlantirish maqsadida har bir ta'lim bosqichida pedagogik tizimning barcha tarkibiy qismlarining o'zaro muvofiqligi, istiqbolga yo'naltirilganligi tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan biri sifatida uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha ekanligi, ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy barkamol shaxsning shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi, davlat ta'lim standartlariga muvofiq turli darajalardagi ta'lim dasturlarining izchilligi ta'minlanishi va maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy

o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash hamda maktabdan tashqari ta'lim turlarini o'z ichiga olishi ta'kidlanadi.

Pedagogikada ta'limning ilmiy-nazariy, uslubiy asoslari bilan bir qatorda ta'limning didaktik prinsiplariga ham alohida to'xtalib o'tiladi. Ularga ta'limda ilmiylik, tizimlilik va izchillik, onglilik va faollik, bilimlarni puxta va mustahkam o'zlashtirish, o'quvchilarni yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish, ko'rgazmalilik, nazariyani amaliyot bilan bog'liqligi, mustaqillik va erkin fikrlash hamda tafakkur qilish kabilar kiritiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida uzviylik va uzluksizlik fan, ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro uzviyligi; ta'lim mazmuni uzviyligi; bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdagi uzviyligi; o'quvchi shaxsini shakllantirishdagi uzviylik; ta'lim metodlari hamda shakllarini qo'llashdagi uzviylik; o'quvchilar o'zlashtirishini baholashni tashkil qilishdagi uzviylikni ta'minlaydi.

Ushbu talablardan kelib chiqib, umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi o'rtasidagi ta'lim-tarbiya jarayoni Davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari hamda dasturlarni ishlab chiqishda o'zaro uzviylikni ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Bu maqsadda variativ o'quv dasturlari hamda darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratishda umumiy o'rta, o'rta maxsus hamda oliy ta'lim tizimi pedagoglarining hamkorligini takomillashtirish talab etiladi.

Inson bugungi kunda tayyor yechimlar bo'lmagan va berilmaydigan o'zgarib boruvchi muhitda, jamiyatda faoliyat yuritmoqdaki, unda har bir shaxs zarur yechimni o'zi mustaqil topishi va ushbu yechim oqibati uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi talab etilmoqda. Shu sababli ijodkor mustaqil fikrlovchi va qaror qabul qila oluvchi, o'zgalar fikrini tinglab, uni e'tiborga olgan holda xulosa chiqara oluvchi shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim yoshlarni tayyor o'quv materialini o'zlashtirishga emas, balki muammolar yechimini topishga o'rgatmog'i lozim.

Mamlakat iqtisodiyotining uzviy qismi bo'lgan ta'lim tizimini modernizatsiyalash, texnik yangilash va diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Biz ana shu kabi ta'lim texnologiyalaridan yana biri «Akmetexnologiya», ya'ni «Akmeologiya» fanining texnologiyasini sizning e'tiboringizga tavsiya etmoqchimiz.

Zamonaviy pedagogika fanining asosiy tendensiyasi – uning shaxsni «anglash», o'z dunyoqarashiga asoslanishga e'tibor qaratganligidir. Bu esa, zamonaviy pedagogik amaliyotning muhim jihatiga aylandi. Pedagogika va inson amaliyotida insonparvarlik an'analarning rivojlanishi, uning hayotiy faoliyat jarayonida o'z oldiga qo'ygan muhim vazifalarni o'zida aks ettiradi.

Inson hayoti har doim bo'lib o'tgan voqealarni baholash, vazifalarni qo'yish, izlash,

xulosalar qabul qilish, dunyoqarash vaziyatlarida kechadi. Bunda uning atrof-muhit bilan munosabatlari ikkita farq bilan o'zaro bog'lik: amaliy va abstrakt-nazariy (bilish). Bundan kelib chiqadiki, pedagogika metodologiyasi ta'lim falsafasiga haqiqiy insonparvarlikning mohiyati, borliqning yangilanishi va pedagogik bilish haqidagi nazariy qoidalar yigindisi sifatida qaraydi. Bunday metodologiyaga muvofiq, fanlarning, shu jumladan, pedagogikaning insonparvarlik mohiyatidan kelib chiqadigan vazifasi o'zida insonga bilish, muloqot, ijod sub'yekti sifatida yondashishni aks ettiradi.

Bizga ma'lumki, ilmiy bilish, shuning barobarida pedagogik bilish faqatgina ijodkorliknigina emas, ijtimoiy ehtiyojlarni to'la qondirish maqsadini ham ro'yobga chiqaradi. Nazariy va amaliy bilish orasidagi «ko'prik» vazifasini aksiologik yoki qadriyat sifatidagi yondashuv bajaradi.

Aksiologiya (yun. «axyu» - qadriyat va «logos» - fan, ta'limot)- qadriyatshunoslik; kadriyatlar haqidagi fan. XIX asrning ikkinchi yarmida nemis qadriyatshunosi E.Gartman va fransuz olimi P.Lapilar tomonidan fanga kiritilgan.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Pedagogika nima?
2. Pedagogika fanining dolzarb muammolari nima?
3. Akmeologiya nima?
4. Aksiologiya nima?
5. Buyuk allomalarimizning qadriyatlar borasida qarashlari.

8 – MAVZU: IJTIMOIIY PEDAGOGIKANING NAZARIY ASOSLARI.

REJA:

1. Ijtimoiy pedagogika fan va amaliy faoliyat sohasi sifatida.
2. O'quvchi shaxsi kamolot jarayoning ob'ekti va sub'ekti sifatida.
3. Ijtimoiylashuvga ta'sir etuvchi mikro, mezo va makro omillar.

Tayanch so'zlar: ijtimoiy, pedagogika, shaxs, tarbiya, ma'naviy-axloqiy sifat, shakl, qo'llab-quvvatlash.

Ijtimoiy pedagogika fan va amaliy faoliyat sohasi sifatida.

Ijtimoiy pedagogika shaxsni tarbiyalash masalalari, unda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, tang vaziyatlarda qo'llab-quvvatlash, bolani zamonaviy jamiyatga moslashuvida ko'maklashish kabi masalalarga murojaat qiladi. Ijtimoiy tarbiya muammolari xususida M. Quronov, O. Musurmonova, A.V. Mudrik,

V.D. Semyonova, P.D.Pavlenok, G.N. Filova, N.Egamberdieva singari olimlar tadqiqotlar olib borganlar.

Ijtimoiy pedagogika inson va muhitning o'zaro uyg'unligi- mavjud shaxs ta'limi va tarbiyasi, maktab va zamonaviy ta'lim tizimi, kasbiy tayyorgarlik, bolalar va o'smirlarni ijtimoiy himoyalash markazi ishlari kabi muammolarni hal etishga qaratilgan izlanishlar olib boradi.

Davlat o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasidan chetlashgan vaziyatda shaxsni ta'lim olish imkoniyati va qobiliyati, teng ta'lim, umumiy ta'lim muammosi qanday hal etiladi? Ommaviy ta'lim inqirozini yengib o'tishda o'z-o'zini tarbiyalash, ta'lim olish va shakllantirish ustuvor vazifaga aylanadi.

Bugungi ijtimoiy pedagogika bu-jamiatdagi inson, jamiyatda shaxs shakllanishi, shaxsning ijtimoiylashuvi, bolalikning hozirgi sharoitdagi qiyinchiliklari kabilar haqidagi bilimdir. Ijtimoiy pedagog amaliyoti bolaning jamiyatda ijtimoiy-ruhiy barqarorlikka erishishi, yangi munosabatlar xosil qilishiga qaratilgan.

Ijtimoiy pedagogika fanning ma'lum bir soxasi sifatida bir qator bo'limlarni o'z ichiga oladi hamda ijtimoiy ta'limni yaxlit bir butunlikda tavsiflaydi, uni takomillashtirish bo'yicha yondashuvlar va tavsiyalarni ishlab chiqadi. Brainberries

Ijtimoiy tarbiya falsafasi - falsafa, etika, sotsiologiya va pedagogika fanlarining kesishuvi hosilasidir. Unda fundamental metodologik va dunyoqarashga oid masalalar o'rganiladi. Xususan, ijtimoiy tarbiyaning mazmun mohiyati o'rganiladi; ijtimoiy ta'lim va tarbiyaning vazifalari belgilanadi; ma'lum tushunchalar asosida shaxsni shakllantirish, rivojlantirish, ijtimoiylashtirish, korrektsiyalashga umumiy yondashuvlar ishlab chiqiladi; ijtimoiy tarbiya qadriyatlari va tamoyillari aniqlanadi va hokazo (masalan, shaxs ijtimoiylashuvi, ijtimoiylashuvda ta'lim va tarbiya boshqalar).

Ijtimoiy tarbiya sotsiologiyasi - Ijtimoiy ta'lim sotsiologiyasi shaxs ijtimoiylashuvni ijtimoiy tarbiya mazmunining ajralmas tarkibiy qismi sifatida (ijtimoiylashuv va uning omillari) o'rganadi. Olingan bilimlar shaxs ijtimoiylashuvining yo'llari va vositalarini topish imkoniyatini yaratish bilan birga, shaxs ijtimoiylashuviga ijobiy ta'sir etish jihatlarni kuchaytirish va aksincha salbiy ta'sirlarni kamaytirish yoki ulardan butunlay voz kechish imkonini beradi. Ijtimoiy tarbiya sotsiologiyasi tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar jamiyat tarbiyaviy kuchlarini birlashtirish yo'llarini qidirishga asos bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy tarbiya nazariyasi ijtimoiy tarbiyaning funktsiyalarini ta'riflaydi, izohlaydi va bashoratlaydi. Ijtimoiy tarbiya nazariyasi tarbiya falsafasi qoidalari va ijtimoiy-pedagogik viktimologiya ma'lumotlari asosida ijtimoiy tarbiya nazariyasini tadqiq qiladi. Xususan, ijtimoiy tarbiyani amalga oshirishning individual, guruh, ijtimoiy

sub'ektlari va ularning bir-biri bilan qanday bog'liqlikda ish ko'rishi; har bir insonga beriladigan yordamning mazmuni va xarakteri kabilarni tadqiq etadi.

Ijtimoiy tarbiya psixologiyasi – ijtimoiy guruhlar va alohida insonlarning ijtimoiy psixologik tasniflari, ularning turli yoshlardagi xususiyatlarini hisobga olgan holda, ijtimoiy tarbiya sub'ektlarining o'zaro munosabati samaradorligini ta'minlovchi ijtimoiy tarbiya metodikasini tanlaydi va maqsadga muvofiq tashkil etishning yangi usullarini aniqlaydi.

Ijtimoiy tarbiya uslubi - ijtimoiy tarbiyani maqsadga muvofiq tashkil qilishning yangi usullarini ishlab chiqadi.

Ijtimoiy tarbiya menejmenti va iqtisodiyoti bir tomondan jamiyatning inson mablag'iga ehtiyojini, boshqa tomondan ijtimoiy tarbiyani tashkil qilishda foydalanishi mumkin bo'lgan jamiyatning iqtisodiy resurslarini tadqiq etadi. Bundan tashqari bu bo'limda ijtimoiy tarbiya boshqaruvi ham ko'rib chiqiladi.

Ijtimoiylashuvga ta'sir etuvchi mikro, mezo va makro omillar.

Ijtimoiylashuv omillari. Ijtimoiylashuv bolalar, o'smirlar, yoshlarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ko'p sonli shart-sharoitlar bilan o'zaro munosabat jarayonida yuzaga keladi. Insonga ta'sir qiluvchi bu sharoitlar omil deyiladi. (1 – shakl)

Megoomillar - kosmos, yer shari va planetalar

Makroomillar – inson yashaydigan mamlakat, jamiyat, davlat hamda dunyoviy planetar jarayonlar – ekologik, demografik, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va b.

Mezoomillar – etnik ko'rsatmalarni shakllantirish, shaxsning milliy hayot va etnikaro munosabatlarning u yoki bu xollarini qabul qilishi, insonlarning o'z eposi (halqi) tarixi va hozirgi hayoti haqida qarashlari va fikrlari; bola yashaydigan va rivojlanadigan mintaqaviy shart-sharoitlarning ta'siri; yashaydigan joy turi (shaxar, tuman markazi, qishloq); ommaviy kommunikatsiya vositalari va b.

Mikroomillar — yaqingina makonni va ijtimoiy muhitni tashkil qiladigan oila, ta'lim muassasalari, tengdoshlar guruhi va b. mana shu yaqingina muhitni, ya'ni bola o'sadigan muhitni sotsium yoki mikrosotsium deb atashadi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Ijtimoiy pedagogika fan va amaliy faoliyat sohasi sifatidagi mazmunini yoritib bering.
2. O'quvchi shaxsi kamolot jarayoning ob'ekti va sub'ekti sifatida mohiyatini tavsiflang.

9 – MAVZU: IJTIMOIY PEDAGOGIKA FANINING KATEGORIYALARI VA TAMOYILLARI.

REJA:

1. Pedagogika va ijtimoiy pedagogika kategoriyalari.

2. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat.
3. Ijtimoiy ta'lim. Tarbiya va ijtimoiy tarbiya.
4. Ijtimoiy pedagog kasbiy faoliyatining o'ziga xosligi.
5. Ijtimoiy pedagogning kasbiy sifatlari va modeli.
6. Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyati sohalari.

Tayanch tushunchalar: ijtimoiy pedagog, ijtimoiy yordam, ijtimoiy reabilitatsion xizmat, ijtimoiy pedagogik ish metodlari, analitik, prognostik, loyiha, refleksiya, kasbiy status, empatiya, bilim, ko'nikma, sifat va fazilat, tashxis quyis, bashoratchilik, vositachilik, tugirlash va kayta tiklash, ximoyalash, ogoxlantirish va profilaktika, evristika (ijodiy fikrlash), kategoriya, mexanizm, ijtimoiy ta'lim, ijtimoiy tarbiya, ijtimoiylashuv, ijtimoiy adaptatsiya, ijtimoiy reabilitatsiya, pedagogika faoliyat, Individual yordam.

Ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyalari

Xar bir fanni shu fanning o'rganish predmetiga asoslangan bilimlar tizkmi ajratib turadi. Fanning bilimlar tizimi uning tushuncha va kategoriyalarida o'z aksini topadi. Tushuncha — real olamni bilish jarayonida aks etish shakllaridan biri. Reallikning o'zgaruvchanligi va ko'p qirraliligi tufayli tushunchalar dinamik, rivojlanadigan tavsifga ega. Ular tarixiy holat va hayot sharoitlariga bog'lik, ravishda o'zgaradi.

Xar qanday fanning rivojlanishi jarayonida tushunchalar ana shu fan kategoriyalariga birlashadi. Fan kategoriyalari shu fanda qo'llaniladigan yanada kattaroq,, amaliy tushunchalardir. Hammamizga ma'lumki, pedagogika fanining asosiy kategoriyalariga “ta'lim”, “tarbiya”, “ma'lumot” singari tushunchalar kiradi. Shu kategoriyalar asosida “shaxs”, “rivojlanish”, “faoliyat”, “jamiyat”, “ijtimoiylashuv” singari ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun umumiy bo'lgan tushunchalar qo'llaniladi. So'nggi yillarda «pedagogik faoliyat» kategoriyasi ham keng qo'llanilmoqda. Ijtimoiy pedagogika fani pedagogikaning yo'nalishlaridan biri sifatida “Ijtimoiy pedagogik faoliyat”, “Ijtimoiy ta'lim” va “Ijtimoiy tarbiya” singari kategoriyalarga ega. Pedagogika va ijtimoiy pedagogika fani kategoriyalarining bir-biridan farqli jihati quyidagi jadvalda aks etgan.

Pedagogika hamda ijtimoiy pedagogika fani kategoriyalari

Pedagogika

Ijtimoiy pedagogika

- ta'lim
 - o`qitish
 - tarbiya
 - pedagogik faoliyat
- ijtimoiy ta'lim
- o`qitishning ijtimoiy jihatlar
- ijtimoiy tarbiya
- ijtimoiy pedagogik faoliyat
- ijtimoiylashuv
- ijtimoiy institut
- ijtimoiy adaptatsiya
- ijtimoiy reabilitatsiya

Pedagogika faoliyat- bu ta'lim-tarbiya vositasida o`quvchilarga ijtimoiy madaniyat tajribalarini singdirishga qaratilgan kasbiy faoliyatdir.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat- bu bolaning ijtimoiylashuviga, ularga ijtimoiy madaniyat tajribalarini singdirishga, jamiyatda o`z-o`zini boshqarishga sharoitlar yaratishga qaratilgan kasbiy faoliyatdir. U ma'lum shaxsga qaratilgan bo`lib, aniq manzilga yo`naltirilgan faoliyatdir. Ijtimoiy pedagogik faoliyat quyidagi xususiyatlarga ega.

- Ta'lim muassasalaridagi ijtimoiy-pedagogik faoliyat,
- bolalar tashkilotlaridagi ijtimoiy-pedagogik faoliyat,
- bolalarning ijodkorligini oshirish va dam olishini tashkil etishga mas'ul tashkilotlardagi ijtimoiy-pedagogik faoliyat.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning asosiy yo`nalishlari qo`yidagilar hisoblanadi.

- dezadaptatsiyaga uchragan bolalarni profilaktika qilish,
- ijtimoiy me'yorlardan chekingan (o`qish) bolalarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish .Bu ishlar ikki shaklda amalga oshiriladi:

1.Bevosita bolaning o`zi bilan olib boriladigan ishlar.

2.Bolaning ijtimoiy muhit bilan aloqasida vositachilik qilishi.

Ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyalaridan biri bo`lgan ijtimoiy ta'lim kategoriyasi ikki tomonlama xususiyatga ega. Birinchidan, ijtimoiy ta'lim-bu bolaning ijtimoiylashuviga yordam beruvchi ijtimoiy bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirish jarayonidir.

Ikkinchidan, ijtimoiy ta'lim-bu ijtimoiy soqada ishlash uchun maxsus tayyorgarlik ko`rish jarayonidir.

Ijtimoiy tarbiya esa bolaning ijtimoiylashuviga qaratilgan ijtimoiy ahamiyatga molik fazilatlarni shakllantirish jarayonidir. Ijtimoiy tarbiya muammolari xususida A.V.Mudrik, V.D.Semyonova, G.N.Filova singari olimlar tadqiqotlar olib borgan.

Ijtimoiylashuv jarayonida bola jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy makrm, ijtimoiy xulk.-atvorning me'yor va koidalari haqidagi turli bilimlarni, jamiyatga ko`nikishiga yordam beruvchi turli ko`nikma va malakalarni

uuzlashtiradi. Bu jarayon, ayniqsa, bolalikda juda jadal sur'atlar bilan amalga oshadi. Ma'lumki, bola besh yoshgacha uning keyingi hayotida o'z aksini topuvchi nihoyatda ko'p bilimlarni oladi.

Bola ijtimoiylashuvining ajralib turuvchi xususiyati, uning jamiyat ilgari surayotgan yurish-turish me'yorlariga baxo berishi va nazorat qilishining qiyinligidadir. U bularni faqat o'zlashtirib boradi, shuning uchun ham bola shaxsining ijtimoiylashuv jarayonida ota-onalar, qarindoshlar, ular bilan ishlayotgan mutaxasislarning (psixolog, shifokor, pedagog va shu kabilar) ta'siri katta bo'lib, bolalarni, hayotda zarur ijtimoiy bilimlarni ertaroq; va yaxshiroq; o'zlashtirishlari, ularni hayotda qo'llashga intilishlari aynan ularga bog'liqdir. Buning ijtimoiy pedagogika bilan bog'liqligi shundaki, maktab yoki boshqa ta'lim muassasida ta'lim olish jarayonida bola, avvalo, akademik bilimlarni o'zlashtiradi. Biroq shu bilan bir vaqtda unda muayyan tizimlashgan ijtimoiy bilim, ko'nikma va malakalar shakllanadi. Bu bilim, ko'nikma va malakalar ijtimoiylashuv jarayonida — bolaga maxsus yordam kerak bo'lganda — juda zarur bo'ladi.

Bolaning ijtimoiylashuviga yordam beradigan ijtimoiy bilimlarni yetkazish, ijtimoiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayoni ijtimoiy ta'lim deyiladi.

Tarbiya va ijtimoiy tarbiya. Tarbiya pedagogikaning asosiy ob'ekti sifatida pedagogikaning rivojlanish tarixi mobaynida olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Shu bilan birga, "tarbiya" tushunchasining mazmuni amaliy ahamiyatga ega. Chunki bu tushuncha pedagogik faoliyatning vazifa va maqsadlariga asosiy yondashuvlarni belgilaydi.

Tarbiya ijtimoiy hayotning doimiy va umumiy kategoriyasidir. Tarbiyaning ijtimoiy qamrovi uning lug'aviy ma'nosidan ancha kengdir. Shuni hisobga olib, ijtimoiy tarbiyani insonning qobiliyati, bilimi, qadriyatlar, u yashayotgan jamiyatga munosabatidan iborat imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi, maxsus tarbiya tashkilotlarida amalga oshiriladigan jarayon sifatida ko'rib chiqish lozim. Boshqa so'zlar bilan ifodalaydigan bo'lsak ijtimoiy tarbiyaning maqsadi insonni ijobiy rivojlanishga qaratilgan sharoitlar yaratish jarayoniga yo'naltirishdir. Bu sharoitlar individual va guruxiy sub'ektlarning uchta o'zaro bog'liq va shu paytning o'zida mazmuni, shakli va usuli jixatidan nisbatan mustaqil bo'lgan jarayonlarni qamrab oladi: bolalar, o'smirlar, o'spirinlar ijtimoiy tajribasini tashkil qilish, ularning ta'lim olishlarini ta'minlash hamda ularga individual yordam ko'rsatish.

Ijtimoiy tajribani tashkil qilish gurux (jamo) larning maishiy va xayotiy faoliyatini tashkil qilish, guruxdagi o'z- o'zini bopqarish faoliyatini rag'batlantirish va norasmiy mikroguruxlarga ta'sir etish orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy tajriba keng ma'noda turli ko'nikma va malakalar, bilim va fikrlash usullari, yurish-turish me'yori va stereotiplari, qadriyatlar, odamlar bilan munosabatga kirishish tajribasi, moslashish tajribasi, shuningdek o'z- o'zini anglash, o'ziga ishonch, o'z ijtimoiy

xayot yo'lini belgilash va shu yo'ldan borish tushuniladi. Ta'lim o'z ichiga qo'yidagilarni oladi: uzliksiz tizimli ta'lim (rasmiy ta'lim), madaniyatni targ'ib qilish va tarqatish, o'z-o'zini shakllantirishga va mustaqil ta'lim olishga yo'naltirish. Individual yordam insonga muammolarni hal qilishda, o'z-o'zini rivojlantirishda, jamiyatdagi mavqeini, o'rnini yuksaltirishda namoyon bo'ladi. Individual yordam boshqa insonlarning ehtiyojlarini qondirishga zarur bo'lgan bilim, malakalarni o'zlashtirishda insonga ongli yordam berish, uning o'z qadrini bilishi, o'z-o'zini anglashi hamda unda oila, gurux va jamiyatga mansublik hissini rivojlantirishdir. Tabiiyki, ijtimoiy tajriba ta'lim va individual yordamning usul, shakl, mazmun, tavsifi va jadalligi bevosita tarbiyalanuvchilarning yoshi, jinsi, qaysi kasb egasi ekanligi va ularning qaysi ijtimoiy madaniy soxaga mansubligiga bog'lik. Bu jihatlari turli ta'lim muassasalari va tashkilotlarida farqlanib, bu farq tashkilot turiga, unda faoliyat yuritadigan pedagoglarning amalga oshirayotgan ishlariga bog'liq.

Ijtimoiy tarbiya jarayonidagi o'zaro munosabat shu jarayonning sub'ektlari orasidagi axborot, faoliyat usullari va qadriyatlar almashinuvidir. Bunday munosabat ijtimoiy jihatdan tabaqalashgan, alohida ko'rinishga ega. Chunki o'zaro munosabatning aniq ishtirokchilari muayyan etnik ijtimoiy va ijtimoiy psixologik guruhlari vakili bo'la turib, o'z munosabatlarida u yoki bu darajada ular mansub guruxlarga tegishli ijtimoiy xulqni amalga oshirishadi. - Umuman olganda, o'zaro munosabat tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning birgalikdagi faoliyati, bu faoliyatning mazmuni, **xarakter**i, tarbiyaviy samaradorligi, faoliyat ishtirokchilari va ular o'zlarini qay darajada shaxs deb xisoblashlariga bog'liq. O'zaro munosabat jarayonida amalga oshirilayotgan ijtimoiy tarbiya insonning ijobiy ijtimoiy, ma'naviy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishda qulay sharoitlar yaratadi.

“Ijtimoiy” tushunchasi (lotincha socialis – umumiy, jamoatchilik) insonlarning birgalikdagi hayoti bilan bog'liq bo'lib, ularning muomala va bir-biriga ta'sirining turli xil shakllari birlashtiradi.

Ijtimoiy pedagogika - shaxsni ijtimoiylashuvi qonuniyatlarini o'rganish, jamiyatning ijtimoiy muammolarini hal qilish maqsadida ijtimoiy pedagogik faoliyatning samarali usullari texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni qo'llashga qaratilgan pedagogika sohasi.

Pedagogikaning ham, ijtimoiy pedagogikaning ham obyekti- bu bola, biroq o'rganish predmetlari turlicha. Pedagogikaning o'rganish predmeti bolani tarbiyalash qonuniyatlari hisoblanadi, Ijtimoiy pedagogikaning predmeti esa bolani ijtimoiylashtirish qonuniyatlari Hisoblanadi.

Ijtimoiy pedagog va uning kasbiy sifati.

Ijtimoiy pedagoglarni kasbiy tayyorlash uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshiriladi. Ijtimoiy pedagoglarni kasbiy tayyorlash ikki turdagi o'quv yurtlarida olib

boriladi: o`rta kasbiy ta`lim muassasalari (litsey va kollejlari) va oliy kasbiy ta`lim maktablari (Institut va universitetlar).

O`rta kasbiy ta`lim muassasalarida kichik sinflar va maktabgacha tarbiya muassasalarida tarbiyalanuvchi bolalar bilan ishlovchi pedagoglar tayyorlanadi. O`rta ma`lumotli pedagoglarning asosiy vazifasi bolalarga kiyin vaziyatlarni yengib o`tishga yordam beradi, bolalarning ishonishiga ko`maklashuvchi faoliyat turlarini tashkillashtiradi. Bolalarning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ularning ota-onalari bilan xamkorlik qilish, o`z malakasini oshirish maqsadida mustaqil ravishda o`kib borishdan iboratdir. O`rta kasbiy ta`lim bilim yurtini tugatgach ular oliy ta`lim muassasida o`z o`kishini davom ettirishi mumkin.

Ijtimoiy pedagog - faqat o`qituvchigina emas, u bola kanday ukiyotganini va rivojlanayotganini tushunadigan va xis etadigan shaxsdir. U bola xayotini, kechinmalarini xuddi o`zinikidek tushunadigan va uning ma`naviy, madaniy, axlokiy rivojlanishiga yullanmalar bera oladigan mutaxassis bulmogi kerak. SHuning uchun xakikiy pedagog faqat o`z fanini bilibgina kolmay, ayni vaktida bolalar va kattalar bilan ijodiy mulokot kila oladigan, o`z ustida ishlaydigan inson bulishi muxim axamiyatga ega.

Ta`lim jarayonini ijtimoiylashtirish natijasida o`quvchi inson moxiyatini anglaydi. O`z xayoti dovomida inson to`grisida xosil qilingan tushunchalar asosida mukammal shaxs va xakikiy fuqaro bo`lib yetishadi.

Insonparvarlikka asoslangan ta`lim – ijtimoiy fanlar va yondosh fanlarning funktsiyalarini kengaytiradi, ta`lim jarayonini, mutaxassis shaxsi va uning dunyokarashi yaxlitligini ta`minlaydi.

Ta`limni insonparvarlashtirishdan ko`zlangan asosiy maqsad yoshlarga tegishli bilim, kunikma va malaka, ularning insoniy dunyokarashini shakllantirishdan iborat. U bulajak fuqarolar tomonidan insonlar faoliyatining turli soxalarida insonparvarlik g`oyasi va kadriyatlarini amalga oshirishning asosi bo`lib xizmat kilsin.

Ta`limda xayot tajribasiga ega bulish ziddiyatli xolatlarda ijtimoiy moslashuv modelini ishlab chikishni takozo etadi:

- ijtimoiy – shaxsiy xayot tajribasiga asoslangan muntazam davom etadigan jarayon xisoblanadi;
- real vaziyatdan kelib chikib, ziddiyatli xolatlarda ijtimoiy moslashuv modelini ishlab chikishni takozo etadi;
- mavjud amaldagi xolatga doim moslashish jarayoni xisoblanadi;
- shaxslararo alokalarni kamrab oladi;
- shaxsning shakllanish jarayonini yunaltiradi.

Ijtimoiy pedagog kasbiy faoliyatining xususiyatlari — "Ijtimoiy pedagog" mutaxassisi "pedagog" so`zidan olingan bo`lib, avvalo o`qituvchi ma`nosini

anglatadi. SHu bois mazkur lavozimning joriy etilganidan so'ng aynan o'qituvchilarning birinchi ijtimoiy pedagoglar bo'lgani ajablanarli emas. Ijtimoiy pedagoglarni kayta tayyorlash buyicha kurslar tinglovchilarining aksariyat kismini xam o'qituvchilar tashkil etadi.

Yana shuni ta'kidlamok joizki, ijtimoiy pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi xam pedagogik oliy o'quv yurtlarida amalga oshiriladi. Darxakikat, pedagog va o'qituvchining kasbiy faoliyatida kupgina umumiyliklar mavjud. Bu ikkala kasbning xam ob'ekti bola, uning rivojlanishi va ijtimoiy shakllanishidir. Bu narsa ularning yaqinligini yana bir bor tasdiklaydi.

O'z navbatida mazkur mutaxassiliklarning kasbiy faoliyati ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniklashga imkon beruvchi bir kator tafovutlarga xam ega. O'qituvchi o'zining asosiy ta'lim berish vazifasini bajarar ekan, yosh avlodga bilim va jamiyat tomonidan orttirilgan ijtimoiy madaniyat tajribasini o'rgatadi. Ushbu jarayonda bola tarbiyalanadi va shakllantiriladi. Ijtimoiy pedagogning diqqat markazida esa bolani jamiyatga moslashib ketishiga yordam berish turadi.

Ijtimoiy pedagog kasbi va uning vazifalari

SHu kunga qadar ijtimoiy pedagogning vazifasini bir—biri bilan bog'liq bo'lgan tibbiyot, sport, mnlitsiya, madaniyat tashkilotlari xodimlariga yuklatilib kelindi. Natijada jamiyat a'zolari ongida bolalar tarbiyasi bilan faqat o'qituvchi va ota-onalar shug'ullanishi lozim degan fikr o'rnashib qoldi. YUrtimizda ijtimoiy ishni kasb darajasiga olib chiqish hamda bu borada mutaxassis kadrlarni tayyorlash jamiyatda tarbiyaviy muammolarni hal etishda insonlarning yashash sharoitini yaxshilashda, eng asosiysi- har bir jamiyat a'zosini ijtimoiy himoyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy pedagog oldiga qo'yiladigan kasbiy talablar:

- ijtimoiy axborot berish, ya'ni bolalarga beriladigan ijtimoiy yordam va xizmat ko'rsatish spekgirlari haqida ma'lumot berish;
- ijtimoiy -huquqiy yordam, ya'ni bolalarga, jamiyat a'zolariga o'z haq - huquqlarini anglashga yordam berish;
- ijtimoiy - reabilitatsion xizmat, ya'ni insonldrning ma'naviy – axloqiy, emotsional, ruhiy holatlarinn taklashga yordam berish,
- ijtimoiy- iqtisodiy yordam, ya'ni posobiya, kompensatsiya, nafaqalarni olishda hamkorlik qilish bolalar uylari bitiruvchilariga, yetimlarga moddiy yordam berishni tashkillashtirish;
- ijtimoiy—tibbiy yordam berish, ya'ni bolalarni ijtimoiy patranaj qilish, voyaga yetmaganlar orasida kashandachilik, alkogolizm kabi holatlarni profilaktika va reabilitatsiya qilish;
- ijtimoiy-psixologik, ya'ni oilada, turli mikrojamiyatda sog'lom muhitni tashkil etishga yordam berish:

- ijtimoiy-pedagogik, ya'ni bolalarni tarbiyalashda ota-onalarning o'z haq-huquqlarini anglash, ularga sharoitlar yaratish, o'qituvchi va o'quvchi orasidagi ziddiyatlarni hal etish kabilardan iborat.

Ijtimoiy pedagog bu vazifalarni amalga oshirish uchun, albatta quyidagi sohalarida o'z bilimlarini boyitib borishi shart.

- milliy istiqlol g'oyasi huquqiy-me'yoriy baza (qarorlar, aktlar, buyruqlar, ko'rsatmalar, tashkilot tuzulmalari va x.k.),

- ijtimoiy pedagogikaning tarixi va nazariyasi

- yosh davrlar psixologiyasi

- sotsiologiya

- ijtimoiy-pedagogik ishlarni olib borish hamda rejalashtirish metodlari va h.k.

Shuningdek, ijtimoiy pedagogdan quyidagi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi:

- analitik, ya'ni sotsiumda ro'y berayotgan jarayonlarni nazariy tahlil etish, bolaning ruqiy olamini anglay bilish, ularning muammolarini hal etishga doir hamkorlik faoliyatini tashkil etish;

- prognostik, ya'ni tashkil etilgan ijtimoiy-pedagogik faoliyat bo'yicha bolaning muammolarini hal etish yo'llarini bashorat qilish;

- loyiqalash, ya'ni ijtimoiy-pedagogik faoliyatning mazmunini aniqlash va rejalashtirish;

- refleksiv, ya'ni ijtimoiy pedagog o'zining faoliyatini tahlil etib borishi;• kommunikativ, ya'ni ijtimoiy pedagogning insonlararo muloqat madaniyatini egallashi. U boshqalar fikrini eshita bilish, muloqatga kirisha bilish, faktlar to'plash singari faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

- Kasbiy status-bu kasb kodeksida ko'rsatilib, sub'ektning insonlararo munosabatlar tizimidagi kasbiy holati, huquqlari, majburiyatlaridir.

Ijtimoiy pedagogning kasbiy sifatlari.

Ijtimoiy pedagog asosan xalq ommasi bilan ishlaydigan shaxsdir. U o'z faoliyati jarayonida turli xarakterdagi insonlar bilan muloqatga kirishishiga to'g'ri keladi. Bu vaziyatda ular bilan turli xil ziddiyatlarga bormaslik, ularning har birining ko'ngliga, yuragiga kirib borish uchun sifat va fazilatlariga ega bo'lishi talab etiladi: empatiya (dunyoni boshqalarning ko'zi bilan ko'rish, tushuna bilish), xayrihoqlik, ezgulik, to'g'rilik, ochiq ko'ngillik, aniq mo'ljal olish, samimiylik, kommunikabellik(boshqalar bilan chiqisha bilish)Ijtimoiy pedagogning ahloqiy majburiyatlari Ijtimoiy pedagog o'z mijozlarining qalbiga kirib borishida uning ahloqiy majburiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy pedagogning aqloqiy majburiyatlari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bular: o'z mijozlariga nisbatan axloqiy muloqatda bo'lish, ya'ni ularning haq huquqlari va imtiyozlarini birinchi darajali deb bilish;

- ular bilan muloqatga kirishishda ahloq me'yorlarga amal qilish (hurmat, haqqoniyat, hushmuomilalik, alohida etibor va h.k.)
- rahbarlar yoki yetakchi tashkilotlarga nisbatan yetuk majburiyatlar
- o'z kasbi oldidagi axloq majburiyatlar, ya'ni o'z kasbining mazmuni va mohiyatini anglash, mas'uliyatni his etish, faollik ko'rsatish va h.k.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat

Pedagogik faoliyat-ta'lim va tarbiya orkali ijtimoiy-madaniy tajribani berishga yunaltirilgan kasbiy faoliyat turidir. Bu faoliyat ta'lim standartlari, o'quv rejalari, dasturlari bilan belgilanadi.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat-bolaga ijtimoiylashuvi jarayonida (bolaning jamiyatga kirishi) yordam kursatishga karatilgan kasbiy faoliyat turidir. Bola bilan ish olib borishi mumkin bulgan turli xil ta'lim muassasalari, tashkilotlari, birlashmalari uz ishlarini ijtimoiy pedagoglar orkali amalga oshiradilar.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat xar doim anik bir bolaga va uning ijtimoiylashuviga, uni jamiyatga integratsiyalash jarayonida yuzaga keladigan muamolarini xal etishga yunaltirilgan bo'ladi.

Kasbiy faoliyat tuzilmasi — xar kanday faoliyat o'z tuzilmasiga egadir. Ular faoliyat elementlarining o'zaro bog'likligini va o'zaro shartlarini aniklaydi. Ijtimoiy pedagog faoliyati tuzilmasi quyidagi komponentlardan iborat: sub'ekt (faoliyatni amalga oshiruvchi tomon), ob'ekt (faoliyat yunaltirilgan tomon), maqsad (faoliyat orkali nimaga intilinadi), vazifa (faoliyat orkali nimalar amalga oshiriladi), vositalar (faoliyat kaysi usul yoki texnika yordamida amalga oshiriladi).

Ijtimoiy pedagog faoliyatining ob'ekti jamiyatga moslashish jarayonidagi yordamga muxtoj bolalar va yoshlardir. Bu toifaga intellektual, ruxiy, ijtimoiy nuksoni bor bolalar, shuningdek, jismoniy, ruxiy yoki akliy shakllanishi buzilgan bolalarning katta kismi (ko'zi ojiz, kar—sokov, akliy ojiz va bolalar tserebral falajligiga chalinganlar) kiritiladi. Ular jamiyatning aloxida mexriga muxtojdir.

Agar bolaning jamiyatdagi shakllanishi normal kechsa unda ijtimoiy pedagog yordami zarur bulmaydi. Bordiyu, ota—onalar va maktab uning shakllanishi, tarbiyalanishi va ta'lim olishini ta'minlay olmasa u xolda ijtimoiy pedagog xizmati kerak bo'ladi.

Ijtimoiy pedagog faoliyatining maqsadi bolaning ruxiy sogligi va xavfsizligi uchun sharoit yaratish, uning oilasi, maktabi va atrofidagi unga salbiy ta'sir kursatuvchi omillardan ogoxlantiruvchi va ularni yengib utuvchi ijtimoiy, xuquqiy, ruxiy, tibbiy va pedagogik muammolarini kompleks ravishda xal etish maqsadida turli mutaxassislar (ruxiyatshunoslar, tibbiy xodimlar, ijtimoiy xodimlar va yuristlar) xamda ma'muriy organlar va idoralarning (ta'lim, soglikni saklash, ijtimoiy ximoya soxasidagi) mazkur masalaga yunaltirilgan sa'y—xarakatlarni muvofiklashtirib turishda vositachi bula olishi kerak.

Ijtimoiy pedagog faoliyatidagi muxim yunalish — bu BMT Konventsiasida eʼlon qilingan bolaning yashashga, soglom shakllanishiga, taʼlim olishiga, oʻz karashlarini erkin ifoda etishiga, kamsitishning xar kandy turidan ximoyalashga karatilagan xukuklarini ximoya qilishdir.

Ijtimoiy pedagog faoliyatidagi yana bir yunalish—bu bolani shakllanishiga kumaklashuvchi ijtimoiy loyixalar va dasturlar, xususiyy tashabbuslarni ishlab chikishda ishtirok etishdir.

SHunday qilib, ijtimoiy pedagog faoliyatiga quyidagi vazifalarni biriktirish mumkin: .

- tashxis quyish
- bashoratchilik
- vositachilik
- tugirlash va kayta tiklash
- ximoyalash
- ogoxlantirish va profilaktika
- evristika (ijodiy fikrlash)

Pedagogning barcha faoliyati vositalar yordamida amalga oshiriladi. Bular safiga maqsadga erishishda zarur boʻladigan barcha xarakatlar, predmetlar, kurollar, usullar va texnologiyalarni kiritish mumkin.

Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyati subʼekti sifatida: shaxsiy tavsif va kasbiy omilkorligi.

Ijtimoiy pedagogning shaxsiy tavfsifnomasi kurib chikiladigan bulsa, avvalo mazkur faoliyat subʼektini — oʻz soxasini mukammal biluvchi mutaxassisni belgilab olishimiz zarur boʻladi. U bola xaqidagi ijtimoiy va boshka kiyinchiliklarni chukur farklay biladi va unga yordamga kela oladi. U umum nazariy va maxsus bilimlarga, malaka va kunikmalarga, maʼlum darajadagi kobiliyatlarga ega boʻladi.

Xush ijtimoiy pedagog kim? Uning ruxiy surati va shaxsiy tavfsifnomasi kandy, kaysi soxalar uning faoliyat doirasiga tegishli? U boshka kasb egalaridan nimasi bilan fark kiladi?

Kundalik xayotda biz kasb inson ongida, uning xatti— xarakatlarida va dunyokarashida oʻziga xos iz koldirishiga guvox bulamiz. Psixologiyada bu narsa "kasbiy mentallik" deb ataladi. Mentallik — bu insonning olamga munosabatini va uning kundalik xatti —xarakatlarini aks ettiruvchi maʼlum ijtimoiy—ruxiy karashlar va kadriyatlar majmuidir. Mentallik oʻzida individning ijtimoiy va madaniy tajribasini mujassamlashtirgan boʻlib, insonning kaysi ijtimoiy katlamga, yoshga, jinsga, millatga va kasbga mansubligi bilan aniklanadi.

Psixologik tadqiqot larda kasbiy mentallik maʼlum bir kasb egalariga xos boʻlgan xususiyat sifatida eʼtirof etiladi.

Xozirgi pedagogning muxim vazifalaridan biri milliy istiklol g'oyasini bolalar va o'quvchilar ongida shakllantirish tadbirlari va mexanizmlarini ishlab chikib, uni amalga oshirishdan iboratdir. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov shunday degan edi: "Endigi vazifamiz shundan iboratki, milliy istiklol g'oyasi tushunchalari asosida keng jamoatchilik, ziyoliylar, ilm – fan va madaniyat namoyandalari, avvalo, ma'naviy – ma'rifiy soxa xodimlari milliy mafkurasini takomillashtirish, uning asosiy tamoyillarini odamlar kalbiga va ongiga singdirishga karatilgan ishlarni yangi boskichga kutarish zarur". Mana shuning uchun xam yaratiladigan ko'llanmalar mazmunida milliy istiklol g'oyasi asosiy o'rinni olishi lozim.

Oliy ta'lim muassasalarida pedagoglar ikki boskichda o'kitiladi. Birinchi boskichda, ya'ni bakalavriatda mutaxassis o'zi tanlagan soxa bo'yicha 4 yil davomida ta'lim oladi. Ikkinchi boskich magistraturada davom ettiriladi. "Ijtimoiy pedagog" soxasiga tegishli barcha mutaxassilarning xam umumiy o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'ladi. Bir kator tadqiqot chilar ularning shaxsiy tavsifnomasi sifatida individual—ruxiy xususiyatlar va maxsus kobiliyatlarni ko'rsatmokda.

Kuzatuvchanlik, murakkab vaziyatda tez yo'lga tusha bilish, faxm— farosat bilan seza olish, o'zini boshka odam o'rniga ko'ya olish va uning xissiyotlarini tushuna bilish, o'zini boshkara olish va refleksiya (fikir yuritib uni taxlil qilish) maxsus kobiliyatlar jumlasidandir. SHuningdek, ijtimoiy pedagog dilkashlik, odamlar bilan ishlay olish, kizikkonlik, o'z fikrini o'tkaza olish, baxsli vaziyatlarda yo'l topa bilish, tirishkoklik kabi ijtimoiy soxaning barcha xodimlariga xos xususiyatlarga xam ega bo'lmogi darkor.

Xorijiy tadqiqot chilar xam pedagogning individual— ruxiy xususiyatlari to'grisida o'z fikrlarini bildirganlar. Masalai, Buyuk Britaniyalik olimlar bunday xususiyatlar katoriga yukori darajadagi akliy saloxiyatga egalik, tartiblilik va o'z— o'zini boshkara bilish, jismonan kuchlilik, odamlarga kiyin vaziyatlarda yordam bera olish, chidamlilik, sezgirlik kabilarni kiritadilar.

AQSHning mashxur psixologlaridan sanalgan J. Xoland o'zining "o'ziga yo'naltirilgap kidiruv" metodikasida ijtimoiy soxa kasbi egasiga xos xususiyatlarni ko'rsatgan. Bular: realistlik (xakkoniylik), tadqiqot chilik, artistlik, ijtimoiy, tadbirkorlik, konventsional xususiyatlardir. U ijtimoiy pedagogga xos insonparvarlik, ideallik, mas'uliyatlilik, axloklilik, xushmuomalalik, iliklik, odoblilik, o'zgalarni do'st tuta olish kabi xususiyatlarni xam ko'rsatadi.

Ijtimoiy pedagog kasbi insonlar o'rtasidagi munosabatlar tizimida faoliyat yurituvchi ko'pkirrali soxa bo'lib, pedagogning kaysi ishda ishlashidan kat'iy nazar odamlar bilan va avvalo bolalar bilan ishlashga yo'naltirilganligidadir. Mulokot jarayonida pedagog ko'plab ruxiy zurikish va charchokni o'zida sinashiga to'gri keladi. SHu bois uning asab tizimi xam mustaxkam bo'lishi darkor. Bu narsa unga

ijtimoiy—pedagogik, ruxiy—terapevtik jarayonlarda emotsional kiyinchiliklar bilan to'knashuvida yordam beradi.

Ijtimoiy pedagogga xos yana bir xarakter xususiyati, bu "Men — obrazidir" Bu narsa pedagogning o'ziga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishini xamda boshkalar tomonidan o'ziga yukori baxo berilishini ifodalaydi. Mazkur xarakter pedagogga boshka odamlar bilan erkin mulokot qilish va ularni oson kabul qilish imkonini beradi.

Ijtimoiy pedagogning quyidagi shaxsiy fazilatlarini aloxida ajratishimiz mumkin:

- Insoniylik xususiyatlari (mexribonlik, boshkalar manfaatini ustun ko'yish, o'z shaxsiy kadr—kimmati xissi)

- Ruxiy barqarorlik, yukori darajadagi xissiy va irodaviy xususiyatlar)

- Ruxiy taxlilchilik xususiyatlari (o'zini idora kila olish, o'ziga tankidiy karash, o'zini baxolay olish)

- ruxiy—pedagogik xususiyatlar (kirishuvchanlik, gapga chechanlik.)

YUkorida keltirilgan xususiyatlar bilan tanishar ekanmiz, xar kanday odam xam ijtimoiy—pedagogik faoliyatni olib borish kobiliyatiga ega bo'lavermasligiga ishonch xosil kilamiz.

Xar bir pedagogning kasbiy omilkorligi, ya'ni uning o'z faoliyatini olib borishga amaliy va nazariy tomondan tayyorligi me'yoriy—xuquqiy xujjatlar yordamida tartibga solinadi. Mazkur xujjatlar o'z ichiga mutaxassis- pedagogning kasbiy majburiyatlarini, mexnat tavsifnomasini, bilim va malakasini oladi.

IJTIMOIIY ISH – axolining ijtimoiy ximoyalanmagan katlamlariga yordam kursatish xisoblanadi. Ijtimoiy ishlarning obekti inson xisoblanadi, lekin xamma emas, balki faqatgina muammolari bulganlari (ekalogik, ijtimoiy, texnogen, millatlararo keskin o'zgarishlar, buzilishlar natijasida) yoki soglom bulmagan, jismoniy yoki psixik nuksonlari bulganlar xisoblanadi.

MURUVVAT KO`RSATISH – muxtojlariga yordam, xayriya-saxovat – aloxida shaxslar yoki tashkilotlar tomonidan muxtojlariga yoki axoli guruxlariga beminnat yordam berish. Raxim-shavkat, marxamat, raximdillik – barchaga yordam berish, yoki o'zgalarni kechirish, gamxurlik qilish.

XAYRIYA – (muxtojlariga yordam, xayr-saxovat) – muxtoj odamlarga yoki axolining ijtimoiy guruxlariga xususiy shaxslar, yoki tashkilotlar tomonidan bepul yordam kursatish.

MEXRIBONLIK (MILOSERDIE) – raxmdillik, odamiylik, insonparvarlik yuzasidan kimgadir yordam kursatish, yoki kimnidir kechirish, avf etish.

"Kasbiy majburiyatlar" — Bolalarni ijtimoiy ximoya, kullab—kuvvatlash xamda bu borada xizmat kursatuvchi muassasalar to'grisida zarur axborotlar bilan ta'minlanadi.

— Inson va bola xukuklarini ximoya qilishga karatilgan, turli toifadagi bolalarning xak-xukuklarini ta'minlashga, bolalarni xuquqiy jixatdan tarbiyalashga yunaltirilgan ijtimoiy—xuquqiy yordamni kursatilishi

— Ruxiy va emotsional yordamga muxtoj bolalarga ijtimoiy—reabilitatsion yordam kursatish

— Kam ta'miilangan oilalarda yashovchi bolalarning maishiy xayotini yaxshilash maqsadida ularga ijtimoiy yordam kursatish.

— Bemor bolalarga zarur tibbiy—ijtimoiy yordamni kursatish. Alkogolizm, giyoxvandlik bilan shugullanuvchi voyaga yetmaganlarni davolash.

Ijtimoiy pedagogdan quyidgicha kasbiy bilimlar talab etiladi :

O'z faoliyatining me'eri—xuquqiy asosini (konunlar, farmonlar, karorlar va yuriknomalar), ijtimoiy pedagogika nazariyasi va tarixini, turli muxitlarda turli toifa bolalari bilan ishlash metodikasi va texnologiyasini, bola shaxsini, uning jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy shakllanishini urganuvchi psixologiyani , odamlarning uyushma va guruxlari (Oila, maktab va mexnat jamoasi) ni urganuvchi sotsiologiyani; o'z kasbiy tadqiqot faoliyatini ijtimoiy boshkarish va rejalashtirish metodini bilish.

Ijtimoiy pedagogdan quyidagi kasbiy malakalar talab etiladi: Taxlil kila olish kobiliyati. Bolaning shakllanishida unga muxitning salbiy va ijobiy ta'sir kursatuvchi xarakatlarini aniklab taxlil kila bilish;

Bashoratchilik kobiliyati: faoliyat olib borish usullarini belgilab olib uni anik maqsad tomon yunaltirish, duch kelishi muin bo'lgan muammolarni oldindan kura bilish va xisobga olib, vakti to'g'ri taksimlash;

Loyixalashtira bilish—faoliyatni anik bir loyixa asosida, tarbiyalanuvchining shart—sharoitlari va mavjud muxit talablarini xisobga olib, anik bir tartibda olib borish, o'z faoliyatining xar bir boskichida ijobiy va salbiy natijalarini to'g'ri taxlil kila olish; kirishuvchanlik— ya'ni bolani eshitish va tinglay olish, bola bilan mulokot jarayonini osonlashtirish, bola muammosini to'g'ri tushunish uchuy zarur axborot va ma'lumotlarni tuplash.

Ijtimoiy pedagog faoliyatining modeli.

Ijtimoiy ish bilan har kim ham shug'ullana olmaydi. Ijtimoiy pedagog turli xil harakterdagi insonlar bilan mulokatda bo'ladi. Bu insonlar o'zlarining muammolari bilan, albatta, ijtimoiy pedagog shaxsiga qarshi ta'sir ko'rsatadi. Mijozlarga yordam beruvchi mutaxassisdan esa ularga o'z ta'sirini o'tkaza bilishi talab etiladi. Bu mulokat negativ va pozitiv bo'lishi mumkin. Ijtimoiy pedagogning vazifasi birinchidan,negativ ta'sirga qarshi tura olishi, ikkinchidan madaniy empatiyani amalga oshirgan holda vaziyatdan chiqib ketish talab etiladi. Bunga mijozga ta'sir o'tkazish, ishontirish, singdirish, xissiy zararsizlantirish kabi metodlardan foydalaniladi.

Ijtimoiy pedagogga qo'yilayotgan barcha talablarni inobatga olib, ijtimoiy pedagog faoliyatining kasbiy modeli yaratilgan. U quyidagi jadvalda o'z aksini topgan.

Ijtimoiy pedagog faoliyati soxalari. Ijtimoiy pedagog lavozimi bugungi kunda ikkita idorada — ta'lim muassalarida va yoshlar ishi buyicha muassasalarda joriy etilgan.

YOshlar ishi buyicha idoralarda mazkur lavozim 8 xil muassasada ruyxatga kiritilgan. Bular: bolalar klublari, bolalar ijodiy markazlari, yoshlar yotokxonasi, usmirlar dam olish maskanlari, yoshlar ta'lim markazlari, kasbiy yunaltirish markazlari, bandlik markazlari, bolalar va yoshlar mexnat birjalaridir.

Ta'lim soxasida esa pedagog 6 xil muassasada ruyxatiga kiritilgan. Bular: maktabgacha tarbiya tashkilotlari, umumta'lim muassalari, umumta'lim internatlari, bokuvchisini yukotgan bolalar uchun umumta'lim idoralari, maxsus ta'lim muassasalari, boshlangich kasbiy ta'lim muassasalaridir.

Ijtimoiy pedagog lavozimi mazkur ikki idorada joriy etilgan bulsada, aslida ularga bo'lgan talab yana xam kengrok. Bunday lavozim deyarli barcha ijtimoiy soxalarda joriy etilgan. Ular soglikni saklash muassalarida (ruxiy nosoglom, giyoxvand bolalar uchun), axolini ijtimoiy ximoyalash muassasalarida (imkoniyati cheklangap usmirlar reabilitatsiya markazlarida, voyaga yetmaganlarni reabilitatsiya qilish markazlarida), ichki ishlar organlari tarmogidagi muassasalarda

Ijtimoiy pedagogik ishlar faol g'oyaviy – axlokiy imkoniyatlarga ega. U shaxs xulkida paydo bo'lgan salbiy elementlarga karshi kurashda muxim omilga aylanadi. U ijtimoiy fikrni shakllantirish yuli bilan jamoada soglom ma'naviy – axlokiy muxit xosil qilishga ta'sir kursatadi, ilgor ijtimoiy kadriyatlarni mustaxkamlaydi, shaxs kadr – kimmatini ta'minlaydi, konunni xurmat qilishga o'rgatadi. Bu ayniksa bugungi kunda, jamiyat ma'naviy yangilanish jarayonini boshidan kechirayotgan bir davrda muxim axamiyatga ega.

Tarbiyaviy faoliyatning muxim zaxiralaridan yana biri – ommaviy targibot bilan boglik bo'lib, g'oyaviy – tarbiyaviy ishlarning barcha shakllarida gayrat va tashabbus talab etiladi. Bunda davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan ommaviy – tashqiliy tadbirlar utkazish, kechalar, bayramlar, rasm – rusmlar, urf – odatlar, jumladan «Navro'z», «Xotira va kadrlash kuni» va boshka tadbirlar muxim axamiyatga ega. Ommaviy ishlarda ijtimoiy – tarbiyaviy muvaffakiyatlarga ommaning ijtimoiy – madaniy faoliyat yunalishini chukur anglagan xoldagina erishish mumkin. Bu, birinchi navbatda. Pedagogik tamoyillar asosida ma'rifiy muassasa ishlarini tashkil etishda va metodikasida o'z ifodasini topadi. Tadbirlarni faqat g'oyaviy yunalishini emas, ayni chogda ijtimoiy – pedagogik, ijtimoiy – psixologik moxiyatini anglash, tashqiliy ishlarda uning mexanizmlarga tayanish zarur.

Milliy ongni uygotish va shakllantirish o`zini anglashdan boshlanadi. Milliy gurur – bu o`z yurtining tarixini bilish, xalkning madaniy merosini ximoya qilish, milliy kadriyatlarni tiklash, o`zligini anglash va namoyon etish kabilarni bildiradi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Ijtimoiy pedagog kasbi va uning vazifalari nima?
2. Ijtimoiy pedagogning kasbiy sifatleri deganda nimani tushunasiz?
3. Ijtimoiy pedagogning etik majburiyatlari.
4. Ijtimoiy pedagog faoliyatining modellar?
5. 5. Pedagogik va Ijtimoiy pedagogik kategoriyalarning o`xshashligi va farqi nimada?
6. Ijtimoiy ta`lim va tarbiyaning fanda tutgan o`rni qanday?

10 – MAVZU: IJTIMOYILASHUV - IJTIMOY PEDAGOGIK HODISA SIFATIDA. IJTIMOYILASHUV OMILLARI VA VOSITALARI.

REJA:

1. Ijtimoiylashuv tushunchasi va jarayoni.
2. Ijtimoiylashuv vositalari, agentlari va mexanizmlari.
3. Ijtimoiylashuvga ta`sir etuvchi omillar.
4. Tashqi va ichki omillar.
5. Mikro, mezo va makro omillar.
6. Shaxs ijtimoiylashuviga siyosiy, iqtisodiy, ekologik omillarning ta`siri.

**Tayanch so`zlar:** ijtimoiylashuv, omil, mexanizm, vosita, agent, sub`ektiv, ob`ektiv jarayon, identifikatsiya, intellektuallashuv, megaomil, mikroomil, mezoomil, biologik, ijtimoiy muhit. Ijtimoiylashuv, omil, mikro, mezo, makro, siyosiy, iqtisodiy, ekologik, Ijtimoiylashuv jarayoni, Ijtimoiylashuv vositalari, Ijtimoiylashuv agentlari, Megaomillar, Makroomillar, Mezoomillar, Ijtimoiy omillar, biologik omillar.

“Ijtimoiylashuv” so`zi dastlab siyosiy-iqtisodiyotdan kelib chiqqan. U siyosiy-iqtisodiyotda yer, ishlab chiqarish vositalarining umumiylashuvi ma`nosini anglatgan.

Ijtimoiylashuv tushunchasi va jarayoni.

“Ijtimoiylashtirish” tushunchasiga falsafiy lug`atda: “Jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo`lgan namunali xulq, psixologik mexanizm, sotsial norma va qadriyatlarni o`zlashtirish jarayoni<sup>12</sup>”- deb, ta`rif berilgan bo`lsa, o`zbek tilining izohli lug`ati<sup>12</sup>da “ijtimoiylashmoq” tushunchasi “ijtimoiy tus olmoq” ma`nosini anglatilishi ko`rsatilgan.

Mazkur tushuncha ilk bora 1987 yili amerikalik sotsiolog F.G.Keddingsning “Ijtimoiylashuv nazariyasi” nomli kitobida “insonni jamiyat yashashga tayyorlash”

ma'nosida qo'llanilgan bo'lib, u o'z ichiga quyidagilarni oladi:

Shaxs tomonidan ma'naviy, aqliy va jismoniy ideallar tizimining o'zlashtirilishi.

Ana shu ideallar asosida ma'naviy, aqliy va jismoniy qadriyatlarni shakllantirish.

Shaxsning ijtimoiy va jismoniy muhitga bo'lgan munosabatlarini shakllantirish.

Belgilangan o'rganilgan va shakllangan ideallarga, qadriyatlarga, yehtiyojlarga, munosabatlarga mos individual xulq-atvor tamoyillari, motivlari, strategiyasi, rejalari, dasturlarini shakllantirish.

Shakllangan ideallar, qadriyatlar, ehtiyojlar, munosabatlar.

Ijtimoiylashuv-shaxs tomonidan ijtimoiy va madaniy normalarning o'zlashtirilishi hamda u tomonidan turli ijtimoiy rollarning rivojlanishi. Ijtimoiylashuv jarayoni hayot davomida — insonning tug'ilishidan to keksalik davrigacha amalga oshadi. Ijtimoiylashuv jarayonida inson ko'p ijtimoiy me'yorlar va ijtimoiy rollarni o'rganadi, boshqalar bilan o'zaro muloqotga o'rganadi, bu jarayonda uning nafsi shakllanadi. Inson ijtimoiy mavjudotga aylanadi. Ijtimoiylashuvni kengaytirish va chuqurlashtirish faoliyat sohasi, muloqot sohasi va o'z-o'zini anglash sohasida yuz beradi.

Jamiyat qanday bo'lishidan qat'iy nazar shaxs ijtimoiylashuvi turli bosqichlarda amalga oshadi. Umumiy holatda bu bosqichlarni yosh davrlari bilan bog'lab ko'rsatish mumkin. Yoshni davrlashtirishning turli ko'rinishlari bor, ularning ayrimlarini ko'rib chiqamiz

Kichik maktab yoshi davri - 7 yoshdan 10 yoshgacha - o'qish;

Kichik o'smirlik davri -10 yoshdan 15 yoshgacha - shaxsning intim (dilkash, samimiy) muloqot;

Katta o'smirlik yoki ilk o'spirinlik davri - 16 yoshdai 17 yoshgacha; - yetakchi faoliyat - o'qish, kasb tanlash davri.

Yosh davrlari psixologiyasida bir necha kichik krizislar (inqirozlar) va katta krizislar mavjud. Yosh inqirozi - bu yosh bosqichlaridagi o'tish qiyinchiliklaridir. Kichik krizislarga quyidagilar kiradi:

1 yosh krizisi

7 yosh krizisi

17-18 yosh krizisi Katta krizislarga quyidagilar kiradi:

Chaqaloqlik krizisi

3 yosh krizisi

13-14 yosh krizisi Chaqaloqlik davri inqirozi Bu davrda muloqot emotsional-ijobiy xarakterga ega bo'lishi kerak. Bu esa bolada emotsional ijobiy xarakter, emotsional – ijobiy tonus shakllantiradi va bolada ham psixik, ham jismonan sog'lom bo'ladi.

Bolani onadan bu davrda ayirish bola psixik rivojlanishida jiddiy buzilishiga olib keladi va bu bolaning butun hayotigata'sir qiladi. Bolani onadan ayirish bilish jarayonlarining rivojlanishiga, emotsional rivojlanishiga ta'sir qiladi. 1 yosh inqirozi Bu davr rivojlanishining ijtimoiy situatsiyasi quyidagilardan iborat: bola – predmet – katta odam. Bu davrda bola diqqat e'tibori predmetga qaratilgan bo'ladi. Bundan tashqari bu davrda idrok, intellekt va nutq faoliyatlari rivojlanadi. 3 yosh inqirozi Bu davr krizisi haqida Elda Gepper —Uch yoshli bola shaxsi haqidal ilmiy ishida bir necha muhim belgilarni ko'rsatib o'tgan: Negativizm.

Kattalarning ba'zi talablariga bola umuman rioya qilmaydi.

- O'jarlik. Shaxsiy fikrga ega bo'lib, bola o'z fikri va talablarini qildiradi. U bilan hisoblashishini hohlaydi.
- Kattalarni tan olmaslik.
- Qarshilik – ota-onalar bilan urishishda namoyon bo'ladi.
- Mustaqillik. Mustaqillikka intilish.

Bu krizis davrida bolaning mustaqil faoliyat yurita olish, kattalarga taqlid qilish kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. 7 yosh inqirozi Bu davrda bola o'zligini yo'qotib qo'yadi. Maktabgacha ta'lim muassasidan yangi ijtimoiy muhit-maktabga keladi. Bu davrda bolaning intellektual va aqliy imkoniyatlari baholanadi. O'z-uzini baholash rivojlanadi. Bolaga bu vaqtda to'g'ri ijobiy – munosabatda bo'lish, mehr-muhabbat berish, bu krizisdan oson o'tishga yordam beradi. 13-14 yosh o'smirlik davri inqirozi O'smirlik davrida shaxs dunyoqarashi, muloqot doirasi kengayadi. Bu davrda o'smir uyatchan, tez hafa bo'luvchan, agressiv, keskin harakatlar qiluvchi bo'ladi. O'smirlik davrini bolani ikkinchi psixologik tug'ilishiga qiyoslasa bo'ladi. O'smir o'z —Menlini yo'qotib qo'yishdan qo'rqadi. Ko'pincha ota-onalar quyidagilardan norozi bo'ladilar, shikoyat qilishadi: Bolani maktabda va uyda o'zini tutishi (boshqarib bo'lmaydi, tarbiyasiz) Xarakteridan – agressiv, birinchi o'ringa o'z ehtiyojlarini qo'yadi. 17-18 yosh davri krizisi Bu davr krizisi maktab davri tugab, yangi katta hayotga qadam qo'yish bilan belgilanadi. 17 yosh krizisi turli xil qo'rquvlar bilan ham belgilanadi.

Qilingan tanlov to'g'riligini, yangi hayot, xatolar qilib qo'yish kabi qo'rquvlar juda kuchli bo'ladi. Yuqori xavotirlanish va qo'rquv nevroitik reaksiya, gastrit, neyrodermit, bosh og'rig'i, bosim (davleniye) va surunkali kasalliklarni keltirib chiqaradi. Har bir ota-onalarga, o'qituvchi-murabbiylarga yosh davrlari psixologiyasi, undagi inqirozlarni bilishlari tavsiya etiladi. Chunki bu inqiroz davri belgilarini bilib, bolaga to'g'ri munosabatda bo'lish, unga yo'l- yo'riqlar va maslahatlar berish mumkin. 6-9 yoshda bolada o'yin orqali anglash faoliyat dominant bo'ladi. Bola uchun o'yin olamni anglash uchun eng muhim usul hisoblanadi. O'yin orqali bola ijodiy va aqliy qobiliyatlarni rivojlantiradi, muomalaga kirishadi va yangi ijtimoiy rolini o'zlashtiradi. Ota-onalar va o'qituvchilarga: iloji boricha ijodiy o'yinlarni ko'paytiring. Bolani kun tartibini shunday taqsimlangki, o'yin uchun vaqt qolsin. 13-14 yoshda esa bolalar hamma narsani solishtirib o'rganadilar. Bu paytda bola hayotida tengdoshlari ko'proq rol o'ynaydi. U ko'pincha o'z muvaffaqiyatlarini boshqa bolalarniki bilan solishtiradi. Ko'pchilikda faqat bitta do'sti bilan muloqotda bo'lish ehtiyoji paydo bo'ladi. Ota-onalar va o'qituvchilarga: bolangizni sevishingizni aytishdan charchamang va bu olgan bahoriga bog'liq emasligini takrorlashdan charchamang. Uni maqtashni unutmang. Do'stona muloqot ehtiyojini hurmat qiling. 17 yoshda bolada muloqot ehtiyoji muhim o'rin egallaydi. Katta bo'lib qolgan bolaga do'stlar jamoasi, kollektiv olamda o'z o'rnini topish uchun kerak bo'ladi. O'qish endi muloqot uchun bahona. Ota-onalar va o'qituvchilarga: uning qarashlarini tanqid qilmang, sabr qiling, o'zlashtirishning pasayishidan cho'chimang. Bolaga vaqt bering, yaxshi o'qish uziga kerakligini tushunib anglab olsin.

Bola MTT yoshiga yetgach, uning psixik taraqqiyotida jiddiy o'zgarishlar yuzaga keladi. Chunki xuddi ana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati anchagina kuchaya boshlaydi. MTT yoshidagi bola mustaqil faoliyatda bo'la olishi uchun zarur bo'lgan ikkita qudratli kuchga ega. Birinchidan, ma'lum darajada o'ziga bo'ysundirilgan xarakter apparatiga, ikkinchidan esa, atrofidagi katta odamlar va o'z tengdoshlari bilan bir qadar erkin munosabatda bo'la oladigan nutqqa ega. Mana shuning uchun bu yoshdagi bolalarning xulq-atvorlari, xatti-xarakatlari, qiziqish va ehtiyojlari MTTgacha yoshdagi bolalarnikidan keskin farq qiladi. Bu esa, o'z navbatida, MTT yoshidagi bolalar bilan MTTgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga xam turlicha munosabatda bo'lishni taqozo qiladi. MTT yoshidagi davrda bolaning barcha psixik jarayonlari jadal rivojlana borib, uning tashqi muxit bilan bo'ladigan munosabatlarida anchagina o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bir tomondan, bola MTT yoshiga yetgach, kattalarning doimiy yordamlaridan ancha ozod bo'lib, ulardan bir qadar uzoqlashadi, ikkinchi tomondan, kattalar bilan bo'lgan munosabatlari murakkab, ko'p tomonlama xarakter kasb eta boshlaydi. MTT yoshidagi bolalarning psixik jihatdan

rivojlanishlarida ulara paydo bo'ladigan xilma-xil extiyoj va qiziqishlar bolalarni u yoki bu xarakatga undovchi, ularni ishga soluvchi (omil) xisoblanadi. Ma'lumki, ilk yoshdagi bolalarda (yangi chaqaloklarda) asosan organik extiyojlar (masalan: ovqatlanish, tashnalikni qondirish, uxlash kabi)lar mavjud bo'ladi. Bolaning faoliyat doirasi kengaygan sari atrofidagi narsalarni bilishga qaratilgan extiyojlari xam orta boradi. Bunga sabab bolada turmush tajribasining ozligidir. Xar bir narsa bola uchun yangilik bo'lib tuyuladi va bola uni xar tomonlama bilib olishga intila boradi. Shuning uchun xam ular juda ko'p savollar beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik jixatdan rivojlanishlarida MTT muhiti juda katta rol uynaydi. MTTdagi tartib, intizom va turli-tuman ta'limiy mashg'ulotlar bolalarda yuksak ijtimoiy, intellektual, axlokiy va gigiyenik extiyojlarning uyg'un ravishda yuzaga kelishi uchun sharoit tug'diradi. Psixologiya nuqtai nazaridan qaraganda, odatlar o'z mohiyati jihatidan extiyojga yaqin narsalardir. Boshqacha qilib aytganda, turlicha odatlar kundalik xayotda takrorlana berishi natijasida vujudimizga juda singib ketib, extiyojga aylanib qoladi. Shuning uchun bolalarda ijobiy va foydali extiyojlarni tarbiyalash deganda ulara ijobiy va foydali odatlarni xosil kilishni tushunamiz. MTT yoshidagi davrda xosil kilingan mustaxkam ijobiy odatlar (extiyojlar) kishining butun umri davomida saklanib koladi. MTT yoshidagi bolalarning psixik jixatdan rivojlanishlarida qiziqishning xam roli g'oyat kattadir. Qiziqish, xuddi extiyoj kabi, bolani biror faoliyatga undovchi (xarakatga soluvchi) omillardan biridir. Qiziqish deganda, biz voqelikdagi narsa va xodisalarni birmuncha chuqurrok bilishga qaratilgan maxsus intilishni tushunamiz. Demak, qiziqish bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan xar bir shaxsning murakkab sifatidir. MTT yoshidagi bolalar xamma narsalarga birdek qiziq bermaydilar. Ular ayrim narsalarga ko'prok, boshka bir narsalarga kamroq qiziqadilar. Lekin bogcha yoshidagi bolalarning qiziqishlari katta odamlardagi kabi bir narsaga nisbatan qat'iy xamda mustahkam bo'lmay, bir narsadan ikkinchi bir narsaga tez-tez o'tib turadi. Bundan tashqari, MTT yoshidagi bolalarning qiziqishlari juda tarqoq va yuzaki bo'ladi. Ular narsa va xodisalarning moxiyati yoki natijalariga emas, balki shu narsa va xodisalarning o'zigagina qiziqadilar. Shu sababli MTT yoshidagi bolalarda asosan beqaror va bevosita qiziqishlar ustun turadi. Tarbiyachi MTTda turli mashg'ulotlar, ekskursiyalar, suhbatlar o'tkazish va kitoblar o'qib berishi va bolalarda markazlashgan barqaror qiziqishlarni yuzaga keltirishga xarakat qilishlari lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning bolalar muassasalari sharontlariga moslashuvining o'ziga xos xususiyatlari. Bola hayotning uchinchi yilida maktabgacha ta'lim muassasasiga qabul qilinishi undan shu paytgacha shakllanib bo'lgan yurish-turish stereotipini o'zgartirishni talab qiladi. Ham bolaning sog'ligi, ham har tomonlama rivojlanishi borasida biror-bir noxush hodisalar paydo

bo'lishini bartaraf etish uchun ijtimoiy pedagoglar ta'lim muassasalari ishini takomillashtirish borasida yordam ko'rsatishlari va bolshgar hayotini har tomonlama qulay tashkil qilishda ishtirok etishlari zarur.

Bu yoshdagi bolalarning xususiyatlari:

organizm barcha tizimlarining funksional yakunlanmaganligi va ular rivojlanishining nihoyatda tez sur'atidir;

jismoniy va ruhiy rivojlanishning o'zaro bog'liqligi;

go'dak hayotining birinchi yillarida kattalarning o'rni. Bola tug'ma yurish-turish shakllariga ega emas va ijtimoiy muhitda rivojlana turib, u uch asosiy komponentni: hudud (narsa-predmetlar, ulardan foydalanish vositalari), vaqt (kundalik tartib)ga muomala shakllarini o'zlashtiradi. Demak, bola tug'ilishdanoq, uning faolligi "bola-kattalar" munosabatlari ichida tartibga solinadi.

Yosh bolalar yurish-turishining xarakterli jihati yuqori hissiyotchanlikdir. Bolaning emotsional holati uning rivojlanishi va tarbiyalanganligi darajasiga bog'liq. Atrof-muhit va odatiy hayot tarzining buzilishi, birinchi navbatda, emotsional holatnng buzilishiga olib keladi.

O'yin bola faolligining asosiy va o'ziga xos shaklidir. Bu o'sib ulg'ayayotgan bola organizmining tabiat, atrof-muhit obyektlari haqida ma'lumot yig'ishiga, kattalarga taqlid qilishiga, faol harakat qilishiga ehtiyoj, uning muhit bilan o'zaro aloqasi shakllanadigan faoliyat turidir. O'yinlarda bola bajara olmaydigan talablar qo'yilmaydi. Bundan kelib chiqadiki, o'yin bola hayoti, madaniyati va faoliyatini tashkil qilish shakli sifatida uning yangi muhitga ko'nikish shartidir.

Yuqorida aytilganlarni barchasini inobatga olib, ijtimoiy pedagogning ta'lim muassasida bolalarning muvaffaqiyatli adaptatsiyasiga qaratilgan faoliyati quyidagilardan iborat, desak bo'ladi:

1. Adaptatsion boyeqichining kechishini og'irlashtiruvchi va bolalarning kasallanish darajasini oshiruvchi yetakchi biologic va ijtimoiy omillarning kompleks tuzilmasini aniqlash.

Kompleks usullardan foydalangan holda adaptatsion bosqichni tahlil qilish.

Adaptatsion bosqich kechishini yengillashtiruvchi va salomatlik holatini saqlashga yordam beruvchi chora-tadbirlarni izlash va ishlab chiqish.

Ijtimoiy adaptatsiya bolaning ruhiyatida jo'shqinlikni paydo qilmasdan iloji yo'q. Buning ilk namoyon bo'lish shakllari emotsinal holatning buzilishidir.

Ijtimoiy pedagog bolalarning ko'nikish darajasini aniqlashi uchun quyidagi tasnifga tayanishi lozim:

Yengil adaptatsiya — bolaning yurish-turishi 10—15 kun ichida meyoriy holatga qaytadi. Bola maktabgacha ta'lim muassasasiga qatnay boshlaganidan so'ng bir oy o'tgach, o'zini meyorda tuta boshlaydi.

O'rta adaptatsiya — bolaning yurish-turishi yoki emotsional holatidagi o'zgarishlar 15 — 30 kun ichida meyoriy holatga qaytadi. Agar avval unda ozish kuzatilgan bo'lsa, keyinchalik u o'z vaznini tiklab oladi. Maktabgacha ta'lim muassasasiga qatnay boshlagach, bir oy mobaynida u bir marotaba yengil kasallikka chalinadi va 7 — 10 kun maktabgacha ta'lim muassasasiga kelmasligi mumkin.

Og'ir adaptatsiya shunda namoyon bo'ladiki, bolalarda tez- tez qaytadan kasal bo'lish kuzatiladi. Kasalliklar ba'zi hollarda jiddiy tus olishi mumkin (bronxit, pnevmaniya). Bu holatda adaptatsiya bir oydan ziyod vaqtga cho'ziladi, rivojlanish va salomatlik ko'rsatkichlarida noxush holatlar ham namoyon bo'lishi mumkin.

Adaptatsiyaning noxush holatlarini maksimal darajada bartaraf etish uchun ijtimoiy pedagog bolaning 9 oyligidan 1,5 yoshga to'lgunigacha mikro ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlarni og'ir o'tkazishini inobatga olishi lozim. Shushshgdek, boladagi adaptatsiya jarayonini oilaviy tarbiyaning quyidagi kamchiliklari ham og'irlashtirishi mumkin:

- noto'g'ri ovqatlanish;
- bolani noto'g'ri belash;
- salbiy odatlar;
- yoshiga mos kelmaydigan ko'nikmalar.

Ijtimoiy pedagog faoliyati uch bosqichdan iborat bo'lishi kerak: tashxis, tayyorlov, amaliyot.

Idaimoiy-gigiyenik jihatlariga bag'ishlangan tadqiqotlarda emizikli va maktabgacha yoshdagi bolalarning adaptatsiya davrida bir qator muhim parametrlar kasallanish, yurish-turish, ruhiy rivojlanishidagi o'zgarishlarni e'tiborga olish kerakligi ta'kidlanadi.

Birinchi bosqich patronaji xaritasi:

1. Ota-onasi haqida ma'lumotlar:

- otasi (F.I.SH., tug'ilgan yili, mansabi, ish joyi);
- onasi (F.I.SH., tug'ilgan yili, mansabi, ish joyi);
- onasida homilaning kechishi va bola tug'ilishi.

2. Maishiy sharoitlari:

- istiqomat qiluvchilar soni;
- yashagya joyiga baho berish (qulayliklari);
- yuvinish moslamalari;
- yashash joyi havosining tozaligi;

- bola bilan birga yashayotgan bolalar qaysi muassasalarga qatnashadi?

3. Bola haqida ma'lumotlar:

- yoshi;
- sog'ligi;
- bolaga kim g'amxo'rlik qiladi?
- bolaning kun tartibi qanaqa?
- u alohida xona, krovatga egami?

4. Bedorlik vaqti:

bola bedorlik vaqtini qanday utkazadi?

uyg'oqlik davrining uzunligi;

sevimli o'yinchoqlari;

kiyinish-yechinish, yuvinish jarayonlariga munosabati;

kattalarning bolaga munosabatlari;

bolaning kattalarga munosabati;

bola bilan tez-tez sayr qilishadimi?

5. Ovqatlanish:

ovqatlanish tartibiga amal qilinadimi?

bola nima yeydi?

nima yordamida ovqatlantirishadi (butilkami, qoshiqdami) —bolaning ishtahasi, faolligi.

7. Uyqu:

bolani uxlatishda o'zini tutishi;

uyqudagi kiyimi;

bola qanday uxlab qoladi (tez, tinch)?

kuniga necha marta, qancha uxlaydi?

uyqu xarakteri va uzunligi;

qanday uyg'onadi (tinch, yig'i bilan)?

bola kunduzi qayerda uxlaydi (krovat, xona, ko'cha)?

tunda qanday uxlaydi?

bolani uxlatish uchun unga so'rgich berishadimi?

Adaptatsiya varaqasida (qarang: 1-jadval) bolaning hissiy holati, ishtahasi, uyquasi inobatga olinadi. Shunipgdek, varaqada bolaning kattalar va boshqa bolalar bilan munosabati, uning individual xususiyatlari ham qayd etiladi. Bu usuldan foydalanilganda adaptatsiya bosqichining tugashi dsb, shartli ravishda, bola yurish-turishining normallashuvi olinadi.

15 – MAVZU: UMUMTA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHI-QIZLARINING IJTIMOIIY FAOLLIGINI OSHIRISH USULLARI VA METODLARI.

REJA:

1. Umumta'lim maktablari o'quvchi qizlarining ijtimoiy faolligini oshirish dolzarb ijtimoiy muammo sifatida.
2. Ijtimoiy faollik tushunchasining mazmun mohiyati.
3. Tarbiyaviy ishlar jarayonida o'quvchi qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish shakl, metod va vositalari.

Tayanch so'zlar: umumta'lim maktabi, o'quvchi-qizlar, ijtimoiy faollik, usul, metod.

1. Umumta'lim maktablari o'quvchi qizlarining ijtimoiy faolligini oshirish dolzarb ijtimoiy muammo sifatida

Jamiyatdagi takomillashish jarayonida yoshlar ijtimoiy faolligining ortishi dolzarb masala. Chunki yoshlarni to'g'ri yo'lga yo'naltirish har bir ziyoli insonning burchidir. Ma'lumki, jamiyat taraqqiyoti – ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy jihatlarni o'zida qamrab oladi. Jamiyatda yashovchi yoshlar ana shu sohalarining barchasida ijtimoiy faollik ko'rsatishi hayotiy zaruriyatdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek: “Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar xalqimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu o'zgarishlarning dastlabki natijalari aholimiz hayoti va kundalik turmushida o'zining yaqqol ifodasini topmoqda, el-yurtimizning ijtimoiy faolligi, ertangi kunga ishonchi o'sib bormoqda”.

Faollik, ijtimoiy va ilmiy bilim, huquqiy me'yorlar va majburiyatning mujassamlashuvi natijasi shaxsda ifodalanadi. Bu tarkiblarning sifati, ya'ni bilimlarni qay darajada o'zlashtirilganligi, ularning odatga aylantirilganligi faollikning namoyon etish darajasini belgilaydi. Ijtimoiy hamda siyosiy psixologik nuqtai nazardan faollik: - yorqin ifodalangan faollik; - shunchaki ifodalangan faollik; - ifodalanmagan faollik kabi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Faollikni ifoda etishni nazariy jihatdan quyidagilarga ajratish mumkin: reproduktiv o'xshatuvchi-faollik (shaxsiy tajriba yetarli emasligi natijasida, tajriba orttiruvchi vosita sifatida ifodalanadi); izlanuvchi-ta'minlovchi faollik (amaliyotda yuqori faollik va erkinlik kuzatiladi); ijodiy faollik (bilish faolligining oliy darajasi).

2. Ijtimoiy faollik tushunchasining mazmun mohiyati.

“Ijtimoiy faollik” keng qamrovli tushuncha bo'lib, u talaba yoshlarning ta'lim-tarbiya, ilm-fan sohasidagina emas, balki madaniyat, san'at, siyosat, huquq kabi sohalarda ham faol bo'lishini anglatadi. Demak, “ijtimoiy faollik” o'zining tub mohiyatiga ko'ra, kishilar jamiyat hayotining iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, sotsial va boshqa sohalaridagi faolligini ifodalaydi. Bozor munosabatlari va

yangicha dunyoqarash shaxsning ijtimoiy faolligi strukturasi ma'naviy-intellektual, ijtimoiy-siyosiy faollik yetakchi va hal qiluvchi element ekanligini ko'rsatdi.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da “Ijtimoiy faollik”ga shunday ta'rif berilgan: “Faollik mehnatda yoki biror harakatda, jarayonda jadallik, jonbozlik ko'rsatish, ishchanlik, ta'sirchanlik” dir. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda jamiyat taraqqiyotiga daxldor bo'lgan barcha tashkilotlar va ijtimoiy harakatlar, tuzilma va sub'ektlar bab-baravar mas'ul hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlarni birlashtirgan maxsus ijtimoiy harakatning bu jarayondagi o'rni o'zgacha. Bunda, eng muhimi, aholining yoshlardan iborat qatlamiga xos bo'lgan qiziqish va intilish, orzu-umid, his-tuyg'u, maqsad va manfaatlarning mavjudligidir. Demak, ijtimoiy faollik shaxsning o'ziga xos qobiliyati ekan, guruh sharoitida tashkil etiladigan to'g'ri muloqot va samimiy muhit, bahs va tortishuvlarning omilkorona yo'lga qo'yilishi bunda katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Umumta'lim maktablari o'quvchi-qizlarining ijtimoiy faolligini rivojlantirishda, ularda hayotga, milliy-madaniy merosimizga nisbatan faol munosabatni shakllantirish, ularning ma'naviy sog'lom, ruhan tetik rivojlanishi uchun ta'lim jarayonida zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadga muvofiq. Bu jarayonda esa insonning o'zligini anglashi muhim sanaladi. CHunki, inson o'zligini ro'yobga chiqarishi o'ziga bog'liq ekanligini qancha tez tushunib yetsa, u hayotga shunchalik chuqurroq qaraydi, oldiga muhim maqsadlar qo'yadi. Umumta'lim maktablari o'quvchi-qizlarini tarbiyalashda ular ruhiyatiga o'z-o'zini anglash tuyg'ularini singdirish orqali ijtimoiy yetuklikka erishuvini ta'minlash muhimdir. CHunki, bu tuyg'u insonning ma'naviy shakllanishi jarayonida voyaga yetadi. O'quvchi-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda ijtimoiy faollik elementlarini milliy qadriyatlarimiz orqali rivojlantirishda xalqimizning ko'p yillik ana'nalari, madaniyati, urf-odatlar, milliy bayramlari, boy qadimiy merosi o'zining alohida o'rni, ahamiyatiga ega.

Ijtimoiy faollik tushunchasining mazmun mohiyati. Tarbiyaviy ishlar jarayonida o'quvchi qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularda milliy iftixor, milliy g'ururni shakllantirish va mustahkamlash zarur. Aqliy zakovat, ruhiy, ma'naviy kamolot, insofu diyonat, muruvvat, mehr-oqibat – bular barchasi ma'rifatli, ma'naviyatli insonlarning asosiy fazilatlari sanaladi. Ana shu fazilatlarni o'quvchi qizlarimizda shakllantirish bugungi kunning muhim vazifasidir. Hozirgi globallashtirish jarayonida hayoli, iboli, odobli, intizomli, mas'uliyatli, sabr-bardoshli, diyonatli, vijdonli, iymonli, e'tiqodli, bag'rikeng, insonparvar, ijtimoiy faol va shu kabi oliyjanob fazilatlar egasi bo'lgan yoshlarga yashash uchun zarur bo'lgan barcha qulayliklarni vujudga keltirishga qodir bo'la oladilar. Ijtimoiy taraqqiyotning demokratik rivojlanish jarayoni shaxsning o'z-o'zini anglashi, qadr-qimmatini qay darajada e'zozlashi, jamiyat uchun xizmat qila olish imkoniyati va

harakatlariga ham bevosita bog'liq. Bularning barchasi shaxsning ijtimoiy faolligi bilan bog'liq. Yoshlarning ijtimoiy faollashuvi, deganda ularning ijtimoiy jarayonlarda ongli ravishda, mustaqil ishtirok etishlari, zarur bo'lganida, ijtimoiy munosabatlarni o'zgartirishga tashqaridan bo'ladigan bosimsiz ko'maklashishga intilishlari tushuniladi. Mas'uliyat ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning yetukligini belgilovchi muhim ko'rsatkichlardan sanaladi. Ijtimoiylashuvning mas'uliyat hissiga bog'liq yo'nalishlaridan yana biri shaxsda shakllanadigan maqsad va ideallardir. Ular shaxsni kelajakni bashorat qilish, ertangi kunini tasavvur qilish va uzoq-yaqinga mo'ljallangan rejalarni amalga oshirishga tayyorligini ta'minlaydi. Maqsad va rejasiz inson ma'naviyatsiz pessimistdir. Bu maqsad doimo o'zining anglanganligi va shaxs real imkoniyatlariga bog'liqligi bilan xarakterlanadi. Ularning shakllanishi va ongda o'rnashishida ma'lum ma'noda ideal ham rolni o'ynaydi.

3. Tarbiyaviy ishlar jarayonida o'quvchi qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish shakl, metod va vositalari.

O'quvchi qizlar intellektual kamolotini yuksaltirish uchun istiqbolda qaysi omillarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq? Birinchidan, o'quvchi qizlarning erkin fikrlashiga ahamiyat berish, ularni qiziqqan fan sohalariga ilmiy-ijodiy yo'naltirish; ikkinchidan, o'quvchi qizlarning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish, ilmiy salohiyatli o'quvchi qizlarni turli tanlov, olimpiada, ko'riktanlovlarda qatnashishlariga ko'maklashish; uchinchidan, o'quvchi qizlarda yangicha tahlil qilish qobiliyatini, tizimli tahlil va falsafiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida o'qitishning innovatsion tizimiga o'tish, o'quv jarayonida olingan bilimlarni mustahkamlash va amaliyotda qo'llashga sharoit yaratish; to'rtinchidan, o'quvchi qizlarni faol yaratuvchanlik faoliyatiga keng jalb etish, respublika va xalqaro miqyosda o'tkaziladigan tanlovlarda dolzarb va istiqbolli innovatsion loyihalar bilan ishtirok etishlariga yordamlashish kabilarga jalb etish maqsadga muvofiqdir.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Umumta'lim maktablari o'quvchi qizlarining ijtimoiy faolligini oshirish qanday ijtimoiy muammolari mavjud?
2. Ijtimoiy faollik tushunchasining mazmun mohiyatini yoritng.
3. Tarbiyaviy ishlar jarayonida o'quvchi qizlarning ijtimoiy faolligini amalga oshirishning qanday shakl, metod va vositalarini bilasiz?

TESTLAR

1. Ijtimoiy pedagogikaning tadqiqot ob'ekti nima?

- A) Bola tarbiyasi
- B) Bolaning ijtimoiylashuv jarayoni
- C) Ta'lim metodlari
- D) Jamiyat rivojlanishi

To'g'ri javob: B

2. Ijtimoiy pedagogika qaysi fanlardan tashkil topgan?

- A) Falsafa va psixologiya
 - B) Falsafa va pedagogika
 - C) Sotsiologiya va pedagogika
 - D) Biologiya va sotsiologiya
- To'g'ri javob: C**
-

3. Ijtimoiy pedagogikaning asosiy vazifasi nima?

- A) Fanlarni o'rgatish
 - B) Bola va yoshlarning ijtimoiylashuviga yordam berish
 - C) Ma'lumotlarni jamlash
 - D) Davlat iqtisodiyotini rivojlantirish
- To'g'ri javob: B**
-

4. "Avesto" da keltirilgan uch asosiy axloqiy mezon qaysilar?

- A) Yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi amal
 - B) Adolat, sabr, muhabbat
 - C) Halollik, mehribonlik, rahm-shafqat
 - D) Axloq, bilim, mahorat
- To'g'ri javob: A**
-

5. Ijtimoiy pedagogikaning "ijtimoiy rehabilitatsion vazifasi" nimani o'z ichiga oladi?

- A) Qiyin sharoitda yashayotgan bolalar va nogironlarga yordam ko'rsatish
 - B) Siyosiy ta'limni rivojlantirish
 - C) Falsafiy qarashlarni shakllantirish
 - D) Davlat islohotlarini amalga oshirish
- To'g'ri javob: A**
-

6. Ijtimoiy pedagogikaning O'zbekistondagi rivojlanishiga kimlar katta hissa qo'shgan?

- A) Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino
 - B) Abdulla Avloniy, Munavvar Qori
 - C) Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur
 - D) Abu Nasr Forobiy, Mahmudxo'ja Behbudiy
- To'g'ri javob: B**

7. "Ijtimoiy pedagogika" atamasi nimani anglatadi?

- A) Jamiyatni o'rganish ilmi
 - B) Bolalar ta'limi va tarbiyasiga oid tadqiqotlar majmuasi
 - C) Jamiyatda insonlarni tarbiyalash va ijtimoiylashtirish fani
 - D) Bolalarning huquqlarini himoya qiluvchi tizim
- To'g'ri javob: C**

8. Ijtimoiy pedagogikaning asosiy nazariy vazifasi nimadan iborat?

- A) Amaliy tadbirlarni tashkil qilish
 - B) Ijtimoiy pedagogik jarayonlarni nazariy yoritib berish
 - C) Tarbiya usullari ishlab chiqish
 - D) Jamiyatni ijtimoiy muammolaridan xalos etish
- To'g'ri javob: B**

9. Oila qaysi ijtimoiy institutga kiradi?

- A) Madaniyat
 - B) Ta'lim
 - C) Oila
 - D) Diniy institut
- To'g'ri javob: C**

10. Ijtimoiy pedagogikaning asosiy tadqiqot metodi qaysi?

- A) Statistika tahlil
 - B) Eksperiment
 - C) Kuzatuv va diagnostika
 - D) Modellash
- To'g'ri javob: C**

11. Ijtimoiy pedagogikaning boshqa pedagogik fanlardan farqi nimada?

- A) Faqat bolalar bilan shug'ullanishi
 - B) Ijtimoiy muammolarni tarbiyalash jarayoniga qo'shishi
 - C) Tezkor metodlardan foydalanishi
 - D) Qonun va huquqlarni o'rgatishi
- To'g'ri javob: B**
-

12. Bolaning ijtimoiylashuvida qaysi omil muhim?

- A) Faqat ta'lim
- B) Mikro muhit va tarbiya
- C) Jamiyatdagi harakatlar
- D) Diniy targ'ibot

To'g'ri javob: B

13. "Avesto" da yaxshi amal nimani ifodalaydi?

- A) Qonunlarga rioya qilish
- B) Ezgu niyatlar asosida yashash
- C) Yaxshi so'z va xatti-harakatlar bilan yashash
- D) Yomonlikka qarshi kurash

To'g'ri javob: C

14. Ijtimoiy pedagogikaning asosiy maqsadi nima?

- A) O'quv dasturlari yaratish
- B) Jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni bartaraf etish
- C) Tarbiyalanuvchilarni har tomonlama ijtimoiylashtirish
- D) Madaniyatni rivojlantirish

To'g'ri javob: C

15. Ijtimoiy pedagoglar qaysi guruhlar bilan ishlaydi?

- A) Faqat bolalar bilan
- B) Nogironlar, yoshlar, qariyalar va bolalar
- C) Faqat davlat xodimlari bilan
- D) O'qituvchilar va shifokorlar bilan

To'g'ri javob: B

16. Ijtimoiy pedagogikaning asosiy tarbiyaviy vositasi nima?

- A) Axloqiy qadriyatlar
- B) Fikr va mulohazalar
- C) Falsafiy bilimlar
- D) Madaniy dasturlar

To'g'ri javob: A

17. Ijtimoiy pedagogikaning tarixi O'zbekistonda qachon tiklandi?

- A) XIX asrning boshlarida
 - B) XX asrning 90-yillarida
 - C) XVII asrning o'rtalarida
 - D) XX asrning 20-yillarida
- To'g'ri javob: B**
-

18. O'zbek ma'rifatparvarlari qaysi g'oyalarni ilgari surishgan?

- A) Texnologik rivojlanish
 - B) Jamiyatdagi tenglik va adolat
 - C) Bolalarni go'daklikdan tarbiyalash
 - D) Siyosiy yondashuv
- To'g'ri javob: C**
-

19. Bolalarni ijtimoiylashuvi uchun qaysi yosh davri juda muhim?

- A) 3 yoshgacha
 - B) 5 yoshgacha
 - C) 10 yoshdan keyin
 - D) 15 yoshdan keyin
- To'g'ri javob: B**
-

20. Ijtimoiy pedagogikaning asosiy tamoyili nima?

- A) Tezkor qarorlar qabul qilish
 - B) Ma'rifiy va tarbiyaviy jarayonlarni uyg'unlashtirish
 - C) Qattiq intizomni ta'minlash
 - D) Tarixiy jarayonlarni o'rgatish
- To'g'ri javob: B**
-

21. Ijtimoiy pedagogikaning tadqiqot predmeti nima?

- A) Ta'limni rivojlantirish usullari
 - B) Bolaning ijtimoiylashuvi qonuniyatlari
 - C) Ijtimoiy institutlar faoliyati
 - D) Pedagogik metodlarning tahlili
- To'g'ri javob: B**
-

22. Jamiyatdagi asosiy ijtimoiy institutlardan biri qaysi?

- A) Oila
 - B) Biznes
 - C) Hukumat
 - D) Axborot texnologiyalari
- To'g'ri javob: A**
-

23. Ijtimoiy pedagogikaning ijtimoiy institutlarga bog'liqligi qaysi jarayon orqali namoyon bo'ladi?

- A) Ta'lim dasturlarini takomillashtirish
 - B) Ijtimoiylashtirish jarayoni
 - C) Iqtisodiy rivojlanish
 - D) Huquqiy islohotlar
- To'g'ri javob: B**
-

24. "Mehribonlik uylari"da olib boriladigan ishlar qaysi soha bilan bog'liq?

- A) Tibbiyot
 - B) Ijtimoiy pedagogika
 - C) Iqtisodiyot
 - D) Falsafa
- To'g'ri javob: B**
-

25. Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida shakllanishiga qaysi davlatlarda katta e'tibor qaratilgan?

- A) Rossiya va Germaniya
 - B) Hindiston va Xitoy
 - C) AQSh va Kanada
 - D) O'zbekiston va Tojikiston
- To'g'ri javob: A**
-

26. "Ijtimoiy pedagogika" fani qaysi ijtimoiy muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan?

- A) Texnologik islohotlar
 - B) Kambag'allik, bolalar nazoratsizligi va jinoyatchilikni kamaytirish
 - C) Siyosiy islohotlarni amalga oshirish
 - D) Yangi kasblarni rivojlantirish
- To'g'ri javob: B**
-

27. "Avesto" da insonni kamolga yetkazuvchi asosiy tamoyillar nima?

- A) Axloqiy poklik va ilm
- B) Yaxshi fikr, soʻz va amal
- C) Diniy koʻrsatmalar
- D) Tezkor ish faoliyati

Toʻgʻri javob: B

28. Ijtimoiy pedagogik faoliyatda asosiy narsa nima?

- A) Bolalarni nazorat qilish
- B) Ularni jamiyatga moslashtirish
- C) Jamiyatga xizmat qilishni oʻrgatish
- D) Fikrlarni shakllantirish

Toʻgʻri javob: B

29. Oʻzbek maʼrifatparvarlari taʼkidlagan eng muhim tarbiyaviy jarayon nima?

- A) Axloqiy tarbiya
- B) Texnologik taʼlim
- C) Siyosiy tarbiya
- D) Tabiiy bilimlarni oʻrgatish

Toʻgʻri javob: A

30. Ijtimoiy pedagogikaning insonparvarlik vazifasi qanday?

- A) Ijtimoiy huquqlarni targʻib qilish
- B) Bolani oʻz qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berish
- C) Iqtisodiy jarayonlarga koʻmaklashish
- D) Din va falsafa boʻyicha maslahatlar berish

Toʻgʻri javob: B

31. Ijtimoiy pedagogikaning amaliy vazifasi nimani oʻz ichiga oladi?

- A) Falsafiy yondashuvlarni targʻib qilish
- B) Ijtimoiy muammolarni tahlil qilish va hal qilish
- C) Faoliyatni moliyalashtirish
- D) Ilmiy tadqiqotlarni targʻib qilish

Toʻgʻri javob: B

32. Qaysi mutafakkir ijtimoiy pedagogikaning "ijtimoiy tarbiya falsafasi"ni ilgari surgan?

- A) Abu Ali Ibn Sino
- B) Alisher Navoiy
- C) A.V. Mudrik
- D) Farobiy

To'g'ri javob: C

33. Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida paydo bo'lishiga qaysi tarixiy sharoitlar asos bo'lgan?

- A) Zardo'shtiylik dinining tamoyillari
- B) Ijtimoiy muammolarning yechimini izlash ehtiyoji
- C) Siyosiy mustaqillik uchun kurash
- D) Texnologik rivojlanish jarayonlari

To'g'ri javob: B

34. Ijtimoiy pedagogning kasbiy vazifalaridan biri qaysi?

- A) Ijtimoiy yordam ko'rsatish metodlarini ishlab chiqish
- B) Ma'lumotlarni qayta ishlash
- C) Siyosiy islohotlar olib borish
- D) Tibbiy yordam tashkil qilish

To'g'ri javob: A

35. "Yosh psixologiyasi" ijtimoiy pedagogikaga qanday bog'liq?

- A) Faqat bolalarning fiziologiyasini o'rgatadi
- B) Bolalar va o'smirlarning psixologik rivojlanishini o'rganadi
- C) Pedagogik metodlarni rivojlantiradi
- D) Huquqiy hujjatlar bilan bog'liq

To'g'ri javob: B

36. Ijtimoiy tarbiyaning asosiy maqsadi nima?

- A) Ijtimoiy institutlarni mustahkamlash
- B) Shaxsni ijtimoiy jihatdan rivojlantirish
- C) Fikrlar almashinuvi tashkil qilish
- D) Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish

To'g'ri javob: B

37. Ijtimoiy pedagogikaning rivojlanishiga qaysi muammolar to'siq bo'lgan?

- A) Jamiyatdagi iqtisodiy qiyinchiliklar
- B) Sovet davridagi ijtimoiy muammolarni inkor qilish
- C) Kadrlarning yetishmasligi
- D) Fan-texnika taraqqiyoti

To'g'ri javob: B

38. Bola ijtimoiylashuviga qanday omillar ko'proq ta'sir qiladi?

- A) Jamiyat qonunlari
- B) Oila, ta'lim, madaniyat
- C) Tabiat va texnologiya
- D) Siyosiy institutlar

To'g'ri javob: B

39. Ijtimoiy pedagogikaning asosiy nazariyalaridan biri nimaga asoslanadi?

- A) Sotsiologik usullarni qo'llash
- B) Ijtimoiy muhitning ta'sirini o'rganish
- C) Pedagogik metodlarni rivojlantirish
- D) Axborot texnologiyalarini targ'ib qilish

To'g'ri javob: B

40. Ijtimoiy pedagogikaning asosiy tamoyillari qaysi sohada joriy qilinadi?

- A) Faqat ta'lim jarayonida
- B) Har tomonlama insonparvarlik faoliyatida
- C) Siyosiy va iqtisodiy islohotlarda
- D) Falsafiy qarashlarda

To'g'ri javob: B

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz (1-jild). – Toshkent: O'zbekiston. NMIU, 2017.
2. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent.: O'zbekiston. NMIU, 2016,

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalkimiz bilan birga quramiz. - Toshkent.: O‘zbekiston. 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - T.: O‘zbekiston. 2017.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi Farmoyishi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil, 13 yanvar.
6. O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni O‘RQ-406-son.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami). – T.: 2017.
8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.: O‘zbekiston. 2019 yil.
9. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi 637-son Qonuni
10. O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 2 yanvardagi “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi O‘RQ-364-son Qonuni
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 12 aprelidagi 171-sonli Qaroriga 3-ilovasi «Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to‘g‘risida»gi Nizomi
13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 25 yanvaridagi 33- sonli «Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo‘naltirilgan tarzda qo‘llab-quvvatlashning 2002-2003 yillarda mo‘ljallangan dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 21 avgustidagi 179-sonli “Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to‘g‘risidagi Nizom
15. Sh.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O‘zbekiston 2017 yil.
16. Mahallada diniy ma’rifat va ma’naviy-axloqiy tarbiya ishlarini tashkil etish. - T.: O‘zbekiston. 2006 yil.
17. Bolalarning oiladagi ichkilikbozlikka qarshi kurashi. Metodik tavsiyalar G’ L.V.SHishkova.-T.:UzNIIPN, 1990 yil.
18. Abdurauf Fitrat. Oila yoki uni boshqarish tartiblari.-T: Ma’naviyat, 2000 yil.
19. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2006 yil.
20. N.Egamberdiyeva. Ijtimoiy pedagogika. T.: 2009 yil
21. Galaguzova M.A. Ijtimoiy pedagogik faoliyat texnologiyasi va metodikasi.: Akademiya 2002 yil
22. Giyohvandlik profilaktikasi bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. - T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti.: 2003 yil
23. Hasanboeva O. va boshqalar. Oila pedagogikasi. - T. Aloqachi, 2006 yil
24. Hasanboeva O. va boshqalar. Pedagogika tarixi - T.: O‘qituvchi, 2001 yil.
25. Hojiahmedov A. Mahalla odobi. - T.: Sharq, 2001 yil.
26. Hoshimov va boshqalar. Pedagogika tarixi. - T: O‘qituvchi, 1996 yil.
27. Hoshimov, S. Ochil. – O‘zbek pedagogikasi antologiyasi.T.: O‘qituvchi, 1995 yil
28. Jamilov Sh. Mahalla yangilanish yo‘lida. - T.: Mehnat, 1995 yil.
29. Kolesov. Ichkilikbozlikka qarshi tarbiya haqidagi suhbatlar.-M., 1987 yil.
30. Muratova, P.I.Sidorov. Maktabda ichkilikbozlikka qarshi tarbiya.: Arxangelbsk, 1997 yil.
31. Mavlonova R. Vohidova N. Ijtimoiy pedagogika. T.:2007 yil.
32. Mavlonova R, To‘raeva R, Xoliqberdiev K. Pedagogika. 2001 yil.
33. Maxmudov R.M. Dushanov R.X. Pedagogika. Maruzalar kursi. T. 2014 yil.

34. Munavvarov A.Q. Oila pedagogikasi. - T.: O'qituvchi; 1996 yil.
35. Munavvarov A.Q. Pedagogika. – T.: O'qituvchi. 1996 yil.
36. Musurmonova O. Oila ma'naviyati. T.: O'qituvchi, 1999 yil.
37. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. - T.: O'qituvchi, 1996 yil.
38. Nikolaeva L.P. Maktabda Giyohvandlik profilaktikasi darslari-M.: Moskva Psixologo-sos. Isntituti nashriyoti: Voronej: MODEK, 2003 yil
39. Nizomiy nomidagi TDPU. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. T.: 2013 yil.
40. Quronov M. Qurbaniyazova Z. Ijtimoiy pedagogika. (ma'ruza matni) T.:2003 yil.
41. Saidnozarova F. O'zbek oilasi: ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlar. - T.: Yurist-media markazi, 2007 yil.
42. SH.Qurbonov, E.Seytxalilov, Giyohvandlikni oldini olishda ta'limning ma'suliyati-T.2003 yil.
43. SHaripova, V.G.CHernikov, Yosh avlodning Giyohvandlikka qarshi tarbiyasi – T.:O'qituvchi, 1991 yil.
44. To'laganova G. Q. Tarbiyasi qiyin o'smirlar. - “Universitet” nashriyoti, 2005 yil.
45. Toxtaxodjaeva M va boshqalar. Pedagogika. - T.: Moliya-iqtisod, 2008 yil.
46. Vasilkova, T.A.Vasilkova. Ijtimoiy pedagogika.-M.:Prosvehenie, 2003 yil
47. Xodjayev B.B. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. T.: 2017 yil
48. Yo'ldoshev J.G'. Ta'lim yangilanish yo'lida. – T.: O'qituvchi. 2000 yil.
49. Ziyomuxammedov B. Pedagogik mahorat asoslari. 2009 yil.
50. Zununnunov A. Pedagogika tarixi. T. 2004 yil.
51. Андреева Г. М. Социальная психология.- М., 1988 г.
52. Бочарова В. Социальная педагогика. - М.: 1994 г.
53. Василкова Ю. В., Василкова Т. А. Социальная педагогика.-М.:2003 г.
54. Галагузова М.А. Социальная педагогика – М.: Владос, 2000 г.

55. Дети с отклонениями в развитии: Метод.пособие для педагогов, воспитателей массовых и спец.учреждений и родителей. - М.: 1997 г.
56. Ибрагимов Х, Абдуллаева Ш. Педагогика назарияси – Т.: Фан ва техналогия, 2008 yil
57. Клейберг Ю.А. Социальные нормы и отклонения. - М.: 1997 г.
58. Лихачев Б.Т. Введение в теорию и историю воспитательных
59. ценностей. - Самара: 1997 г.
60. Маслов Н,Ф. Рабочая книга социального педагога. – М.: 1994 г.
61. Методика и технология социально-педагогической деятельности. - М.: 2003 г.
62. Мудрик А. В. Социальная педагогика. - М.: 2003 г.
63. Oilada ichkilikbozlikka qarshi kurash D.V.Kolesov taxriri ostida.-M.: Prosvehenie.1990 г.
64. Овчарова Э. В. Справочная книга социального педагога. - М.: 2003 г.
65. Подласый И. П. Педагогика. Новый курс / В 2-х Кн. - М.: ВЛАДОС, 2001 г.
66. Подласый И. П. Педагогика: 100 вопросов - 100 ответов. - М.: 2001 г.
67. Семенов В.Д. Взаимодействие школы и социальной среды. –М.1986 г.
68. Социальная дезадаптатсия: нарушения поведения у детей и подростков. - М.: 1996 г.
69. Юлдашев Д. Г. Системы повышения квалификatsii педагогических работников. – Т.: Шарк, 1996 yil.

MUNDARIJA

KIRISH

1-mavzu. IJTIMOIY PEDAGOGIKA FANI JAMIYAT RIVOJINING ASOSI SIFATIDA

- 2-mavzu. O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY PEDAGOGIKANING PAYDO
BO‘LISHI MADANIY-TARIXIY, IJTIMOIIY-XUQUQIY SHART-
SHAROITLARI
- 3-mavzu. O‘ZBEK XALQ PEDAGOGIKASI VA ISLOM TA’LIMOTIDA
IJTIMOIIY-PEDAGOGIK G‘OYALAR
- 4-mavzu. SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA SHAXS
IJTIMOIIYLASHUV MASALALARINI YORITILISHI
- 5-mavzu. XORIJDA IJTIMOIIY PEDAGOGIKANING RIVOJLANISH TARIXI
- 6-mavzu. O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY PEDAGOGIKANING RIVOJLANISH
TARIXI
- 7-mavzu. TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDAGI IJTIMOIIY-PEDAGOGIK
DOLZARB MUAMMOLAR
- 8-mavzu. IJTIMOIIY PEDAGOGIKANING NAZARIY ASOSLARI
- 9-mavzu. IJTIMOIIY PEDAGOGIKA FANINING KATEGORIYALARI VA
TAMOYILLARI
- 10-mavzu. IJTIMOIIYLASHUV - IJTIMOIIY PEDAGOGIK HODISA SIFATIDA.
IJTIMOIIYLASHUV OMILLARI VA VOSITALARI
- 11-mavzu. IJTIMOIIY TARBIYA
- 12-mavzu. IJTIMOIIY PEDAGOGNING KASBIY FAOLIYATI
- 13-mavzu. IJTIMOIIY-PEDAGOGIK FAOLIYATDA TEXNOLOGIYALAR
- 14-mavzu. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN TASHKIL
ETILADIGAN IJTIMOIIY PEDAGOGIK FAOLIYAT.
- 15-mavzu. UMUMTA’LIM MAKTEBLARI O‘QUVCHI-QIZLARINING
IJTIMOIIY FAOLLIGINI OSHIRISH USULLARI VA METODLARI
- FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

ОГЛАВЛЕНИЕ

ВВЕДЕНИЕ

Тема 1. СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НАУКА КАК ОСНОВА РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА

Тема 2. КУЛЬТУРНО-ИСТОРИЧЕСКИЕ, СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ УСЛОВИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Тема 3. СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ИДЕИ В УЗБЕКСКОЙ ПЕДАГОГИКЕ И ИСЛАМСКОЙ ДОКТРИНЕ

Тема 4. РАСКРЫТИЕ ВОПРОСОВ ЛИЧНОСТИ СОЦИАЛИЗАЦИИ В ТРУДАХ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ

Тема 5. ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКИ ЗА РУБЕЖОМ

Тема 6. ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Тема 7. СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ В ПРОЦЕССЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Тема 8. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОЦИАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКИ

Тема 9. КАТЕГОРИИ И ПРИНЦИПЫ СОЦИАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ НАУКИ

Тема 10. СОЦИАЛИЗАЦИЯ КАК СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ФЕНОМЕН. ФАКТОРЫ И СРЕДСТВА СОЦИАЛИЗАЦИИ

Тема 11. СОЦИАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Тема 12. ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СОЦИАЛЬНОГО ПЕДАГОГА

Тема 13. ТЕХНОЛОГИИ В СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Тема 14. СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ, ОРГАНИЗУЕМАЯ С ДОШКОЛЬНИКАМИ.

Тема 15. МЕТОДЫ И МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ
АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ
СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

CONTENTS

INTRODUCTION

Topic 1. SOCIAL PEDAGOGY AS A BASIS OF SOCIETY DEVELOPMENT

Topic 2. CULTURAL-HISTORICAL, SOCIO-LEGAL CONDITIONS OF THE EMERGENCE OF SOCIAL PEDAGOGY IN UZBEKISTAN

Topic 3. SOCIAL-PEDAGOGICAL IDEAS IN UZBEKISTAN PEDAGOGY AND ISLAMIC EDUCATION

Topic 4. COVERAGE OF INDIVIDUAL SOCIALIZATION ISSUES IN THE WORKS OF EASTERN THINKERS

Topic 5. HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF SOCIAL PEDAGOGY ABROAD

Topic 6. HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF SOCIAL PEDAGOGY IN UZBEKISTAN

Topic 7. ACTUAL SOCIAL-PEDAGOGICAL PROBLEMS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Topic 8. THEORETICAL FOUNDATIONS OF SOCIAL PEDAGOGICS

Topic 9. CATEGORIES AND PRINCIPLES OF THE DISCIPLINE OF SOCIAL PEDAGOGICS

Topic 10. SOCIALIZATION - AS A SOCIAL PEDAGOGICAL PHENOMENON. FACTORS AND MEANS OF SOCIALIZATION

Topic 11. SOCIAL EDUCATION

Topic 12. PROFESSIONAL ACTIVITY OF A SOCIAL PEDAGOGIAN

Topic 13. TECHNOLOGIES IN SOCIAL PEDAGOGICAL ACTIVITY

Topic 14. SOCIAL PEDAGOGICAL ACTIVITY ORGANIZED WITH PRESCHOOL CHILDREN.

Topic 15. METHODS AND METHODS OF INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF GIRLS IN GENERAL SCHOOLS

BIBLIOGRAPHY